

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

O.D.HAQNAZAROVA, D.I.ABDIRAXMANOVA

“MEDIA DIZAYN”

fanidan o‘quv qo‘llanma

60710300 – Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi
ta’lim yo‘nalishidagi bakalavr talabalari uchun



Toshkent – 2024

Annotasiya

Ushbu o'quv qo'llanmada kitob, risola, jurnal, qadoqlash, reklama va boshqa barcha matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun bosish jarayonlarida qo'llaniladigan zamonaviy dasturlar, mahsulotlar sifatiga qo'yiladigan talablar, matbaa dizayni hamda matbaada dizaynning vazifa, imkoniyat va ma'suliyatlari atroflicha yoritilgan.

O'quv qo'llanma 60710300 – Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi ta'lim yo'nalishidagi bakalavrlar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

O.D.Haqnazarova

TTYSI “Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” kafedrasida dotsenti t.f.f.d

D.I.Abdiraxmanova

TTYSI “Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” kafedrasida assistenti

Taqrizchilar:

D.R.Safayeva

TTYSI “Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” kafedrasida dotsenti t.f.f.d

S.R.Norova

MChJ “NOSHIR” bosh muharriri

O'quv qo'llanma Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan “___” _____ – 202____ – yildagi № ____ -sonli bayyonoma.

Kirish

Ushbu o'quv qo'llanma 60710300 – «Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi» bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga moljallangan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida tuzilgan. "Media dizayn" fanining matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'rni katta. Respublikamizda matbachilik sanoati kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash matbaa sanoatiga yetkazib berilayotgan mutaxassislarning hamma fanlardan yuqori bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini talab etiladi.

Hozir kunda O'zbekistonda matbaa sanoati jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir. O'zbekiston matbaa sanoati asosan iqtisodiyot real sektorining kichik va o'rta korxonalari faoliyat yuritadigan tarmoqdir. Matbaa sanoatining rivojlanishi, butun sanoatning o'sishi va muayyan maxsulotlarga bo'lgan iste'mol talabi kabi umumiy iqtisodiy omillar bilan belgilanadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida matbaa sanoati mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha qiymat ko'rinishida sanoati mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 1% dan 12% gacha ifodalanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda matbaa sanoatining hajmi yalpi ichki mahsulotning 0,5% dan 4% gacha, shu bilan birga, bu bozor ulushi rivojlanayotgan mamlakatlar 20% darajasida bo'lishi mumkin [1].

Respublikada matbaa va noshirlik sohasini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, bosma mahsulotlar bozorini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, matbaa sohasi bo'yicha meyoriy-huquqiy hujjatlarni, davlat va tarmoq standartlarini ishlab chiqishda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikni ta'minlash, noshirlik hamda matbaa korxonalari faoliyatiga oid qonun hujjatlarining amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilish, sohaviy qonunchilik bazasini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish asosida matbaa

korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirish ishlarini amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2].

Ma'ruzada ta'kidlanganidek, o'tgan 5 yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi, biroq shu bilan birga mazkur sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar ham yo'q emas. Kelgusi 5 yilda bu borada ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar alohida ahamiyatga ega.

“Bugun mamlakatimizning beqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgari lab borishni tahlil qilar ekanmiz, o'rgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir.

Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi.

Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahabrni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak” [3].

Shuningdek, prezidentimizning boshqa asarlarida ham yoshlarni tarbiyalash, ularga munosib sharoitlar yaratib berish, ish bilan ta'minlash, biznes yo'nalishlarida ularga turli imtiyozlar berish bo'yicha muhim fikrlar bildirilgan.

Matbaa korxonalarida faoliyat olib borayotgan uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish asosan quyidagicha tavsiflanadi:

- Matbaa uskunalarini yiriklashtirilgan tasnifi;
- Matbaa uskunalarining rivojlanish istiqbollari;
- axborotni kiritish va qayta ishlash uskunalari;
- fotoqolip tayyorlash uskunalari;
- bosma qolip tayyorlash uskunalari;
- sifatni nazorat qilish va yordamchi uskunalarning vazifalari haqida bilimga ega bo'lishi;
- bosma mahsulot ishlab chiqarishda prepress jarayonini tashkil qilish;

- ishlatiladigan an'anaviy, zamonaviy material va texnikalari bo'yicha ma'lumot to'plash;
- mahsulot turiga qarab to'g'ri uskuna tanlash va tanlovni texnologik hisobot bilan asoslash bo'yicha malakaga ega bo'lishi;
- bosma mahsulot turiga qarab prepress uskunolari turini tanlash;
- yarimmahsulot parametrlari o'zgarganda uskunalarni qayta sozlash;
- mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha uskunalarda mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish uslublaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Matbaa uskunasozi sanoatiga yetkazib berilayotgan quyidagi ehtiyot qismlar hamda foydalaniladigan xom ashyolar yuqori sifatga ega bo'lishi kerak:

- ofset uskunalar uchun rezina matolarning qayishqoqligi;
- bosma uskunalar uchun dekel materiallari;
- texnologik jarayonlarni masofadan boshqarib turadigan yuritmalar uchun ixcham harakatlantiruvchilar va boshqalar.

Shu qatorda ta'kidlab o'tish lozimki, yangi texnologiya va uskunalar eski texnologiyaga nisbatan atrof muhit uchun ma'qulroq. Bu ekologik talablar nuqtay nazaridan ishlab chiqarishni tashkil qilishda muhim omil hisoblanadi.

Shunga bog'liq holda aholini bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan tezkor yangiliklar bilan tanishtirish bormog'imiz lozim va bu sohada matbaa bosma mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish lozim. Bosma mahsulotlari yangicha fikrlashni shakllantirish vositasi, ijtimoiy fikrni ifoda qilish, siyosiy va ilmiy bilimlarni tarqatish, yoshlarni tarbiyalashning ta'sirchan vositasi hisoblanadi [4].

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 7 ta ustuvor yo'nalishlarini belgilab berilgan. Mazkur kontseptual hujjatda islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon qilib olindi [5].

Uskunalar tayyorlash ishlarini to'liq avtomatlashtirish uchun kerak bo'ladigan axborotni to'laligicha ixcham shaklda sig'dira olmaydi. Ma'lumotlarni saqlash

qurilmalarining hajmini kichraytirish mikroelektronika yutuqlaridan ancha ortda qolib kelmoqda. Ana shu «oraliq» davrda elektron boshqarish, shak-shubhasiz, yanada samarali bosish uskunalari va yangi materiallarni yaratish bilan birgalikda oraliq jarayonlarning soddalashuvi va arzonlashuviga imkon beradi [6].

Bosma mahsulotlarini standartlashtirish va sifatini nazorat qilishning asosiy vazifalaridan biri bosma tasvirlarining sifati va bir-biriga o'xshashligi mezonini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ular tadqiq qilinayotgan sifat mezonini doirasida ma'lum qo'yimlar chegarasida bir nusxaning ikkinchisiga muvofiqligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Ma'lumki, bosma mahsulotlarning sifati bevosita ishlatiladigan asosiy qog'oz materiallari va bosma boyoqlarning xususiyatlariga bog'liq. Qog'ozning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish sohasida olib borilayotgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qog'ozning sifat xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan bir tomonlama yondashuv bosib chiqarish jarayonining barqarorligiga va yakuniy mahsulot sifatini yaxshilashga olib kelmaydi. Bosma mahsulot bosib chiqarish jarayonida tasvirning shakllanishi qog'oz va boyoqning o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladi.

Tasvir sifati - grafik aniqlik, optik zichlik, ranglarning ko'payishi, shuningdek, texnologik jarayonning barqaror oqimi ishlatiladigan materiallarning fizik va texnologik xususiyatlari qanday namoyon bo'lishiga bog'liq.

Dunyo hamjamiyatida ro'y berayotgan bunday jadal o'zgarishlar va raqobatning keskinlashuvi jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib, yaqin va uzoq kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatdoshligini ta'minlay olmasligimiz ayni haqiqat bo'lib, bu esa, o'z navbatida, ilmiy va amaliy harakatlarni kuchaytirishni talab etadi.

60710300 – Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash tizimida xalqaro ta'lim berish malaka talablarini qo'llash, ajdodlarimizning boy milliy meroslarini shu jarayonga jalb qilish muhim hisoblanadi. Har tomonlama yuksak, malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan kadrlarni tayyorlashda «Media dizayn» fani muhim rol o'ynaydi.

«Media dizayn» fanining matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi oʻrni katta. Respublikamizda matbaachilik sanoati kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini jahon bozorida raqobatbardosh boʻlishini taʼminlash sanoatga yetkazib berilayotgan mutaxassislardan yuqori bilim, koʻnikma va malakaga ega boʻlishlarini talab etadi. Shuningdek, matbaa mahsulotlarini bezash, dasturlarda bezash usullari, maketlash va sahifalash haqida maʼlumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, kompyuter dasturlarini cheksiz imkoniyatlari, matbaa sohasidagi dizaynerlik mahorati sirlari haqida ham maʼlumot beradi. Ushbu fan matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarishda qoʻllanadigan matnli va rasmlil asl nusxalar, ularga qoyiladigan talablar, matbaada axborotni qayta ishlash texnologiyalari, ularning tuzilishi va oʻziga xosliklari, fan tarixi va rivojlanishining istiqbolini oʻzida ifoda etadi hamda sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni qoʻllash masalalarini yoritadi.

«Media dizayn» fani matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasining muhim bosqichini oʻz ichiga oladi. Matbaa va qadoqlash mahsulotlarini bejirim bezab, isteʼmolchilarga axborot yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Talabalarning «Media dizayn» fanini oʻzlashtirishlari uchun oʻqitishning ilgʻor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi innovatsion-axborot pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni oʻzlashtirishda darslik, oʻquv va uslubiy qoʻllanmalar, maʼruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda maxsus materiallardan foydalaniladi.

Ushbu oʻquv qoʻllanmadagi materiallarni oʻrganib, maketlash va matbaa jarayoni, bosmaxona tomonidan qoʻyiluvchi texnik talablar va bu talablarni maketni yaratish va tayyorgarlik jarayonida bajarish imkoniyatlari toʻgʻrisidagi bazaviy bilimlar bilan tanishishga erishiladi. Mutaxassis boʻlish uchun, nazariy bilimdan tashqari, koʻplab amaliyot va ish tajribasi talab etiladi, bu esa (vizitka) tashrif qogʻozidan tortib buklet, stol kalendari, har xil kataloglar, kitob va jurnalni sahifalashtirishgacha boʻlgan mustaqil ishlarni bajarish bilan hosil boʻladi. Buning ustiga qoʻllanmada sahifalashtirish va nashrgacha tayyorgarlik jarayonlarida yuzaga keluvchi asosiy savollarga javob izlashga vaqt ketkazmagan holda sizga yuqori

pillapoyalarga ko'tarilishingizga imkon beruvchi materiallar keltirilgan. Ushbu qo'llanma yangi ish boshlovchilarga eng kerakli dasturlarni bilish va o'rganishga yordam beradi.

I-BOB. MATBAADA DIZAYN VA DIZAYNER

Ushbu bobda umuman matbaa jarayon nima va dizayn mohiyatini hamda qanday yaratilishi to'g'risida bilib olishingiz mumkin. Ta'riflardan boshlaymiz.

Matbaa jarayoni – tayyor matbaa mahsulotni yaratishga qaratilgan bir qator omillardir, chunonchi:

- **Pre-press** - bosishgacha bo'lgan jarayoni (maketni yaratish, ranglarni ajratib ko'rsatish, qolip va asl nusxalarni chiqarish);
- **Press** - Bosish jarayoni; (adadni bosish)
- **Post press** –Bosishdan keyingi jarayon (bosma qog'ozni tayyorlash, qog'ozni ma'lum tartibda buklash, broshyuralash va h.k.).
- **Dizayn** – reklama yoki boshqa mahsulot maketini yaratishga qaratilgan majmuaviy ijodiy faoliyat. Dizayn – bu raqobat elementi, bu targ'ibot quroli va rassom tafakkurining ijodiy parvozi, bu ranglar, shakllar va materiallar uyg'unligidir.
- **Maket** – (fr. Maquette – masshtabli model) – bo'lg'usi matbaa mahsulotining elektron ko'rinishidagi modeli.
- **Asl nusxa** (original) – maket bo'lg'usi nashrga to'liq mos tushuvchi asl nusxa.
- **Bosishgacha bo'lgan jarayon** – nashr qilish jarayoni yordamida asl-maketning aniq nusxasini yuzaga keltirish imkonini beruvchi chora-tadbirlar majmuasi, shuningdek, bosish chog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni hisobga olish va ularni to'g'rilash.

Bosishgacha bo'lgan jarayon tayyorgarligiga quyidagi jarayonlar kiradi:

- Asl maketni xatoliklar mavjudligini tekshirish;
- Tasvirlar ranglarini aniqlashtirish;
- Ranglarni ajratib ko'rsatish;
- Chop etishda potensial muammolarni hisobga olish (to'yingan ranglarni takrorlanishini ta'minlash, uzuqliklarni oldini olish va h.k.);
- PS-faylni yozish;
- Keraksizlarni o'chirish;
- Plyonkalar va bosma shakllarni chiqarish.


1.1. Matbada dizayn va dizayner tushunchasi, dizaynerlarni vazifalari

Reklama mahsuloti ishlab chiqarish dunyosi bilan tanishishga kirishishdan avval, matbaa jarayoni nima va u qanday bosqichlarni o'z ichiga olishini tushunib olamiz.

Matbaa jarayon – matbaa bosma nashrlarni ishlab chiqarishga qaratilgan texnologik jarayonlar ketma-ketligidir. Texnologik jarayonlarga quyidagilar kiradi: matbaa mahsuloti maketini yaratish, nashrgacha tayyorlash, bosma qoliplarni tayyorlash, bevosita bosish va mahsulot tayyor bo'lgach bajariluvchi bir qator qirqish, bosib chiqarilgan qog'ozni tayyorlash, laminatsiyalash va h.k.

Bunday nozik va murakkab, barcha bosqichlari bir xilda muhim bo'lgan jarayon natijasida matbaa mahsulot – bosma nashrlar (kitoblar, broshyuralar, jurnal va gazetalar), bukletlar, kalendarlar, vizitkalar, flayerlar, varaqalar, jildlar va h.k. tayyor bo'ladi. Tayyor mahsulotning sifati sahifalash va nashrgacha tayyorlash bosqichlaridayoq belgilanadi, biroq afsuski, nashrgacha tayyorgarlikda ishlovchi mutaxassisning ishi bosma mahsulotning sifati buyurtmachining didiga muvofiq kelmaydigan holatlarni hisobga olmaganda, ko'zga tashlanmaydi.

Aslida, jarayon bosmaxona tomonidan buyurtmalarni bir qator talablarning sodda bajarilishiga bog'liq. Asosiysi ketma-ketlikni aniq hamda dasturlarni to'g'ri tanlashdir.



1-rasm. Dasturda o'lchamni belgilash

Har qanday mijoz tayyor mahsulotni kompyuter ekranida ko'rganidek olishni xohlaydi. Dizaynering xayolotlarini qog'ozga ko'chirish bosmaxonaning aniq talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Hamisha ijodiy yondashuvga tayanadigan

dizayner matbaa sohasidagi standartlarini hisobga olishi mas'uliyatini yanada oshiradi.

O'lcham. Bugungi kunda jiddiy mijozni taqdim etadigan birinchi savoli fayllarning qaysi o'lchamda qabul qilinishidir. Ikkita variant - TIFF va PDFlarni asosiy qo'llanadigan o'lchamlardir. Biroz tushunarsiz harflar (PSD, CDR, EPS, AI, JPG, GIF, BMP, PSB)dan iborat o'lcham nomlari dizaynerning asosiy ish qurolidir. PDF varianti bugungi kunda respublikamizda eng ko'p islatiladigan dasturlardan biri bo'lib, kamroq savollar tug'diradi va kamroq talablarga ega. Yuqori sifatli rasmga ega bo'lish rastrli obyektlar uchun piksellar sonini - 300 dpi (piksel/dyuym)ni belgilashni talab etadi.

To'q rang. CMYK ranglardan foydalanish maqsadga muvofiq. Oq va qora rasmlari kul rang sifatida saqlanadi. Shuningdek, aniqlikni samarali ta'minlash uchun boshqa rangli profillardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki faylni qayta ishlash jarayonida siz belgilagan ranglar siz kutganingizdan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Agar maket butunlay qora ranglardan iborat katta maydonlarga ega bo'lganda, bosilgandan keyin qora fon kul rangga aylanishi mumkin. Qora rang "chiroyli", to'yingan, fonning katta maydonlarida yoki katta matnda bo'lishi uchun, to'ldirishda qolgan ranglarning 50% (masalan, 50/50/50/100) dan foydalanish lozim.



2-rasm. Dasturda ranglar aniqligi va uyg'unligini aniqlash

Rasmdagi bo'yoqlarning umumiy zichligini kuzatib borish shart, u 320-340% dan oshmasligi kerak. Agar bo'yoqlarning zichligi yuqori bo'lsa, bosib chiqarishda jiddiy xatolarni yuzaga keltiradi.

Matn va shrift. Matnli buyurtmaning shakli va mazmuniga qarab shrift tanlash ham matbaa dizaynida katta ahamiyat kasb etadi. Kichkina rastrli matn ekranda aniq

ko‘ringani bilan chop etilganda u xira, yashirin bo‘lishi mumkin. Bosmaxonaga o‘qish qiyin bo‘lgan matnlarga duch kelmaslik uchun buyurtmani katta hajmdagi matn yoki kichik hajmli vektor shaklida (PDF o‘lchamida) taqdim etish yaxshiroqdir. Bosmaxona 14 va undan past o‘lchamdagi shriftni darhol vektorli grafik dasturga (Adobe Illustrator, Corel DRAW) yoki sahifalash dasturlari (masalan, Adobe InDesign) ustiga yozib qo‘yish uni PDF-ga to‘g‘ri o‘zgartirishni tavsiya etadi. Qora ranglarning barcha soyalarining qalinligi 0,1-0,2 mm oshmasligi kerak. Oq fonda ingichka qora yoki kulrang matnlarda qora rangdan boshqasi bo‘lmasligi kerak.

1.1.1. Sahifalash va dizaynda ishlatiladigan asosiy atamalar

«Sahifalash» deganda varaq ustiga (montaj stoli ustida) matn va sur‘atlarni tushirish (montaj qilish) tushuniladi. Shunga ko‘ra, sahifalovchi – elektron ko‘rinishida jurnal, buklet yoki kitob polosasi maketini yaratish bilan bunday montajni bajaruvchi mutaxassisdir.



3-rasm. Sahifalovchi ish jarayonida

Dizayner (bezatuvchi) asosan texnologik qismini sahifalovchiga qoldirgan holda dizayn konsepsiyasini yaratish bilan shug‘ullanadi. Masalan, dizayner bo‘lg‘usi jurnal uchun muqova va modul to‘rini bajaradi, sahifalovchi esa matn va tasvirlarni dizayn konsepsiyasiga muvofiq joylashtiradi. Biroq bugungi kunda mutaxassisdan dizaynni ham, sahifalashni ham va nashrgacha tayyorgarlikning asosiy onlarini, shuningdek, umuman bosib chiqarish jarayonlari yaxshi tushunish talab etiladi. Sahifalovchi kasbi – o‘ta ma’suliyatli kasb degan fikr ham mavjud. Bir necha xatolikka yo‘l qo‘yishning o‘zi bosma mahsulotning adadi buzilishiga olib kelishi mumkin. Maketni buyurtmachi bilan birga tasdiqlash qanchadan-qancha e’tirozlarga sabab bo‘ladi! Yana shunday holatlar bo‘ladiki, dizayn konsepsiyasi tug‘ilavermaydi yoki muharrir jurnal sahifalanib bo‘lganidan keyin oxirgi onda boshqa maqola yoki materialni olib

keladi. Birinchi qarashda faqat qiyinchilik, mashaqqatdek tuyuladi. Haqiqatdan esa bu juda qiziqarli va ijodiy kasb va mehnat natijasi shubhasiz, kishini o'z ishidan mamnun qiladi, eng asosiysi – ishlarni to'g'ri tashkil etish va maketda jiddiy xatoga yo'l qo'ymaslik lozimdir.

Sahifalovchi lavozimi matbaa sohasida ishlovchi mutaxassis uchun ko'pincha boshlang'ich bosqich hisoblanadi. Ko'pchilik muvaffaqiyatli rassom-dizaynerlar ham matn terish va sahifalashdan ish boshlaganlar.

Badiiy rassomchilik ma'lumotiga ega bo'lgan holda sahifalovchi dizayn va matbaa ishlarida ma'lum tajribaga ega bo'lgan holda texnik muharrir yoki bosma nashrga oid mahsulotlarni chiqarish bo'yicha ma'suliyatli lavozimlarga da'vo qilishi mumkin, reklama bo'limi boshlig'i bo'lishi yoki o'zining reklama agentligini ochishi mumkin. Asl maket yoki firma uslubini yaratuvchi sahifalovchi yoki dizayner ishidagi qiyinchiliklardan biri, o'zining shaxsiy mualliflik huquqini o'rnatish yoki uni himoya qilishi bilan bog'liq.

1.1.2. Matbaa jarayonida dizaynning ahamiyati

Matbaa jarayonni uch asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

- Pre-press (Bosishgacha bo'lgan jarayon);
- Press (Bosish jarayonlari);
- Post press (Bosishdan keyingi jarayonlar)

Biroq har qaysi bosqich doirasida turli matbaa yo'nalishidagi mutaxassislar tomonidan bajariluvchi alohida jarayonlar mavjud. U qadar katta bo'lmagan matbaa mahsuloti bo'lgan to'rt polosali bukletni sahifalash misolida bosishgacha tayyorgarlik yoki (nashroldi tayyorgarligi) jarayonsini ko'rib chiqamiz.



4-rasm. Buklet namunasi

Buklet maketini tayyorlash uchun, matn va fotosuratni tayyorlash zarur. Ushbu bosqichda ko'p hollarda dizaynerga ehtiyoj bo'lmaydi, bunday materiallarni ko'pincha buyurtmachi tayyorlaydi. Buklet matni va grafik shakllantirilishi har qanday axborot tashuvchida (kompakt-disk, fleshka va hokazo) chiqarilishi uchun elektron ko'rinishida tayyor bo'lishi lozim. Ushbu birinchi bosqich mediagacha tayyorgarlik (premedia) deb ham ataladi.

Ikkinchi bosqichda – sahifalashda (ushbu holatda marketinglash deyilishi o'rinlidir) bosh rolni dizayner-sahifalovchi o'ynaydi, u grafikaga oid muharrirda yoki sahifalash dasturida dizayn konsepsiyasini yaratadi, matn va fotosuratlarni elektron faylga sahifalaydi. Ushbu bosqichda sinov izlari, ranglarni ajratish va agar imkoni bo'lsa, rang namunalari amalga oshiriladi. Barcha ushbu choralar bosishga qadar ranglarni to'g'rilash va rang o'zgarishlarda xatolar yo'qligini tekshirish uchun zarur. Buyurtmachi rang namunani tasdiqlaydi va bosuvchiga u uchun etalon bo'lib xizmat qiluvchi bukletning maketi topshiriladi.

Bosishgacha tayyorgarlikning uchinchi bosqichida bosish chog'idagi potensial muammolarning hisobga olinishi amalga oshiriladi (to'yingan ranglarning takroriyiligini ta'minlash, rastrga oid uzilishlarni oldini olish va hokazo), PS-fayl yozilishi, rastrlash, plyonkalar va bosma qoliplarni chiqarish. Ushbu nozik va murakkab jarayonlar – bosishgacha tayyorgarlik muhandisi tomonidan bajariladi (prepress) va ishlarning natijasi uning harakatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Axborot tashuvchi fotoshakllar – shaffof plyonkalar ishlab chiqarilishidan boshlanuvchi, bosma qoliplar yasash jarayoni ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular muvofiq bo'yoq vositasida bosma iz orqali uzatilishi zarur. Fotoshakllardan shuningdek, oq-qora asl nusxalarni takror ishlanishida bir rangli bosma ishlarini bajarishda foydalaniladi. Fotochiqaruv – bu rang ajratilgan fotoshakllarni yasash jarayoni, shuningdek, bosma qoliplar yasash uchun foydalaniluvchi polosa yoki bosma varaqning barcha elementlarini kompanovkalash va montaj qilish jarayoni hisoblanadi. Aynan fotochiqarish chog'ida bosish vaqtida namoyon etiluvchi xatoliklar aniqlanadi.

Bosishgacha tayyorgarlikning ushbu bosqichi shu bilan tugaydi va bevosita bosish ishlari boshlanadi. Bosma qoliplar bukletni ko'paytiruvchi (adadlovchi) bosuvchi qo'liga kelib tushadi.

Bosib chiqarilgach, hali qir qilishi, bukilishi, broshyuralanishi va hokazo kerak bo'lgan bosma varaq hosil bo'ladi. Mana shular bosishdan keyingi tayyorgarlikdir, ular bilan qisqacha tanishish dizaynerga ham, sahifalovchiga ham birdek zarur, hech bo'lmaganda bukletning taxminiy narxini hisoblash va maketga barcha kerakli elementlarni kiritish uchun (masalan, belgilarini qo'yish).

Bosishdan keyingi jarayonlarning so'ngida buklet tayyor bo'ladi – bu tugallangan matbaa mahsulot bo'lib, bosmaxonadan buyurtmachiga keladi va u yerdan reklama dunyosiga – o'zining to'g'ridan-to'g'ri mo'ljallangan vazifasini bajarish uchun: tovarlarni, xizmatlarni va hokazo reklama qilishda foydalaniladi.

1.2. Maketlash bosqichlari

Maketlash bosqichlarida quyidagi masalalarni ko'rib chiqamiz:

- dizaynerlik ishlanmalar, dizaynning xomaki loyihasi (eskizi);
- nashrning o'lchami va bosma usulini tanlash;
- nashrning strukturasi;
- shriftlar va matn bilan ishlash;
- dizayn rangi va shakli;
- reklamadagi kompozitsiya va boshqalar.

Qanday qilib aniq va yorqin dizayn yaratish mumkin? Qanday qilib buyurtmachiga darhol yoqadigan maket yaratish mumkin? Boshlovchi mutaxassis uning ijodida doimiy xatolar va foydasiz izlanishlarni chetlab o'tishi mumkinmi? Bularning iloji bor, faqat ma'lum qoidalarga amal qilinishi lozim.

Birinchidan, dizayner yoki sahifalovchi maket yaratishdan avval, u albatta, buyurtmachining talab va takliflari, istaklarini yaxshilab o'rganib olishi lozim. Odatda buyurtmachining bunday talab va takliflari texnik vazifaga berilgan bo'lib, unda firmaga oid ranglar, buyurtmani dekorativ shakllantirish bo'yicha takliflar, mahsulotni bosib chiqarish amalga oshiriluvchi material, ish hajmi, muddatlar va boshqalar batafsil bayon etiladi. Agar tasdiqlangan texnik vazifa mavjud bo'lmasa

(bunday hujjat shartnoma kuchiga ega), u holda bildiriluvchi fikrlar va takliflarga katta e'tibor bilan qaratilishi lozim.

Muloqotning ushbu bosqichida maket reklamaviy yoki axborotga oid mahsulotga taalluqli ekanligini aniqlab olish darkor, chunki ushbu omil ko'p jihatdan dizaynini belgilaydi. Afsuski, buyurtmachi har doim ham dizayn yoki nashriyot sohasida mutaxassis bo'lavermaydi va ba'zan matbaa jarayonni yaxshi tushunmaydi, shuning uchun ham kerakli atamalarni topa olmaydi yoki o'zi tomondan buyurtma qilib berilgan buklet yoki kalendar maketi qanday ko'rinishga ega bo'lishi kerakligini umuman tasavvur qila olmaydi.

Jurnal dizaynini yaratish – yanada murakkab. Bunday holatda dizayn variantlari soni va qayta ishlash jiddiy mehnatni talab qiladi. Boshqa yo'nalishdagi dizayni studiyasi eshigida «Dizayn maket yaratilishiga buyurtmachining aralashuvida ishning narxi 50% oshiriladi!» degan yozuv yozilgani dizaynerlar uchun ayni haqiqatdek tuyuladi. Bunday bildirish injiq mijozga yaxshi ko'rina olmaydigan dizaynerga nisbatan adolatlidir, biroq ba'zan nima uchun buyurtmachi dizaynning yigirmanchi variantini ham rad etayotgani ustida bosh qotirish o'rinlidir. Balki dizaynerga malaka yetishmayotgandir yoki mijoz aniq nima xohlayotganligini aniqlashtirish lozim.

Dizaynerning tajribasi va iste'dodi hamda albatta, ijodiy yondashuvi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik e'tibor bilan mijozning takliflariga quloq tutadi, dizayn ham tezroq nishonga tegadi.

Ikkinchidan, shuni yodda tutish lozimki, agar birinchi bor qaraganda maketni yaratilish jarayoni tartibsiz, bir butun ijodiy jarayondan iborat bo'lmasa natija besamar ketishi mumkin. Ushbu bobni o'rganish dizayn konsepsiyasini yaratishga, shriftlar tanlash, rang va shaklni to'g'ri tanlashga, to'g'ri tartiblashgan holda yondashuv hattoki boshlovchi mutaxassisga ham o'zining durdona asarini yaratishga vaqt va kuchini tejash imkonini beradi. Yillar davomida ishlab kelayotgan mutaxassisga dizaynning ma'lum konsepsiyasini yaratish oson kechadi, chunki unga orttirgan ish tajribasi va mahorati yordam beradi. Endigina o'zining kasb yo'lini boshlagan sahifalovchi yoki dizayner nima qilishi kerak? Mualliflik huquqlari to'g'risida gapira turib, begona ish tarzidan nusxa olish oddiy o'g'rilik ekanligini

ta'kidlaymiz. Biroq qo'l ostida begonalar ishlari bo'lishini hech kim man etmaydi. Yetarli darajada ko'plab ishlarni ko'rib (ma'lum mavzudagi) o'zining shaxsiy ish tarzini (stilini) ishlab chiqish mumkin. Hatto o'ziga yoqib qolgan maketni asos uchun olib va uni o'zi tajribadan o'tkazgan holda dizayner o'zining shaxsiy ish tarzini yaratadi va unda begona still elementlari mavjud bo'lmaydi. Shunday ekan, agar sizning yaxshi va a'lo darajali dizayner bo'lish niyatingiz bo'lsa, ishni begona dizaynerlik ishlanmalaridan ma'lumot bazasini yig'ishdan boshlang.

Buni qilish oson – komyuterda maxsus papka yaratib, uni o'zingizga yoqadigan reklama mahsuloti bilan to'ldirishni boshlang. Kundalik hayotda bizni flayerlar, bukletlar, kalendarlar, jurnallar, etiketkalar, qadoqlar kabi reklama va bosma mahsulotlarning juda katta miqdori o'rab turadi. Mana shulardan o'z shaxsiy jildingizni (papka) shakllantiring. Dizayn va sahifalashni o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichida bunday ma'lumotlar bazasi sizga juda ham yordam beradi, keyinchalik tajriba ortishi bilan birga, dizayner undan sekin-asta bosh torta boshlaydi va maket uning o'z miyasida shakllanib chiqa boshlaydi, chunki shu vaqtga kelib uning ongi yetarlicha bilim, mahorat va malaka to'planadi. Shuningdek, «salbiy» dizaynerlik ishlanmalari bilan, shundaylari bilanki, ularning mo'ljallangan maqsadining o'zi bizga: «Bunday qilish mumkin emas!» ekanligini eslatib tursin. Biroq bunday papkasiz ham ish boshlash mumkin.

Ko'pgina dizaynerlar, boshlovchilar ham, tajribalilar ham ma'lumotlar bazasini elektron ko'rinishda saqlaydilar, chunki bu ko'p holatlarda qulaydir.

Va nihoyat, xususiy dizaynerlik ishlanmalari ma'lumotlar bazasini olib boriluvchi yana bir papka tutilishi va unga o'zingizni barcha ishlaringizni joylab, vaqt o'tishi bilan sizning ishlash tarzingiz va mahoratingiz yaxshilanib, charxlanib borishini kuzatishingiz lozim. Bunday papka bilan (portfolio) dizayner muvaffaqiyatli ravishda yangi ishga joylashishi yoki o'zining ijodini barcha xohlovchi, qiziquvchilarga ko'rsatishi mumkin.

1.2.1. Buyurtmani turiga qarab maketlash bosqichlari

Dizayn ishlab chiqish jarayoni eng avvalo g'oyadan boshlanadi. G'oyaning ketidan eskiz boshlanadi. Xomaki loyiha va eskiz nima? Reklama maketi eskizi – maketning bo'lajak g'oyasini aks ettiruvchi dastlabki xomaki loyiha, xomaki rasm lavhasidir.

Eskiz yaratishda miya shturmini o'tkazish yomon bo'lmaydi, ya'ni o'z aqlingiz va qo'lingiz ekranga miyaga kelgan barcha xomaki loyihalarni tushirishiga ijozat bering. Ular beshta yoki o'nta bo'lishining ahamiyati yo'q. So'ng ma'lum sabablarga ko'ra ulardan amalga oshmasligi mumkin bo'lganlarini (masalan, bu mahsulotni ishlab chiqarish narxi juda yuqori bo'lishida) saralab chiqarib tashlanishi mumkin. Va qachonki ulardan 2-3 tasi eng yaxshilari va shu bilan birga real bo'lsa, maketni elektron ko'rinishda sahifaga o'tkazishga kirishish mumkin. Ba'zida esa rasm lavhalari va qoralama eskizlarni buyurtmachiga ko'rsatilishi mumkin va uning o'zi variantlarni saralab oladi.




5-rasm. Xomaki qo'lyozma, chizgi, logotip

Oxirgi paytda ko'pincha nimaga afzallik qaratish yoki nimani afzalroq deb bilish – kasbga oid uskunaga, eskizga yoki qog'ozgami? Bir qator dizaynerlar bir yo'la eskizni elektron ko'rinishda yaratish imkonini beruvchi grafik planshetlarni afzal deb biladilar. Biroq hali ko'pchilik rassomlar avval qog'ozga qalamda eskiz tushirib, so'ng uni skanerlaydilar. Bunday holatda marketinglash quyidagi bosqichlarda o'tadi: dastlabki eskiz, skanerlash, xomaki qo'lyozma, eskiz, tayyor maket.

Eskiz qog'oz varag'ida qalam yoki ruchkada bajariladi, so'ngra skaner yordamida kompyuterga o'tkaziladi va vektorli yoki ratrli grafik tahrir ostida keyingi ishlov beriladi.


Skanerlangan rasrtrli tasvir CorelTRASE yoki Adobe Illustrator dasturida trassalashtiriladi.

Sahifalovchi uchun polosa eskizi boshqacha ko‘rinishga ega, u gazeta yoki jurnalning modul turi bo‘lib hisoblanadi.



6-rasm. Jurnal polosasining eskizi

Eskiz tasdiqlangach va barcha detallar aniqlangach, keyingi muhimlikda qolishmaydigan jarayon – o‘lcham tanlash va bosma usulini belgilash boshlanadi.




7-rasm. Berilgan eskiz bo‘yicha sahifalangan polosa

Agar siz davom etayotgan nashrni sahifalayotgan bo‘lsangiz, u holda o‘lcham belgilab bo‘lingan va tahririyat ma‘lum bosmaxona bilan ishlayotgan, bosma usuli va adad narxi ma‘lum bo‘lgan bo‘ladi. Agarda siz gazeta va jurnalning yangi ko‘rinish tarzini yaratayotgan birinchi dizayner bo‘lsangiz, ayniqsa, agar so‘z buklet yoki

boshqa reklama mahsulotining maketi to'g'risida ketadigan bo'lsa, o'lcham va bosma usuli – sizning ishingiz va sizning tanlovingizdir.

1.2.2. O'lchamlar bilan ishlash

1975 yil Jahon jamoatchiligi tomonidan qog'oz o'lchamlariga xalqaro standart qabul qilindi. U ISO 216 deb ataladi.



8-rasm. ISO A seriyadagi qog'oz o'lchami

ISO 216 ga muvofiq qo'goz o'lchamlarining uchta – A, B va C asosiy seriyalari mavjud. A-seriya dizayn va sahifalashda eng keng tarqalgan o'lcham hisoblanadi. Tomonlarning nisbati ushbu seriyada ikkidandan olingan kvadrat ildiziga teng, bu taxminan 1: 1,4142 ga tengdir. O'lchami bo'yicha eng katta o'lcham – A0 (841x1189 mm). Boshqa o'lchamlarning o'lchamlarini aniqlash oson – bir tomononining o'lchami ikkinchi tomon o'lchamidan ikki marta kam. Ya'ni bu ikkiga buklangan varaq demakdir. Eng kichik o'lcham – 26x37 mm. O'lcham tanlashda standartga suyanish lozim, chunki uni bosmaxonada bosish osondir. Journallar uchun eng ommaviy, ravon bo'lib A4 standart, gazetalar uchun – A3, bukletlar uchun A4 va A5 standart o'lchamlar ommaviy hisoblanadi. Ammo bundan chekinishlar bo'lishi ham mumkin. Axir nostandart o'lcham jurnal yoki buklet boshqa nashrlar orasida ajralib turadi. 4-jadvalda ISO standartining eng keng tarqalgan o'lchamlari haqida umumlashtirilgan ma'lumotlar keltiriladi. A seriyadagi standartlardan tashqari, B seriyaning kamroq tarqalgan o'lchamlari mavjud. B0 o'lcham 1000x1414 mm o'lchamga ega, eng kichigi (B 10) – 31x44 mm. B seriya ofislarda deyarli qo'llanilmaydi, biroq bir qator maxsus qo'llanishga ega – posterlar, konvertlar, pasportlar va kitoblar (masalan, B5). C seriyasi faqat konvertlar uchun mo'ljallangan

va ISO 269 standartida belgilanadi. C seriyasi varaqlarining maydoni A va B seriyasi varaqlari shu tartib raqami bilan o'rtacha geometrik o'lchamiga teng. Buning amaliy mazmun-mohiyati shundaki, A4 varag'ini C4 konverti ichiga joylash mumkin, C4 konvert esa qattiq B4 konvertiga joylanadi.

Ba'zi mamlakatlarda (AQSH, Janubiy Afrika, Kanada, Filippin) Amerika milliy standartlar instituti (ANSI) tomonidan ishlab chiqilgan Amerika o'lchamlaridan foydalaniladi. Ko'pincha «Letter», «Legal» va «Ledger» / «Tabloid» o'lchamlardan foydalaniladi. 1-jadvalda ushbu standartlar keltirilgan. Siz ushbu barcha o'lchamlarni CorelDRAW, Illustrator va InDesign dasturlarida ko'rishingiz mumkin.

ISO/DIN qog'ozi o'lchamlari

1-jadval

A seriyasi o'lchamlari		B seriyasi o'lchamlari		C seriyasi o'lchamlari	
O'lcham		O'lcham		O'lcham	
Mm	dyuym	mm	dyuym	mm	Dyuym

O'lcham tanlab olingandan so'ng, buyurtmachi bilan bosib chiqarish usuli va taxminiy narxni kelishib olinishi zarur. Buni shuning uchun qilinishi lozimki, ko'pincha mijoz taklif etilgan maketni bosib chiqarish qanchaga tushishini tasavvur qila olmaydi.

Ba'zan buyurtmachi maketni narxi yoqmaganligi sababli undan bosh tortadi.

Yuqorida bosish jarayoni va usullarini batafsil ko'rib chiqqan edik.

2-jadvalda esa muayyan bosma mahsulotlar bo'yicha qisqacha tavsiyanomalarni keltiramiz.

Matbaa mahsulotlarini bosib chiqarish usulini tanlash

2-jadval

Mahsulot	Bosib chiqarish usuli
Jurnal	Ofset
Gazetalar, kitoblar	Ofset, rizograf, katta adadlar uchun chuqur bosma

Buklet	Ofset, raqamli bosma
Oddiy tashrif qog‘ozi	Raqamli bosma – agar darhol kerak va adadi katta bo‘lmasa – tezkor, katta adadlar uchun – ofset bosma
VIP-tashrif kartochkasi	Trafaret bosma, termografiya
Sovg‘a mahsuloti	Trafaret (futbol-kalar, beysbol-kalar, zontlar), tampobosma (krujkalar, ruchkalar, brelok-lar, zajigalkalar), fleksografiya (paketlar)
Flayerlar, varaqalar	Rizografiya, ofset bosma, raqamli bosma
Banner, afisha, transportlarni shakllantirish	Kengo‘lchamli bosma - plyonkada, bannerli matoda bosish
Etiketkalar, PVX, qadoqlar	Fleksografiya
Relyef yozuvli tashrif va tabrik qog‘ozlari, blanklar	Ofset bosma, trafaret, termografiya
Tennis koptokchalariga, bir martalik idishlarga, kuldonlarga va hokazo rasmlar va logotiplar tushirish	Tamponografiya

Bo‘lajak marketning o‘lchami va bosib chiqarish usuli tanlangach, shriftlar tanlanishi zarur. Rang va tasvirlarni uyg‘unlashtirish, so‘ngra sahifalashtirish jarayoniga kirishish lozim. Biroq agar gazeta, jurnal yoki kitobning davriy nashrini sahifalashtirish to‘g‘risida gap ketayotgan bo‘lsa, u holda polosa maketini yaratish oldidan nashr strukturasi bilan tanishib chiqilishi lozim.


1.3. Buyurtmani sahifalash

Barcha obyektlarni ajratib olinadi, “Document Info” oynasi ochiladi (“Oyna” – “Hujjat haqida axborot” menyusi. 9-rasm). Quyidagi ma’lumotlarni tekshiriladi.

“Objects” ilovasida (“Obyektlar”) quyidagilar mavjud bo‘lishi lozim: “Transparent Objects = NONE” hamda “Transparent Groups = NONE”, agar maketda shaffof obyektlar mavjud bo‘lsa, u holda “Flatten Transparency”ni vazifasi olinadi.

“Linked Images” va “Embedded Images” ilovalarida ro‘yxatdagi barcha tasvirlar uchun: “Type: CMYK” yoki “Grayscale”, “Resolution”: kamida 250x250 belgilanadi.

Maketga “View” – “Overprint Preview” rejimida qarang (noto‘g‘ri o‘rnatilgan atributlarni “overprint” ilg‘ashga imkon beradi).




9-rasm. Adobe Illustrator dasturidagi “Hujjat to‘g‘risida axborot” oynasi

Nashrni to‘plash: hujjatni AI faylining grafik o‘lchamida saqlab qo‘yib, saqlash opsityalarida “Include Linked Files” belgisi qo‘yiladi.

Agar maketda RGB quymatlar va “ta’qiqlangan” vektorli elementlarga ega – soyalar, shaffofliklar, linzalar va hokazo obyektlar mavjud bo‘lsa, ularni “File” – “Document Info” yoki “Obyektlar menejeri” oynasida ko‘rish mumkin.

Nashrlarni to‘plash ushbu dasturda “File” – “Prepare For Service Bureau” (“Fayl” – “Servis byurosi uchun tayyorlansin”) komandasi yordamida amalga oshiriladi (10-rasm).



10-rasm. Servis byurosi uchun CorelDRAW dasturida faylni (maketni) tayyorlash

Bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatolarni bartaraf etib, xoh bu jurnal bo‘lsin, tashrif qog‘ozi (vizitka) yoki buklet bo‘lsin, nashrdan chiqishda siz ajoyib mahsulotni olasiz. Biroq nashroldi tayyorgarligi uchun zarur bo‘lgan yana bir narsa bor bo‘lib, u – maketda belgilar va xos belgilarini joylashtirishdir.

1.3.1. Nashrlarni sahifalash dasturlari va matnlari qayta ishlash

Villu Toots shriftni «belgilarda tafakkur bilan mujassamlashgan» deb atadi va bu to‘g‘ri fikr, maketni muvaffaqiyati ko‘pincha shriftga bog‘liq bo‘ladi, shrift o‘qilishi oson bo‘lishi, reklama maketlarida diqqatni o‘ziga tortishi va aksincha o‘zining bezak elementlari bilan katta matnni o‘qilishida xalaqit bermasligi ya’ni qulay o‘qiluvchanlikni ta’minlash lozim. U yoki bu shriftni qanday qilib to‘g‘ri tanlash mumkin?

Birinchi navbatda o‘zaro moslikdagi maketni yaratishga yordam beruvchi yashirinch qoida mavjudligini ta’kidlaymiz. Jurnal yoki gazetadagi maqolalar uchun uchtdan ortiq bo‘lmagan shriftlardan, sarlavhalar uchun ham ko‘pi bilan uch shrift va rubrikalar uchun bir shrift dan foydalanilish tavsiya etiladi. Matbaa mahsuloti dizaynini yaratishda ham shu qoida amal qiladi – kalendar, buklet yoki tashrif qog‘ozi maketini yaratish uchun ikki-uchta shrift dan va ularning yozilish shaklidan foydalaniladi. Shunday bo‘lsada, agar mavzu talab qiladigan bo‘lsa, bu qoidalardan chekinish mumkin. Masalan, bolalar gazetasida o‘n ikkitagacha turli shriftlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Biroq bugungi kunda ham aksariyat tahririyat gazetani aynan shunday ko‘rinishda bo‘lishiga kichik o‘quvchilar o‘rganib qoldilar. Shunday bo‘lsada juda ko‘p mahsulotlar dizaynini maketning g‘oyasi belgilaydi.

Kitob, jurnal va gazetadagi asosiy matnni sahifalashtirish uchun shriftlar tanlanishida tizimli shriftlardan (Font Core) foydalanish tavsiya etilmaydi.

Shriftlarning barcha turlarini ma’lum oilalar bo‘yicha sinflarga ajratish mumkin. Grafika asosiga bog‘liq ravishda shriftlar: ruscha, lotincha, grekcha, arabcha va boshqa shu kabi rasmga bog‘liq ravishda shriftlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

1. Kertiksiz shriftlar (groteskalar-sansserif) – harflar kertikliklarga ega emas, asosiy va birlashtiruvchi shtrixlar ularda bir xil qalinlikda, Arial, Tahoma, Futura.

2. Kertikli shriftlar (serif) – harflar kertikliklarga ega, masalan, Times New Roman, Garamond, Botoni.
3. Qo‘lyozma shriftlar (script-skriptlar) qo‘lda yozilgan harflarni va kalligrafik xatni o‘zidek o‘xshatishga harakat qiladi, masalan, Brash Script, Vivaldi, Boyarsky, Lucida Hand writing.
4. Aralash (dekorativ) shriftlar (PI) – bu ramziy shriftlar yoki ornamentlar.
5. Dekorativ shriftlar (decorative), masalan, Decor, Cash, Valhalla.



11-rasm. Dekorativ shriftlar

Kertikli shriftlardan masalan, kitoblar yoki gazetalardagi maqolalar matni katta bo'lishida foydalanish tavsiya etiladi, chunki o'zining kertiklariga ko'ra, bunday shrift «satrni ushlaydi», hajmli matnlarni oson o'qilishiga imkon beradi. O'lchami 9 dan 14 punktgaacha o'zgarishi mumkin, lekin ko'pincha 9-10 punkt.

Kertiksiz shriftlar, u qadar katta bo‘lmagan hajmdagi axborot bo‘lishida maqolalar sarlavhalarida yoki reklama ma’lumotlarida aksincha yaxshi ko‘rinadi (katta o‘lchamdan foydalaniladi, oson o‘qiluvchi yoki esda saqlanib qoluvchi garnitura). Shriftlarning boshqa turlaridan maketni dekorativ shakllantirish uchun foydalaniladi.

Odatda dizaynerda shriftlarni tanlash yuzasidan katta tanlov imkoniyati mavjud, eng keragi – ularning soni bilan chalgʻimaslik kerak. Baʼzida yirik kompaniyalarda firmaga oid shriftlarni tanlash va ulardan foydalanish boʻyicha aniq tavsiyalar beriluvchi brend-buk mavjud boʻladi. Shriftlar bilan boʻlgan mulohazalar ravshanlashgach, dizaynning eskizlar va umuman konsepsiyasiga tayanib, sahifalashga oʻtish mumkin.

Matn sahifalashtirilgach, albatta, xatolarni tekshirish va soʻzlarda boʻgʻin

ko‘chirishlarni joyiga qo‘yish lozim.

1.3.2 Sanoq sonlarni ko‘chirish va yozish qoidalari

Agar so‘z jurnal, kitob yoki bukletni sahifalash to‘g‘risida ketadigan bo‘lsa, sahifalash bo‘yicha mutaxassis tashvishlanmasa ham bo‘ladi – odatda tahririyatda korrektor – barcha matnlarning xatolarini tekshiruvchi, filologiya ma’lumotiga ega bo‘lgan mutaxassis hisoblanadi. Biroq agar sahifalash chog‘ida sanoq sonlarni yozishda va so‘z qismlarini o‘tkazilishida ba’zi elementar xatolarga yo‘l qo‘yilmasa vaqtni tejash mumkin bo‘ladi. Agar dizayner bukletni sahifalayotgan bo‘lsa, qo‘l ostida korrektor mavjud bo‘lmaydigan holatlarda maketni xatosiz, yaxshi yozilishi ustidan uning o‘zi kuzatishiga to‘g‘ri keladi.

Matn terilishida qo‘llaniluvchi ba’zi asosiy qoidalarni keltiramiz.

Matnni sahifalashda eng ko‘p savollar so‘zlarni o‘tkazish va sanoq sonlarni yozishda yuzaga keladi. Bu hatto korrektor tomonidan o‘qib bo‘lingan matnga ham tegishlidir, axir so‘zlarni o‘tkazish va bo‘sh joylarni sahifalovchi ishlash vaqtida qo‘yib chiqadi.



12-rasm. Sanoq sonlar

Ajratib bo‘lmaydigan bo‘shliqlar matnni kengligi bo‘yicha to‘g‘rilanishida va so‘zni yangi satrga o‘tkazilishida so‘zlar o‘rtasidagi masofani o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan joyda qo‘yiladi:

- «№» (tartib raqam belgisi), «§» (mavzu) va sanoq son – chi, masalan, № 32, §55
- Sonni razryadlarining uchlamchi guruhlari o‘rtasida, besh xonali sonlardan boshlab (32000, 162000, 1000000)
- Ro‘yxatlarda ro‘yxatning tartib raqami va birinchi so‘z o‘rtasida (marker bilan).

Masalan:

1. Bo'sh joy
2. Tire
3. Defis.

1.4. Matnlarning elementlari va o'zgacha turlari

Ushbu mavzu bo'yicha quyidagilar ko'rib chiqiladi: atamalar, shriftlarni o'rnatish va ko'rish uchun dasturlar (Bitstream Font Navigator), shriftlar oilasi, ularni uyg'unlashgan birikuvi, olib o'tkazish hamda sanoq sonlarni yozilish qoidalari, dizaynda matnga oid effektlar kabilarga asosiy tushuncha beriladi.

Avvalgi mavzularda kitoblar, gazetalar, jurnallar kabi nashrlarning elementlarining bayoni keltirilgan bo'lib, ular uyg'unlashgan shriftlarni tanlashni talab etadi. Firma stili, buklet, tashrif qog'ozi va hokazo kabi har qanday reklama mahsuloti shriftlarini to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanish ishlab chiqarilayotgan har qanday mahsulotni rivojlanish istiqbolini belgilaydi. Dizayn konsepsiyasini yaratishda matbaa mahsulotiga e'tiborni jalb qilishda shrift hal qiluvchi rol o'ynashini esdan chiqarmaslik lozim va hatto katta axborotni tasvirlar o'zida saqlashida ham, shrift umumiy g'oya bilan uyg'unlikda bo'lishi lozim.

Jurnalda qancha shrift, qanchasi bukletda bo'lishi lozim, ularni qanday birgalikda olib borish va tanlash kerak? Qanday qilib so'zni bo'lib boshqa satrga o'tkazish va sahifalash dasturlarida qanday effektlar mavjud? Ushbu bo'lim mana shu masalalarga bag'ishlangan.

Atamalar va tushunchalar

Shrift (Schrift, nem. Schreiben – yozmoq) – bu ramzlar (harflar, raqamlar va boshqa belgilar) ma'lum garnitura, o'lcham va chizgining to'plamidir.

Garnitura – o'xshash chizgiga ega bo'lgan turli ko'rinish va o'lchamli shriftlar gruppasi, rasm xususiyati bo'yicha bir xil bo'lgan shriftlar birlashmasi; hozirda ushbu atama «Shrift» so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi.



13-rasm Turli shriftlar

Kegl (o‘lcham) – bu ramziy belgi balandligining o‘lchami, ko‘pincha punktlarda ifodalanadi (1 punkt $1/72$ dyuymga – 0,3527 mm ga teng) yoki piklarda (12 punkt) yoki sisero (5,62 sisero 1 dyuymga teng). Shriftning har qaysi o‘lchami o‘z nomiga ega.

Yozilish shakli – shriftni shakllantirish usuli. Quyidagi yozilish shakllari mavjud: Normal (odatdagi), Bold (yarimto‘q), Italic (kursiv yoki og‘ma), Bold Italic (yarimto‘q kursiv), Condensed (ingichka) va Extended (keng).


Treking va Kerning – ramziy belgilar orasidagi masofa, ya’ni harflararo oraliq joy.

Kerning deb, harflararo oraliq joy kengligini muayyan literalar juftligi uchun o‘zgarishiga, Treking esa – satrdagi barcha ramziy belgilar o‘rtasidagi kenglikka aytiladi.

Interliniyaj (xalqaro interval) – ikki satrning bazaviy chiziqlari o‘rtasidagi masofa.

Bazaviy chiziq – ramziy belgining asosiy elementining pastki chekkasi bo‘yicha o‘tuvchi chiziq.

Bugungi kunda minglab turli shriftlar mavjud, ularning barchasi umumiy oilaga birlashtirilgan, ular to‘g‘risida keyinroq batafsil to‘xtalamiz. Shriftlarini aniqlanishi va ko‘rish oson bo‘lishi uchun maxsus dasturlar yaratilgan, ulardan biri (bizningcha, eng qulayi) – Font Navigator.



14-rasm. Shriftlarni aniqlash va ko‘rish uchun dasturlar

Odatda kompyuterdagi shriftlar C/Windows/Fonts papkasida saqlanadi, ammo dizayner va sahifalovchini me‘yorida ishlashlari uchun standart to‘plam kamlik qiladi, uyg‘unlashgan maket yaratish uchun turli oila va turli yozilish shaklidagi 150-200 shrift talab etiladi. Shriftlar diskdan maxsus dasturlar yordamida o‘rnatiladi. 300 dan ortiq shriftlar o‘rnatish tavsiya etilmaydi, chunki bu kompyuter va grafik dasturlar ishini sekinlashtiradi va yaxshisi shriftlarni ko‘rish-kuzatish va tahrirlash imkonini beruvchi dasturlar yordamida o‘rnatishni amalga oshirilishi ma‘quldir. Keyin bu dasturlarning qisqacha bayoni keltiriladi.

Font Navigator

Bu dastur hatto Windows da o‘rnatilmagan shriftlar kolleksiyasini ko‘zdan kechirish va xohishga ko‘ra zarurlarini o‘rnatish imkonini beradi, shu bilan birga kompyuter xotirasini tejaydi. Dastur tushunish uchun sodda, ko‘rinshi qulay, unda ortiqcha narsa yo‘q, buning ustiga u ko‘pincha shriftlar to‘plami bilan komplekt holida yoki nashriyot dasturlari bilan diskda yetkaziladi. Oynaning chap qismida shriftlar katalogi, o‘ngida o‘rnatilgan shriftlarning ro‘yxati joylashadi. Pastda o‘ngda tanlangan shriftning aks etishini ko‘rish mumkin. Shriftni nomini shrift o‘rnatish chap oynadan chap oynaga oddiy harakatlantirish orqali sodir bo‘ladi (yoki sichqonchaning o‘ng knopkasini – “Ustanovit” chiqishi uchun bosiladi). Shunday qilib, shriftlarni istalgan boshqa o‘zida tutuvchi diskidan yoki papka ichidan o‘rnatish mumkin.

Dastur shriftlarni ko‘zdan kechirish va joylashtirish uchun, shuningdek, operatsion tizimni shriftlari bilan muammolari mavjudligicha tekshirish uchun mo‘ljallangan. Ichiga o‘rnatilgan «Ekspert Kirillov» namoyon etadi (topadi) va

shriftlar bilan bog‘liq muammolarni hal etadi.

Font Expert

Dasturning asosiy funksiyalari (vazifalari)

- Shriftlarni ko‘rish, ko‘zdan kechirish
- Shriftlarni izlash
- Shriftlarni boshqarish
- Shriftlarni kataloglash



15-rasm Font Navigator dasturining interfeysi

- Shriftlarni bosish
- Shriftlar xususiyatlarini ko‘zdan kechirish
- Shriftlar bilan bog‘liq muammolarni namoyon qilish va ularni yechish
- Windowsda qo‘shimchalar.

Font Expert quyidagi turdagi shriftlarni boshqaradi: True Type, Open Type, Post Script, Adobe Typel. Shriftlarni ko‘zdan kechirish har qanday o‘zida tutuvchidan olib, shu jumladan, tarmoq bo‘yicha ham amalga oshirilishi mumkin.

Agar shunday funksiyalarni bajaruvchi o‘zaro faqatgina interfeys bilan farqlanuvchi turli ishlab chiqaruvchilarning bir qator dasturlari mavjud.

Fontlab Studio – shriftlarning malakali (kasbiy) muharriri hisoblanadi.

True Type, Type 1 (PS), Open Type va Unicode larni quvvatlaydi.

Font View by Nicola – tizimda o‘rnatilganlari bo‘lgani kabi, (*.ttf, *.fon) fayllar ko‘rinishidagi alohida papkalarda joylashgan shriftlarni tez va qulay ko‘zdan kechirish uchun mo‘ljallangan dasturdir. Interfeysning inglizcha va ruschadan iborat ikki tilni quvvatlaydi.



16-rasm. Font Expert dasturidagi shriftlarni ko‘zdan kechirish

Fonts Show 2.0 – shriftlarni ko‘zdan kechirish va o‘rnatish dasturi bo‘lib, shunisi bilan qulayki, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matn kompyuterda o‘rnatilgan shriftlarning har qaysisini yozilishida hozir bo‘ladi (gavdalanadi). Dastur barcha shriftlar katalogini yaratish va ro‘yxatni shakllantirishni yuklashga imkon beradi (misol matni uchun o‘lcham va shrift o‘lchami, shriftlarning nomlari uchun rang).


Olingan ro‘yxat ochilishi yoki RTF o‘lchamida saqlanishi mumkin. Ruscha interfeysga ega.

Artel Fonts List – yana bir dastur bo‘lib, u ham shriftlar bilan ishlaydi. U birinchi navbatda dizaynerlar, sahifalashtiruvchilar uchun va ko‘plab shriftlar bilan ishlovchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘z kompyuteriga yetarli sondagi shriftlarni o‘rnatgan holda, mutaxassis maketni yaratish uchun yanada ko‘proq shriftlarni tanlanish imkoniyatini oladi va uning keyingi vazifasi – ushbu shriftlarni ijodiy asarida o‘zaro moslikda birlashtirishdan iborat.

1.4.1. Jadvallar, ularning ko‘rinishi

Shakldor logotip shakllardan tashkil topadi; qoidaga ko‘ra shakllar nimanidir ifodalaydi va kompaniya bilan uyushgan holda bo‘ladi, masalan, agar bog‘ xo‘jaligining logotipida olma yoki uzumdan foydalanilsa, bu firma nima bilan shug‘ullanishi tushunarli bo‘lishi mumkin. Ammo bugungi kunda mevalar logotipi bosqa firmalar uchun ham ishlatilmoqda.

Shriftli logotip harflardan tuziladi; u firma nomi yoki belgidan iborat bo‘lishi mumkin. Standart shriftlardan foydalanilgani kabi qo‘lyozma va dekorativ shriftlardan ham foydalaniladi. Bunday logotiplarni yaratishda ko‘pincha berilgan kompaniya uchun maxsus o‘ziga xos shriftlar ishlab chiqiladi.

Yozuvli shakldor logotip. Harf va shakllar uyg‘unlashuvi uchun qo‘llaniladi; bunday variant ko‘p uchraydi. Ba‘zan ma‘lum shakllarga yozilgan harflar ham bo‘ladi.



47-rasm. Mashhur firmalar logotiplari

Bunda dunyoda mashhur kompaniyalarning logotiplari ko‘rsatilgan. Logotiplar har xil shakllar va yozuvlarga ega, ba’zilar faqat shakllarga, ba’zilar esa faqat yozuvga ega. E’tibor beradigan bo‘lsak – logotiplarda o‘ziga xos ajoyib shriftlardan foydalanilgan.

2.8. Varoqli mahsulotlar maketi

Maket sahifalangach va unda ikkitadan ortiq polosalar mavjud bo‘lsa, ushbu polosalarni montaj varog‘iga shunday joylash lozimki, bunda bosilgandan keyin nashr sahifalari kerakli tartibda navbatlanishi lozim. Masalan, A4 o‘lchamidagi jurnalni olsak, shunda siz varaqlar A4 emas, balki A3 ekanligini, ya’ni ikki barobar katta ekanligini ko‘rasiz. Ikki taraflama jurnal yoki bukletning sahifalari bosilgan. Shunday qilib, to‘rt polosani bosish uchun ikki barobar katta o‘lchamli ikki varoq kerak bo‘ladi. Bu nashr polosalarini varoq ustida yoyilish jarayoni bo‘lib, polosalarni tushirish deyiladi.



48-rasm. Impositionda sahifalarni belgilash

Polosalarni tushirish jarayonsi bosishgacha bo‘lgan jarayon tayyorgarligi muhandislari vazifasiga kiradi. Biroq ba’zan dizaynerga ham polosalarni tushirish zaruriyati yuzaga keladi va bunda ushbu jarayonni qaysi dasturda amalga oshirilishi

yaxshiroq degan savol tugʻiladi. Albatta polosalar tushirishni maket sahifalanishi amalga oshirilgan dasturda bajarilishi qulay boʻlgan boʻlar edi. Biroq aynan shu yerda muammo tugʻiladi. Sahifalashning hamma dasturlari ham bunday zaruriy funktsiya bilan qurollanmagan boʻlib chiqadi va bunda maxsuslashtirilgan dasturlardan foydalanishga toʻgʻri keladi.

Sahifalash dasturlari nimalarga qodir ekanligini koʻrib chiqamiz. Adobe PageMaker – sahifalashning eski dasturlaridan biri boʻlib (hozirgi vaqtda kamdan-kam hollarda undan foydalaniladi), polosalarni tushirish uchun tartiblashtirilgan moduliga ega. Ushbu dastur PageMaker hujjatlarining oʻzida polosalarni tushirishga imkon beradi yoki tayyor tushirilgan polosalari boʻlgan yangi hujjatni yaratish imkonini beradi.

Afsuski, dasturning bir qator jiddiy kamchiliklari mavjud («egri chiziqlar» tushiruvchi qurollarining mavjud emasligi, matnni obyektga olib oʻtkazishning mumkin emasligi va h.k.), shuning uchun dizaynerlar va sahifalovchilar amalda undan foydalanmaydilar.

Ushbu dastur polosalarni tushirish uchun moʻljallangan dastlabki koʻrib chiqilishi uchun Xpress va PageMaker maketlar fayllarini shuningdek, TIFF, PICT, EPS va PostScript fayllarini import qilishi va chiqarishi mumkin. Impositiondan foydalangan holda bir daftarda yonma-yon tarzda PageMaker va Xpress sahifali fayllarini sigʻdirish mumkin.

Imposition paketi bilan bir jamlamada daftarlarning dastlabki tarzda bayon etilgan tahrirlanuvchi shablonlari qoʻyiladi. Ular qirgʻiluvchi va uzatiluvchi belgilarga, shu bilan birga nazorat qilinuvchi rang shkalalariga egadir; dastur treppingning asosiy paketlarining koʻp qismi bilan, xususan, DKandA kompaniyasining Trapper xususiy dasturi bilan moslashadi. Imposition shuningdek, OPI dasturlarining koʻplarini quvvatlaydi. Paket har qanday PostScript qurilmasiga chiqarishni bajarishi mumkin.

2.9 Qoʻshimcha dasturlar

QuarkXPress dasturi qoʻshimcha modulni talab etadi (Alap Imposer va boshqalar). Adobe Design dan foydalanilishida Alam Imposerga qoʻshimcha

oʻrnatilishi zarur, biroq polosalarni tushirish bevosita printerda amalga oshiriladi va dastur faqat PostScript printerlari bilan yaxshi ishlaydi.



49-rasm. QuarkXPress dasturining interfeysi

CorelDRAW – tushirish qoʻl yordamida

Adobe Illustrator – tushirish qoʻl yordamida

Agar sahifalovchi ishida polosalarni doimiy ravishda tushirilishi talab etilsa, yaxshisi Preps (Kodak), Imposition (DK & A), Imposition Publisher (Farrukh Systems), Press Wise (Luminous), Imposition Second Generation (Ultimate) kabi maxsuslashtirilgan dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Qoʻshimcha dasturlarni oʻziga xos xususiyatlarini koʻrib chiqamiz.

2.9.1 Preps

Preps (Kodak firmasi ishlab chiqaradi) – polosalar tushirishning kompleks malakaga oid dasturi. Bu polosalarni elektron tartibda tushirish uchun eng ommalashgan dasturiy paketlaridan biridir.

Preps – plyonkaga yoki plastinkaga chiqarish oldidan alohida betlarga polosalarni elektron tarzda tushirishini bajarish uchun moʻljallangan kuchli paketdir. Prepsdan PostScript yoki PDF-muhitda alohida ilova sifatida, hamda Apogee, Brisque, Prinergy va Ramapage kabi nashrgacha tayyorgarlik tizimlarining komponenti sifatida foydalaniladi.

Dasturning asosiy vazifasi – nashrning alohida polosalarini va xizmat koʻrsatish elementlarini avtomatlashgan tarzda joylashtirilishidan iborat.

Preps bir necha oqimli rulonli nashrlar, CIP-3 va IDF oʻlchamida ish toʻgʻrisidagi xizmatga oid axborot vazifasi, PO dan nashrgacha, bosma va bosishdan keyingi uskunalar ustidan boshqarish kabi eng murakkab tushirish vazifalarini ham quvvatlaydi.

Preps turli rejimlarda ishlash layoqatiga ega. Avtonom ishlashida dastur PS, EPS, PDF va b. o'lchamlaridagi lavhalar oqimidan FNA (Fotonabor avtomati) ga chiqarishga tayyor tushiriluvchi fayllar yuritishi mumkin. Kodak Prinergy va Prinergy Evo Preps tarkibida odatda polosalarni betga oid mustaqil tushirilishini hosil qilinishi bilan dinamik joylanuvchi lavhali JDF-shablonlarni yaratish uchun foydalaniladi.

Preps dasturi – rastrlangan sahifalarini tushirilishini bajarishi mumkin bo'lgan yagona dasturdir. Balki shuning uchun ham polosalarni tushirish uchun bo'lgan boshqa standart dasturlar bilan taqqoslaganda paket qadoqlashni ishlab chiqaruvchi bozorida eng kuchli pozitsiyalarni egallaydi. Preps alohida kesiluvchi va uzatiluvchi nishon-belgilar berilishi bilan fayllar turlarini, shuningdek, turli o'lchamli sahifalar va yo'nalishlarni aralashtirilish imkonini beradi, shuning uchun bir nechta u qadar katta bo'lmagan vazifalarni bir sahifada joylashtirilishi mumkin va bu qadoqlar va etiketkalarni chop etishda odatda amaliyotdan o'tkaziladi.



50-rasm. Preps dasturining interfeysi

Preps moslamalarining qulay o'zgaruvchanligi uni barcha xususiy o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda har qanday ishchi muhitga integrallash imkonini beradi. Preps nafaqat jurnal taxlamlarini tayyorlash imkoniyatini, balki rolleli mashinalarda chop etilishi uchun maxsuslashtirilgan kitobiy va gazeta taxlamlarini tayyorlash imkonini beradi. Preps yordamida uyacha tushirish bilan taxlamalarni o'z ichiga olgan holda murakkab etiketka va qadoqlash taxlamalarini tayyorlash mumkin.

Preps dasturi PostScript, PDF, EPS, DCS, TIFF va DeltaList kabilarda berilgan lavhalarni bir bosma varaqda kombinatsiyalashi mumkin.



51-rasm. Dasturni ishga solish darchasi

Bundan tashqari, agar bosma mashinasining o'lchami chiqaruvchi qurilma o'lchamidan kattaroq bo'lsa, u holda Preps katta bosma varaqlar taxlamini chiqaruvchi qurilma o'lchami bilan moslashtirgan holda kesishi mumkin, ya'ni paket bosma mahsulotlarni tayyorlashda ko'plab muammolar kelib chiqishiga sabab bo'luvchi qo'l montajidan to'liq voz kechish imkonini beradi.

Tayyor taxlamlar tezkor matbaa tizimining ofset plastinkalarni to'g'ridan-to'g'ri eksponirlash tizimining foto-teruvchi avtomat turidagi uskunasi, keng o'lchamli plotter yoki lazerli printerda mos keluvchi chiqaruvchi qurilma bilan uyg'unlashuvchi istalgan PostScript yoki PDF da chiqarilishi mumkin (48-49-rasmlar).

2.9.2 Press Wise

Ushbu dastur polosalarni tushirishga mo'ljallangan bo'lib, varaqli ofset bosmaga, shuningdek, birdan to'rttagacha bo'lgan (yoki bundan ko'proq) rangli nashrlar va kitoblarni bosishga yo'naltirilgan.



52-rasm Press Wise dasturi

Press Wise amalda sahifalashning barcha dasturlari bilan va har qanday platformalarda generirlangan PostScript fayllarni tushirilishini bajaradi. Ushbu ilovada ko'psahifali tarkibiy fayllar bilan, shuningdek, aralashmali yoki triad bo'yoqlar bo'yicha rang taqsimlangan fayllar bilan va alohida EPS sahifalar bilan jarayonlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Polosalarni tushirish uchun mo'ljallangan boshqa dasturlarga o'xshash, Press Wise shablonlar kutubxonasi bilan birga yetkaziladi yoki xususiy shablonlarni yaratishga imkon beradi. Dastur bir nechta hujjatlardan iborat sahifalarni yig'ish, shuningdek, har qaysi bo'yoqning parametrlari ustidan boshqarish va rastrning burilish burchaklarini to'g'rilash imkoniyatlarini beradi. Impostrip dasturi kabi Press Wise ham sahifalar uchun daftarda keyinchalik qo'yilishi lozim bo'lgan bo'sh shablonlarni qo'yish imkonini beradi. Dastur lazerli printer, fototo'plovchi avtomatlar, raqamli ofset mashinalari, to'g'ridan-to'g'ri eksponirlash qurilmalari va shakllarini chiqaruvchi kabi uyg'unlashuvchi mos qurilmalarni har qanday PostScriptga chiqarishga yo'l qo'yadi.

2.9.3 Impostrip Second Generator

Impostrip – bu Ultimate Technographics kompaniyasining klassik mahsuloti bo'lib, u «avval tushirish, keyin rastrlash» texnologiyasidan iborat. Ranglarni taqsimlash, sahifalash va treppinglash uchun paketlarning keng diapazoni bilan moslashadi. Bir yoki undan ortiq ranglarda varaqli yoki rulonli turli ko'rinishlaridagi sahifalarga bosish uchun daftarlar shablonlarining katta jamlanmasiga ega. Shablonlarda qir qiluvchi va uzatuvchi belgilar, shuningdek, nazoratga oid rang shkalalarining katta to'plami mavjud.

Ultimate Technographics kompaniyasi shuningdek, «rastrlash – keyin tushirish» konsepsiyasini amalga oshirish imkonini beruvchi Trapeze trepping dasturini ishlab chiqdi. Trapeze Impostripga ilova sifatida xizmat qiladi. Trapeze dasturi (preflight) fayllarini dastlabki tarzda tekshirish ishlarini bajaradi. Daftardagi sahifalarni to'g'riligini, shriftlarni to'g'ri terilganligini, tasvirlar mavjudligini va boshqa parametrlarni nazorat qiladi.

2.9.4 Adobe Acrobat



53-rasm Adobe Acrobat dasturi interfeysi

Adobe Acrobat dasturida PDF o'lchamda polosalarni tushirish muayyan nashr parametrlariga muvofiq ravishda polosalarni tushirishning turli-tuman sxemalarini amaliyotga joriy etish imkonini beruvchi Quite Imposing Plus (plug-in) plugin yordamida amalga oshirilishi mumkin. Quite Imposing Plus daftar (kitobcha, bloknot) sahifalariga polosalar tushirish jarayonini avtomatlashtirish uchun Adobe Acrobatga eng qulay va sifatli dastur hisoblanadi.

2.10 Kitob qismlarning o'ziga xosligi

Agar e'tibor qilgan bo'lsangiz, ko'pchilik davriy nashrlarda har bir polosasida takrorlanuvchi elementlar – jurnalning nomi, betlarning tartib raqamlari va hokazo mavjud. Bu nashrni yagonaligini va o'quvchi uchun qulay qilib qo'yadi. Ba'zi mushtariylar odatiy tarzda gazeta yoki jurnalning ma'lum joyidan o'zlariga yoqqan rubrikani izlaydilar, shuning uchun sahifalashtiruvchi ushbu elementlarni shakllantirishda bir xildagi stilga amal qilishi lozim. Matbaa dunyosida bunday elementlar o'z nomiga ega. Ushbu mavzuda biz hujjat strukturasi bilan tanishamiz va nashr elementlarini o'z nomlari bilan aytishni o'rganamiz.



54- rasm Kitob ko'rinishi


So'ng nashrning kitob va jurnal elementlarining ularni nashrda joylashish tartibidagi ro'yxati va bayoni qisqacha keltiriladi.

Muqova – nashrning to'rt betli qog'oz qoplamasi bo'lib, u kitob yoki jurnal varaqlarni mahkamlaydi va nashr to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib (jurnal, kitobning nomlanishi, muallifning ismi familiyasi), shakllantirib taxt qilingan nashrning tashqi elementi hisoblanadi.

Kitoblardagi kontrtitul deb yuritiluvchi elementi nashrning bosh tituli qarshisiga joylashtirilgan juft sonli polosadan iborat, boshqacha aytganda bu aylantirib ochiluvchi titul varag'ining chap tomonidir.

Avantitul (chiquvchi varaq) – agar uning ustiga qandaydir matn (masalan, kitobning nomi) qo'yilgan bo'lsa titul varaq bilan aylantirib ochilishi oldidan joylashadi. Odatda bu to'rt betdan tashkil topgan, titul varaq oldidan joylashgan, kitob blokining birinchi betidir.

Titul varag'i, yoki titul nashrning birinchi chiqish beti bo'lib, unda nashr to'g'risida asosiy ma'lumotlar: muallifning familiyasi, nashrning nomi, nashr qilinish joyi, yili va hokazo. Qoidaga kora, titul nashrning birinchi polosasida joylashadi va butun polosani egallaydi.



55-rasm. Nashr strukturasining elementlari

Juft polosada titul bilan bir ichki betda joylashuvchi rasmga – frontispis (fr. Frontispise) deyiladi. Odatda frontispis rasm yozuvga ega bo'lmaydi, ammo ba'zan yozuvning o'rnida muallifning avtografi beriladi.

Chiqarilish ma'lumotlari – bu nashr to'g'risida asosiy ma'lumotlar bo'lib, nashrni tayyorlash va chiqarishda ishtirok etgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, kitobiy nashrlar uchun barcha mualliflarning familiya, ism-shariflari, muharrir,

rassom, texnik muharrir, korrektorlar va hokazo shuningdek, nashriyotning to'liq nomlanishi va manzili kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Annotatsiya deb, kitobiy nashr yoki jurnaldagi maqolaning mazmunini va maqsadlarini qisqacha bayon qilinishiga aytiladi. U odatda titul orqasida, odatdagi matnning shriftidan kichik shriftda teriladi. Kitobda annotatsiya betning markazida joylashadi.

Kolontitul – bob, bo'linmaning qisqa nomi. U ko'pincha ma'lumotnoma nashrlarida ishlatiladi va ma'lumot beradigan deyiladi. Ma'lumotnomali kolontitul terish sahifasining tepasiga qo'yiladi va uning o'lchamiga kiradi. Kitoblarda (ko'pincha she'riylarda) kolontitul kolonchizg'ich ko'rinishiga ega bo'ladi hamda dekorativ kolontitul deyiladi. Gazetalarda kolontitul terish sahifasining past tomoniga qo'yiladi va uning o'lchamiga kiradi.

Kolonraqam terish sahifasining tepasiga yoki pastki tomoniga qo'yiladi. Sahifaning past tomoniga joylashtirilgan kolonraqam terilgan sahifa o'lchamiga kiritilmaydi va matndan 4 dan 12 pt gacha oraliq bilan ajratilishi kerak, bunda ajratishning o'lchami kolonraqamni terish uchun ishlatiladigan shrift keglidan kichik bo'lishiga harakat qilinadi.

Asosiy matn deb, kitob, jurnaldagi maqola, gazeta nashrlarining mazmunini ochib berishda bosh rolni egallovchi matnga aytiladi.

Snoska – ya'ni kitob ostidagi havola – betning pastida joylashuvchi, asosiy matnga qo'shimcha yoki tushuntirish tarzida beriluvchi va (yulduzcha yoki raqam) orqali belgilanuvchi qo'shimcha satrlar.

Tugallovchi polosa – nashrning yoki uning bob yoki bo'limining oxirgi polosasi, undan keyingi matn qizil satrdan boshlanadi. Tugallovchi polosa ko'pincha to'liq bo'lmaydi, biroq unda kam matn qoldirish maqsadga muvofiq emas (polosaning to'rtidan biridan kam bo'lmasligi lozim).

Ilovalar deb matnni to'ldiruvchi va nashrning oxiriga joylashtiriluvchi materiallarga aytiladi. Bir necha ilovalar (qoidaga ko'ra, raqamlangan) har qaysisi yangi polosada sahifalashtirilishi mumkin.

Ko'rsatkichlar – o'quvchiga nashrdagi kerakli matnni tez topishga yordam

beruvchi ma'lumot beruvchi material.

Epigraf deb, kitobning, uning alohida qismining yoki bobining asosiy mazmunini ifodalovchi, mashhur mualliflar asarlaridan olingan sitata, maqol yoki aforizmga aytiladi. Epigraflar odatda matn shriftidan kichik shriftda, polosaning barcha kengligi ishg'ol qilmagan holda sahifalashtiriladi.

2.11 Kitobni bezash uchun dasturiy vositalarni tanlash

Hozirgi kunda, har bir kishi uchun o'zini-o'zi ishlab chiquvchi smartfonlar, planshetlar va kompyuterlar yetarli bo'lsa, elektron kitoblarning mashhurligi tobora ortib bormoqda. Bunday kitoblarni o'qishni yanada qiziqarli va qulay qilish uchun ularning mazmunini vizual tarzda to'g'ri formatlash tavsiya etiladi. Buni amalga oshirish uchun chiroyli va o'qilishi mumkin bo'lgan matn yaratishga yordam beradigan kitob tartibi uchun maxsus dasturlardan foydalanish kerak.

Hozirgi vaqtda bozorda ko'plab kitoblarni joylashtirish dasturlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlarga ega. Lekin bu xilma-xillikdan qaysi dasturni tanlash kerak? Quyida ushbu sohadagi eng yaxshi yechimlardan ba'zilar keltirilgan, ular kitoblarni joylashtirish uchun mashhur va samarali vositalardir.

Adobe InDesign kitoblarni joylashtirish uchun eng mashhur dasturlardan biridir. U professional kitob tartibini yaratish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi va foydalanuvchilarga qulay interfeysga ega. InDesign-da siz matn, grafikalar, jadvallar va boshqa ko'plab elementlar bilan ishlashingiz mumkin. Bundan tashqari, dastur kitobni turli formatlarga, jumladan, EPUB formatiga eksport qilish imkonini beradi.

QuarkXPress - bu kitoblarni joylashtirish uchun ishlatiladigan yana bir mashhur dastur. U professional kitob maketlarini yaratish imkonini beruvchi boy vositalar va funksiyalarga ega. QuarkXPress shuningdek, turli formatlarga eksport qilish imkoniyatini beradi va yuqori tezlikni ta'minlaydi.

Adobe InDesign va Microsoft Word hujjatlarni yaratish va joylashtirish uchun ishlatiladigan ikkita asosiy dasturdir. Ikkala dastur ham foydalanuvchining ehtiyojlari va vazifalariga qarab o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Adobe InDesign - bu hujjatlarni joylashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan professional dastur. U kuchli tipografiya vositalari, murakkab tartiblarni yaratish qobiliyati, ko'p sahifali hujjatlarni qo'llab-quvvatlash va maxsus uslublar bilan ishlash qobiliyati kabi keng ko'lamli vositalar va xususiyatlarni taklif etadi.

Microsoft Word esa butun dunyoga mashhur matn protsessor bo'lib, u barcha turdagi hujjatlarni yaratishda keng qo'llaniladi. U uslublar, jadvallar, rasm qo'shish va avtomatik raqamlash kabi matn formatlash vositalarining boy to'plamini taklif etadi.

Adobe InDesign va Microsoft Word dasturlarining bir-biridan farqalanishi:

- Professional sahifalash: Adobe InDesign bosma yoki elektron nashr qilish uchun murakkab hujjatlarni yaratish va joylashtirish uchun yanada rivojlangan vositalarni taklif etadi.

- Tipografiya: Adobe InDesign-da tipografiya bilan ishlash uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud, masalan, kerning, yetakchi va defislarni boshqarish. Bundan tashqari, u OpenType shriftlarini qo'llab-quvvatlaydi.

- Ko'p sahifali: Adobe InDesign ko'p sahifali hujjatlar, masalan, kitoblar, jurnallar yoki broshyuralar bilan ishlash uchun mos keladi.

- Hujjatning hajmi: Microsoft Word kichik va o'rta hajmdagi matnlar bilan ishlashda qulayroqdir. Bu Adobe InDesignga qaraganda ancha murakkabroq bo'lishi mumkin.

- Hamkorlik: Microsoft Word boshqa ilovalar bilan osongina integratsiyalanadi va keng qo'llaniladigan .docx fayl formati tufayli loyihalarda osonroq hamkorlik qilish imkonini beradi. Adobe InDesign fayl almashish va hamkorlik uchun qo'shimcha qadamlarni talab qilishi mumkin.

Adobe InDesign va Microsoft Word o'rtasidagi tanlov loyiha turiga va foydalanuvchi ehtiyojlariga bog'liq. Agar professional tartib va murakkabroq hujjatlar bilan ishlash kerak bo'lsa, Adobe InDesign eng yaxshi tanlov bo'lishi mumkin. Agar katta hajmsiz matnli hujjatlarni oddiy yaratish va formatlash kerak bo'lsa, Microsoft Word yanada qulayroq va arzonroq yechim bo'lishi mumkin.

2.12. Kitob muqovasini yaratish

Kitob muqovasi asosan yumshoq va qattiq muqovalari bo'lishi mumkin. Yumshoq muqovalari kitoblar qattiq muqovalari kitoblarga nisbatan arzonroq bo'ladi. Qattiq muqovalari kitoblarni ishlab chiqarish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, integral muqovalar ham mavjud - yarim qattiq turdagi, Rossiyada ko'pincha darsliklarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Ushbu bog'lamlar kitob blokini shikastlanishdan himoya qilish uchun yetarlicha qalin, lekin ayni paytda yengil va yasash oson, bu ularni maktab o'quvchilari uchun ideal muqovaga aylantiradi. Bunday qoplamaning yaratish uchun zichligi 200-500 g/m² bo'lgan laminatlangan karton ishlatiladi.

Kompyuterda kitob muqovasi yaratish, ayniqsa, professional dizayn mahoratiga ega bo'lmaganlar uchun juda og'ir ishdek tuyulishi mumkin. Biroq Microsoft Word ijodkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratadi va tez va oson yuqori sifatli muqova dizaynini yaratish imkonini beradi. Microsoft Word yordamida kompyuterda kitob muqovasi yaratishga yordam beradigan bir necha oddiy qadamlar mavjud.

Birinchi qadam, muqovadagi elementlarning o'lchamini va joylashishini aniqlashdir. Buning uchun Microsoft Word vositalaridan, masalan, Ruler va Grid Background Grid-dan foydalanish mumkin. Muqova o'lchamini, orientatsiya rejimini (portret yoki landshaft) va muqovadagi sarlavha va tasvirlarning o'rnini tanlash mumkin.

O'lchamlar va joyni aniqlagandan so'ng, muqovani yaratishni boshlash mumkin. Birinchi qadamlardan biri bu muqova uchun fon tanlashdir. Tayyor ranglar yoki rasmdan foydalanish mumkin. Agar tayyor rasm mavjud bo'lsa, uni "Chizma" menyusidagi "Qo'shish" buyrug'i yordamida muqovaga kiritish mumkin. Bundan tashqari, original dizaynni yaratish uchun turli shakllar va chiziqlardan foydalanish mumkin.


Microsoft Word-da kitob uchun muqovani yaratganda, professional ko'rinish va dizaynga erishishga yordam beradigan turli xil andozalar mavjud.

1. O'rnatilgan shablonlar: Microsoft Word o'rnatilgan kitob muqovasi shablonlari to'plamini taklif qiladi. Taqdim etilgan variantlar ro'yxatidan shablonni

tanlash va uni moslashtirish mumkin. O'rnatilgan kitob muqovasi shablonlariga kirish uchun yuqori menyudan "Qo'shish" yorlig'ini tanlash va keyin "Sahifalar" bo'limidagi "Muqova" tugmasini bosish kerak. Taqdim etilgan shablonlardan birini tanlanadi va uni mos ravishda sozlanadi.

2. Onlayn shablonlar: Microsoft Word ham onlayn kitob muqovasi shablonlariga kirishni taklif qiladi. Ushbu shablonlarga kirish uchun yuqori menyudan "Qo'shish" yorlig'ini tanlash va "Sahifalar" bo'limi ostidagi "Muqova" tugmasini bosish kerak. Keyin "Office.com saytida ko'proq muqovalar" variantini tanlanadi va foydalanish mumkin bo'lgan juda ko'p sonli kitob muqovalari shablonlari taqdim etiladi. Foydalanishni boshlamoqchi bo'lgan shablonni tanlash kifoya.

3. O'z xohishiga qarab shablon yaratish: Agar taqdim etilgan variantlardan mos shablonni topilmasa, har doim kitob muqovasini yaratish mumkin. Bo'sh hujjat bilan boshlanadi va barcha kerakli elementlarni va dizaynni qo'shiladi. Kitob uchun noyob muqovani yaratish uchun tasvirlar, shakllar, matn bloklari va boshqalar kabi obyektlardan foydalanish mumkin.



56-rasm. Kitob muqovasini yaratish

Kitob muqovalarini loyihalash uchun turli xil onlayn xizmatlardan foydalanish mumkin, masalan, Crello, Envato Elements, Placeit, Desygner, Canva va boshqalar. Eng mashhur variantlardan biri Canva onlayn muharriridir. Ushbu platformada muqovani yaratish umuman qiyin emas, eng muhimi, tez va qo'shimcha xarajatlarsiz.

2.13 Kitob muqovasini yaratishda qo'yiladigan talablar

Qattiq muqovali kitoblarni yaratishda qo'yiladigan texnik talabalar:

- CMYK rang maydoni, ruxsati 300 dpi,

- har tomondan 18 mm,
- pastki va yuqoridagi muqova otstavi 4 mm,
- otstav chap va o'ngda 8 mm,
- yon tomonlarning kengligi 140 mm (yoki boshqa kesilgan format: 120 mm, 170 mm, 205 mm, 200 mm),
- yon balandligi 200 mm (yoki boshqa formati: 170 mm, 240 mm, 205 mm, 280 mm),
- muqova qatorini hisoblash: (bir blokda 250 dan ortiq sahifalar) = $(0,052 * \text{tartibdagi sahifalar soni}) + 2 + (0,0045 * \text{tartibdagi sahifalar soni})$,
to'g'ridan-to'g'ri (har bir blokda 250 sahifadan kam) = $0,052 * \text{tartibdagi sahifalar soni} + 2$,
- qattiq muqovali kitob uchun sahifalar soni - 96 dan 1200 gacha;
- fayl - pdf.



57-rasm. Qattiq muqovali kitob muqovasi

Yumshoq muqovali kitob muqovasini yaratishda qo'yiladigan texnik talabalar:

- CMYK rang maydoni, ruxsati 300 dpi.
- har tomondan 5 mm,
- yon tomonlarning kengligi 140 mm (yoki boshqa kesilgan format: 120 mm, 170 mm, 205 mm, 200 mm),

- yon balandligi 200 mm (yoki boshqa trimmed formati: 170 mm, 240 mm, 205 mm, 280 mm),
- muqova qatorini hisoblash: $0,053 \cdot \text{tartibdagi sahifalar soni} + 1$,
- qattiq muqovali kitob uchun sahifalar soni - 60 dan 600 gacha;
- fayl - pdf.



58-rasm. Yumshoq muqovali kitob muqovasi

Elektron kitob muqovasini yaratishda qo‘yiladigan texnik talabalar:

- birinchi muqova,
- RGB rang maydoni,
- ruxsat 300 dpi,
- hajmi - 140*200 mm,
- fayl *.jpg, *.jpeg yoki *.png.



59-rasm. Elektron kitob

2.14 Rasm va matnning uyg'unligini ta'minlash


Dizaynda matnga oid effektlarga quyidagilar kiradi:

- Gradiyent va tekstura bilan quyish;
- Hajmiy harflar;
- Matnni yo'lga solish;
- Soya;
- Hajmli matn;
- Aks etuvchi matn;
- Matnostidan yorug'lik;
- Metalli matn;
- Shaffof matn;
- Yonuvchi harflar;
- Yarqiroq matn.

Ba'zi effektlarni CorelDRAW, Illustrator vektorli dasturlarda yaratish mumkin, biroq Adobe Photoshop Rasrtrli redaktorida matnni shakllantirish uchun stillar zaxirasi mavjud. Bunday matn rastr ko'rinishida saqlanadi va maketga rasm ko'rinishida qo'yiladi.

2.15 Gradiyent va **tekstura** bilan quyish

CorelDRAW dasturi andozalarida ko'plab chiroyli gradiyent va teksturalar mavjud. Ularni «Заливка» asbobi orqali qo'llash oson, faqat andozalardagi **teksturalar** kichik yechimga ega va har doim ham bosmaga yarayvermaydi. Shuning uchun teksturani Photoshop dasturida yaxshi yechimda tayyorlab olish, keyin uni CorelDRAW andozalariga yuklanishi ma'qul bo'ladi. Har xil rangli teksturalar uchun quymaga kontur berilganligi ma'quldir.



60-rasm. Gradiyent va tekstura bilan quyish

2.16 Hajmli harflar

Deyarli barcha vektorli dasturlarda hajm ko‘rinishini beruvchi asbob mavjud. Bunday effektни matnga tadbiq etish uchun, avval matnni obyektga aylantirish, ya’ni «egri chiziqqa» o‘tkazish lozim (CorelDRAW – Ctrl + A). «Extrude» asbobi CorelDRAWda yana hajm rangini berilishiga va hatto unga gradiyentni qo‘llash imkonini beradi.



61-rasm. Hajmli harflar va belgilar

2.17 Matnni yo‘lga solish


Agar matnni berilgan kontur bo‘ylab joylashtirish, masalan, uni aylana bo‘ylab qo‘yib yuborish talab etilsa, CorelDRAW buni juda yaxshi uddalaydi, faqat matn mavzulidan (ramkaga) Artistic (Ctrl+F8)ga o‘tkazilishi lozim. Bunday effekt ko‘pincha bukletlarda, bolalar gazetalarda, reklama modullarini yaratishda qo‘llaniladi. Shuningdek, qiyshiliklar talab etilishida «Искажение» asbobidan foyudalanilishi va uni istalgancha egilishi mumkin.



62-rasm. Matnda kursiv yozuvlar

2.18 Soya

Ko‘pincha uchraydigan effekt bo‘lib soya hisoblanadi, biroq vektorli dasturlar pand berishi mumkin va soya effekti bosish jarayonida «surkalish» nuqsoniga aylanadi. Bunday nuqson sodir bo‘lmasligi uchun, shunday effektни rastrlı redaktorda yaratish lozim (masalan, Adobe Photoshop) yoki «soya» asbobidan emas, balki tagsolinmadan foydalanish lozim, ya’ni matnni ko‘chirish, uni bir ozgina surish va pastki obyektga boshqa rangni, masalan, kulrang yoki qora rangni qo‘llash lozim bo‘ladi. Bunday oddiy effekt sizga bosib chiqarishda hech qachon pand bermaydi va bosishdan keyin juda ajoyib ko‘rinishga ega bo‘ladi.



63-rasm. Vektorli dasturlarda soya

2.19 Matnga tadbıq etiluvchi vektorli effektlar

Vektorli effektlar yetishmaydigan vaqtda va qandaydir o‘ziga xos biror narsa yaratish ishtiyoqi bo‘lsa, rastr grafikasi imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Adobe Photoshop dasturida hajm, kontur, soya, naqshlar quyish va gradiyent qo‘llaniluvchi tayyor stillar zaxirasi mavjud. Ko‘p sonli filtrlardan va teksturalardan, shuningdek, shaffoflik, shaffofliklarni qoplash kabi qatlamli effektlardan foydalanilishi mumkin. Shunday matn effektlariga bir necha misollar keltiramiz.

2.19.1 Hajmiy matn

Adobe Photoshop dasturining oxirgi versiyalari shakllangan effektlarning stillar zaxirasi bilan ta’minlangan bo‘lib, ular alohida qavatga, shu jumladan, teksturaga ham qo‘llanadi. Shunday bo‘lgach bunga o‘xshash effektlar – bir daqiqalik ishdir. «Sloya» - ya’ni «qavatlar» palitrasida qavat «stillar» degan piktogramma mavjud va mana shunda dizayner uchun ulkan ijodiy qurol saqlanadi.



64-rasm. Matnda bo'rtirilgan effektlar

2.20 Matnning rasrtrli effektlari

Hajmli matn yaratish uchun, bosib naqsh tushirish («Beveland Emboss» asbobi), gradiyent bilan yopish, soyalar va yoritish kabi effektlar qo'llanilgan.

Yana bir ko'pincha foydalaniluvchi effekt – bu matnni aks ettirishdir. Bu Adobe Photoshop dasturida qavatni ko'chirish orqali uning ko'zguga oid aks etishi va qavatning qisman shaffofligi yaratiladi, ba'zan qavatning bir qismini yo'qotish uchun «ластик» asbobidan foydalaniladi. Ushbu juda ommalashgan effekt ko'rgazmaviy mahsulot dizaynida qo'llaniladi, ko'pincha buklet yoki flayer bezatiladi.

2.21 Metallsimon matn


Mutaxassisda metallsimon, hajmli va h.k. matnlar yaratishning doimo bir necha variantlari mavjud bo'ladi. Eng oddiysi – tayyor stillar va ularni biroz tahrir qilinishidir. Metallsimon matnni yaratish uchun – ezib naqsh tushirish, gradiyent qoplash kabi effektlar qo'llaniladi.



65-rasm. Metallsimon matnni yaratish

2.22 Matn ostidan yorug'lik berish

Bunday effektini yaratishda matnli ikki qavatdan foydalanildi: - ustki – to‘q (qoramtir), ostkisi oq rang bilan. Ostki qavatga «Blur Radial» («yuvilgan radiallar») filtri qo‘llanildi.



66-rasm. Matnda «Blur Radial»

Shaffof matnni yaratish qiyin emas, rang quyishni nolgacha yo‘qotish (effektlarda yoki qavat stillarida) hamda ezib naqsh tushirishni qo‘llashning o‘zi kifoya. Bunday matndan ko‘pincha agar fotosurat muallifi uni ko‘chirishni istamasa, suv belgilari sifatidan foydalaniladi. Ko‘pincha ushbu effekt veb-dizayner uchun kerak bo‘ladi, biroq ba‘zan matbaada ham qo‘llaniladi.

Bunday effektini yaratish uchun biroz ter to‘kishga to‘g‘ri keladi. Bunda ezib naqsh tushirish, gradiyent bilan yopish, «Noise» («Shovqin») va mo‘yqalamlar (qattiq va yumshoq mo‘yqalamlar) qo‘llaniladi, shuningdek, «Select» («Ajrilib ko‘rinish») komandasidan foydalaniladi.

Yonuvchi harflar effektini yaratish uchun, matn qavatini ko‘chirishdan foydalaniladi va buning uchun filtrlar uyg‘unligi qo‘llaniladi. Bunday effektlar rangdor plakatlarda dizaynini yaratilishi uchun foydalidir.

2.23 “Yonuvchi harflar” effekti

Matn effektlari yaratishning Adobe Photoshop darslarining batafsil bayonini Internet tarmog‘ida va kitoblardan topish mumkin. Sanab o‘tilganlaridan tashqari - shokoladni eslatuvchi, shishasimon, brilliantsimon, tillarang, plastilinli, yog‘och, EE-effekt, jiloli yaltiroq jurnallar uchun matn va hokazo effektlar mavjud. Adobe Photoshop dasturini o‘rgangan holda, o‘zingiz filtrlar uyg‘unligini ajrata olasiz.

Sizning matningiz stil va sayqalga ega bo'lgach, boshqa obyektlarning shakl va rangi bilan shug'ullanish mumkin, ular esa maketda - logotipdan dekorativ ramkalanilishigacha, ko'plab mavjuddir. Ularni reklama mahsulotining samarali qabul qilinishini kuchaytirish uchun qanday uyg'unlashtirish va qo'llash kerakligi to'g'risida biz keyingi mavzuda suhbatlashamiz.

2.24 Sifat ko'rsatkichlari

Ma'lumki, dasturiy ta'minot sifati ko'rsatkichi (keyingi o'rinlarda dasturiy ta'minot) dasturiy ta'minot vositalarining (keyingi o'rinlarda dasturiy ta'minot deb ataladi) ma'lum sharoitlarda belgilangan yoki kutilgan talab va ehtiyojlarni qondirish qobiliyatidir. Vositalarning jadal rivojlanishi talab qiladigan yangi muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish aniq maqsad va vazifalar uchun amalga oshiriladi.

Natijada, dasturiy ta'minot har doim ham kerakli talablarga javob bermaydi. Iste'molchiga yetib boruvchi har qanday mahsulot sifati korxonalar rivojlanishining asosiy komponenti hisoblanadi. Shuning uchun dasturiy ta'minot sifatiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarni aniqlash muhim:

- dasturiy ta'minot sifatiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarni aniqlash;
- dasturiy ta'minotdan foydalaniladigan hudud;
- PS maqsadi;
- hal qilinadigan vazifalar va ularning turi;
- dasturiy ta'minotning sifat ko'rsatkichlari (tarkibi va qiymatlari);
- PSning sifati yetarli emasligi sababli ruxsat etilgan zarar miqdori;
- dasturiy ta'minot hajmi;
- dasturiy ta'minotning murakkabligi;
- hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni vaqtning haqiqiy miqdori bilan bog'lanishi (muammoni hal qilish natijalarini kutishning ruxsat etilgan davomiyligi);
- ishlash muddati;
- dasturiy ta'minotning yangi versiyalarini yaratish ehtimoli;
- dasturiy ta'minotni qo'llash va takrorlash.

Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish yoki yangilash kabi muammolarni hal qilishda, muammo ishlatiladigan dasturiy ta'minot sifatini baholashda paydo bo'ladi. Ma'lumki, dasturiy ta'minot sifatini baholashda ko'plab modellar va standartlar qo'llaniladi. Eng zamonaviy va mashhur standart - ISO/IEC 25000 - bu xususiyatlar to'plami ko'rinishidagi sifat modeli (ya'ni, dasturiy ta'minot sifatini baholashingiz mumkin bo'lgan atributlar toifalari) va ular orasidagi munosabatlar. Ushbu xususiyatlar to'plami asos bo'lib xizmat qiladi hamda sifat talablarini tasniflash va dasturiy ta'minot sifatini baholash. Shu bilan birga, "omillar - mezon – ko'rsatkichlar" tipidagi modellar eng ko'p qo'llaniladi.

2.25 Maketlarga qo'yiladigan texnik talablar

Maketni nashrga jo'natishdan avval, bosmaxona bilan bog'lanib, muayyan bosmaxonada maketlarga qo'yiluvchi talablarni bilib olish zarur. Bunday texnik talablarga misollar 5-ildoda keltirilgan. Ular birmuncha farq qilishi mumkin, chunki bosmaxonalarda turli bosma uskunalar o'rnatilgan va ba'zi texnologik jarayonlar turlicha usullarda borishi mumkin. Masalan, sahifalashtirish qir qilishni nazarda tutib qilingan bo'lsa, qir qilish chizig'iga tushuvchi tasvirlar qir qilishini hisobga olgan holda 3-5 yoki 5-7 mm ortiq chekka maydonga ega bo'lishi lozim.

Birinchi mavzuda siz CorelDRAW vektorli grafik redaktorida sahifalashtirishning o'ziga xos tomonlari bilan tanishdingiz. Adobe InDesign sahifalashtirish dasturida taqiqlangan effektlarni va tasvirlar bilan ishlash amallarini bilib olasiz.

Maketni vektorli dasturlarda (CorelDRAW, Adobe Illustrator va h.k.) va Adobe InDesign dasturida sahifalashtirishda rioya etilishi zarur bo'lgan bir qator qoidalar mavjud. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik dizaynning ba'zi elementlarini yo'qolishiga, rangni buzilishiga, shriftlarni almashtirish va tasvirlarning sifatini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bir necha dasturlarda sahifalashtirish qoidalarini misollarda ko'rib chiqamiz.

CorelDRAW dasturida sahifalashtirish qoidalari:

Matnni hammasi egri chiziqqa o'tkazilishi lozim. Buning uchun «Tahrir etish» («Edit») menyusidan «Select All» («hammasini ajratib ko'rsatish») - «Matn»

komandasini tanlash kerak. Barcha matn (mavzuli va shaklli) ajralib ko‘ringach, uni «egrilar»ga o‘tkazish lozim, buning uchun – Ctrl+Q issiq tugmalarni bosish kerak. Agar matn egrilarga o‘tmagan bo‘lsa, boshqa kompyuterda fayl ochilgach, original shriftlar Arial va Times – standart shriftlarga almashadi. Agar shrift egrilarga o‘tkazilgan bo‘lsa, u kompyuterda o‘rnatilgan shriftlarga boshqa bog‘liq bo‘lmaydi va dasturning obyekti bo‘lib qoladi. Biroq matn «egrilar»da tahrir qilinmasligini esda tutish lozim. Shuning uchun bunday jarayonni hammasi tekshirilgach va tasdiqlangach, maketning ustida, ishning so‘ngida amalga oshiriladi. Agar maketda matnlar ko‘p bo‘lsa, masalan, ko‘p sahifali ma’lumotnoma yoki jurnalda, bir faylni matnni «egrilar»ga o‘tkazmagan holda saqlash, ikkinchisini - «egrilar»ga o‘tkazib saqlanadi.

Bundan – alohida papkaga maketda foydalaniluvchi barcha shriftlar ko‘chiriladi. Bu ayniqsa, katta miqdordagi matnlarga ega maketlarga taalluqli bo‘ladi, yoki asl nusxali, kam tarqalgan shriftlardan foydalaniladi. Shriftlar bosmaxonada maketda nimanidir to‘g‘rilash kerak bo‘lib qolish holatlarida zarur bo‘ladi.




67-rasm. Vektorli maket

Maketda ko‘rinmas obyektlar va matnli satrlar markerlari mavjud bo‘lmasligi lozim. Agar sizga qaysidir obyekt yo‘qolgan yoki konturi yo‘q va shuning uchun ko‘rinmayotgan bo‘lib tuyulsa, «Вид» («View») menyusini ochish va «Каркас» («Qobirg‘a») komandasini qo‘llashingiz kerak bo‘ladi. Ushbu komandani qo‘llagach, siz barcha obyektlar konturlarini ko‘rasiz. Shuningdek, «Obyektlar menejeri» dokerini ochish mumkin, unda barcha qatlamlarda joylashgan barcha obyektlar ko‘rinadi.

Chiziqlar 0,2 pt.dan ingichka bo'lmashligi lozim. Hairline qalinligidagi chiziqlardan foydalanmaslik kerak. Chiqarish qurilmasi bunday chiziqni bo'lishi mumkin bo'lgan eng ingichka (ya'ni 1 piksel qalinlikda) chiziq ko'rinishida chiqarib berishi mumkin.

Agar siz CorelDRAW konturni qo'llayotgan bo'lsangiz, «Kontur» asbobi menyu oynasida («Outline Tool» - asboblarga oid panel chapida) «Заливка вокруг» («Behind fill») belgi qo'yish va burchaklarni dumaloqlashtirish buyruqlarini berish lozim. Shuningdek, «Interaktiv kontur» asbobidan foydalanilishi mumkin («Interactive Contour Tool»). So'ng sichqonchani o'ng tugmasi bosilib, kontur bo'yicha harakatlantiriladi va ikkita obyekt hosil bo'lishi uchun «Разбить контур» komandasi qo'llanadi. 44-rasmda bir obyektning o'zini konturlari o'rtasida jiddiy farq ko'rinib turibdi. Agar iloji bo'lsa, konturdan umuman voz kechgan ma'quldir.



68-rasm. Vektorli konturlar

Vektorli obyektlarda ortiqcha uzellar mavjud bo'lmashligi lozim. Agar siz egri chiziq yaratib, unda ko'plab uzellar (tugunchalar) namoyon qilgan bo'lsangiz, ularni ajratib yo'qoting – bunday chiziq yanada ravon bo'lib, bosish chog'ida sizga pand bermaydi. 700-800 dan ortiq sondagi uzellarga ega egrilar bo'lmashligi ustidan kuzating.

CorelDRAW dasturida nashrga tayyorlashda bir qator effektlardan foydalanish taqiqlanadi. Ularni batafsilroq ko'rib chiqamiz: Soya («Interaktiv soya» «Interactive Drop Shadow Tool» asbobi). «Soya»ning o'rniga pastki qatlamdagi xuddi shunday, faqat kulrang obyektidan foydalanilgani yaxshi (76-rasm). Shuningdek, soyali obyektни fon bilan birga ajratish va rastrlash kerak («Растр» «Bitmaps» - «Convert to

Bitmap» menyusi) va rastrli tasvirga 300 dpi, CMYK modelini berish lozim. Ushbu holatda Adobe Photoshop dasturida barcha effektlari bilan fon yaratish ancha ma'qul hisoblanadi, bunda qatlamlar bir qatlam holida taxlanadi (yopishadi) va 300 dpi model (rejim) CMYK tavsiflar bilan TIFF o'lchamida saqlanadi. Bunday fon CoreDRAW ga importlanadi, yuqorida esa matn joylashadi.



69-rasm. Soya effekti

Yuqoridagi obyekt vektorli soyaga ega bo'lib, fon bilan rastrlangan. Pastdagi obyekt taglikga ega – pastki qatlamda joylashgan, kulrang, kontursiz ikkinchi vektorli obyekt. Birinchi effekt loysimon kabi ko'rinadi, ikkinchisi esa aniq chekkalarga ega.

Gradiyent ayniqsa, fon yoki katta obyektlarga qo'llanishlidir. CorelDRAWda radial va chiziqli gradiyentdan tashqari yana konussimon va kvadrat gradiyentlar mavjud va ular Adobe Systems kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan PostScript tili vositasida yozilishi mumkin emas.

Aynan ushbu tilning yordamida tasvirlar va matnlarni bosishga tayyorlash ishlari olib boriladi, u allaqachon matbaa standarti bo'lib qolgan. Fonni gradiyent bilan rastrlashga yoki uni rasrtrli redaktorda yaratishga to'g'ri keladi.

Shaffofliklar, «Linza» effektlari. Rasrtrli tasvirga yoki vektorli obyektga qo'llanuvchi shaffoflikka yo'l qo'yilmaydi, shuningdek, «Linza» effektlari ham qo'llanilmaydi. Adobe Photoshopda fon yaratilishidagi kabi o'zidan avval keluvchi effektlar bilan bir xilda bo'ladi.


CorelDRAW kutubxonasida mavjud bo'lgan, shablonlar orqali rasrtrli qo'yish usulini qo'llash taqiqlanadi, bunday quyish usuli juda jozibali bo'lsa ham. Kutubxonaga barcha talablarga rioya etgan holda asl o'lchamida yaratilgan xususiy fonni qo'shib, maketida qo'llanishi mumkin.

CorelDRAWda CDR fayliga importlangan tasvirlarga bo‘lgan rasrtrli effektlarni (bu effektlar «Bitmaps» - «3D-effektlar», «Aniqlik» va hokazo menyularda joylashgan) qo‘llash taqiqlanadi. Ushbu effektlar bosish chog‘ida o‘zini yomon tutadi va butun bir adadni buzib qo‘yishi mumkin.

RGB (rejim) modelidan qo‘yish uchun yoki obyekt konturi uchun, shuningdek, rasrtrli tasvir uchun foydalanish tavsiya etiladi. Barcha obyektlar CMYK modelida bo‘lishi lozim (bu haqida keyinroq batafsil to‘xtalamiz).

Fotosuratlar bilan bo‘lgan fon CorelDRAWda albatta, rastrlanadi («Bitmaps» - «Convertto Bitmap»). Fonga qo‘yilgan, ayniqsa, shaffoflik effektlarini qo‘llagan holda, qo‘yilgan rastrlanmagan fotosuratlarni qoldirish mumkin emas.

Rastrli tasvir vektorli kontur ichiga (konteynerga) joylashishida, «Power Clip» effekti qo‘llanilishidan keyin, obyekt ham rastrlanishi lozim (68-rasm). Bundan tashqari fayl har qanday kompyuterda ochilishi mumkin bo‘lgan, CorelDRAW faylini 9 versiyada saqlab qo‘yish lozim (ancha ilgari mavjud bo‘lgan versiyalardan odatda hozir foydalanilmaydi).



70-rasm. Tasvirlarda vektorli kontur

Faylni rangli modellarga mos emasligini tekshirish, «Obyektlar menejeri» dokerida o‘tkazilishi lozim, bunda quymaga va obyekt konturiga qanday rang berilganligi ro‘y-rost ko‘rinadi. Matn rangi va qoraga yaqinlashuvchi mayda obyektlar ranglari faqat Blackda bo‘lishi lozim.

2.26 Vektorli dasturlarni va sahifalarni xususiyatlarni

Barcha tasvirlar va matn «freymlar»ga ya‘ni ramkalar solinib sahifalashtiriladi.

Ramkalarda sahifalangan tasvirlar 100% masshtabga ega bo'lishi lozim, 50% + yoki – bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Polosaga sahifalashtirilgan yarimtonli fayllar (TIFF, Photoshop EPS, DcS) mutlaqo ortiqcha kanallar va yo'llarga ega bo'lmasligi lozim.

Albatta, PDF sahifalashtirish fayli bilan birga qo'yiladi.

Agar linklangan tasvirlardan foydalanilsa (maketda suratga dalolat qilinishi mumkin), ular albatta, majburiy tartibda bir papkada yig'ilib, nashrga tayyorlanishi zarur.

Maketda foydalanilgan barcha shriftlar alohida papkada yig'iladi. EPS faylida mavjud shriftlar «egrilar»ga konvertatsiyalangan bo'lishi kerak.


Bosmaxonalar ko'pincha qo'yiladigan talablarida qirqish uchun qog'oz varag'ini har qaysi tomonidan bir necha millimetrdan joy qoldirilishini tavsiya etadilar.

Masalan, dizaynning «ma'noli» elementlari qirqilish chizig'i, buklanish joyi va perforatsiyalanish chizig'iga nisbatan 5 mm dan yaqin bo'lmasligi lozim. Parron uchun axborot kattaligi kamida 5 mm ni tashkil etishi kerak. Masalan, (vizitka) tashrif qog'ozi maketini ishlab chiqilishida siz 90x50 mm to'g'ri to'rtburchak shaklini yaratasiz, obyektlarni guruhlaysiz va agar qirqishga har qaysi tomonidan 2 mm dan qoldirish kerak bo'lsa, maketni (guruhlangan obyektlar) 94x54 mm o'lchamli katta to'g'ri to'rtburchakka joylashtirasiz. Obyektlar guruhlarini, ularni birgalikda ajratib ko'rsatib, so'ng «E» va «C» (ing.) tugmalarni (klavishlarni) bosishingiz mumkin. Shunday qilib, sizning maketingiz 94x54 o'lchamli maydon hoshiyasidan 2 mm berida bo'lib chiqadi. Dizaynning matn, logotip va hokazo kabi muhim elementlarini maketning chekkasiga juda ham yaqin joylashtirmaslik tavsiya etiladi.

Qirqish yoki parronni nazarda tutuvchi sahifalashtirish nima? Sahifalashtirishning bunday variantida obyektни joylashtirish, uning chekkalari (hammasi yoki ba'zilar) polosa tashqarisida bo'lib qoladi. Ushbu holatda broshyuralangan nashrni qirqilishidan keyin siz chekka chegaralari sahifaning qirqilish chizig'i bilan mos keluvchi tasvirni hosil qilasiz.

Agar siz maketda qirqilishni nazarda tutuvchi sahifalashtirishni qo'llayotgan bo'lsangiz, u holda albatta, bosmaxona talablarini ko'rib chiqish lozim (parron

miqdori necha millimetrni tashkil etishi) va hech qachon obyektlarni sahifaning chekka qirralari bilan tenglashtirib bo'lmaydi, balki ularga talab etiluvchi kattalikni bering, aks holda blokni qirqilishida pichoqlar qirqilish belgilaridan biroz chekinishi mumkin va tasvirga zarar yetadi. 69-rasmda yuqoridagi tasvirda (jurnal polosasida) parronga mo'ljallangan, ya'ni sahifaning qirqilish chizig'idan tashqariga chiqadi.



71-rasm. Qirqishga mo'ljallangan tasvir

Tasvirlarni (bosib chiqarishga) nashrga tayyorlash quyiroqda batafsil bayon etiladi.

Keyingi mavzularda esa biz muhim mavzular – matnni tayyorlash, shuningdek, rangli modellardan va rang palitralaridan foydalanish kabilarni ko'rib chiqamiz.

2.27 Matnni tayyorlash va muharrirlash

Ko'pincha MS Word o'lchamida sahifalashtiruvchiga kelib tushuvchi matnli material texnik xatolar bilan terilgan bo'ladi va ular sahifalashtirish yoki grafik (redaktor) muharrir dasturiga o'tkazishga to'sqinlik qiladi. Matnni tayyorlash uchun asosiy qoidalar mavjud bo'lib, ularga rioya qilinmasligi mumkin emas. Shuning uchun matnni Word dasturida bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar mavjudligicha tekshirish va ularni o'z vaqtida bartaraf etish lozim. Gap shundaki, Word matn redaktori matnga va hatto Rasrtrli tasvirga qo'llanuvchi effektlar va funksiyalar bazasiga ega. Ushbu effektlar ofis hujjatlarini shakllantirish uchun yaratilgan, biroq ular matnni boshqa ilovalarga va ayniqsa, CorelDRAW ga olib o'tkazish uchun aslo qo'llanilmaydi, shuning uchun ulardan voz kechish lozim. Barcha belgilarni ko'ra olishingiz uchun «Напечатные знаки» komandasini yoqing.

2.28 MS Word da terilgan matn uchun qoidalar

1. Matn bir bo'sh joy qoldirib terilishi lozim, ikki bo'sh joy qoldirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar ular mavjud bo'lsa, ular yo'qotilishi kerak.
2. Matnning satrlari o'rtasida ikki bo'sh satr qoldirilishiga yo'l qo'yilmaydi.
3. Jadvallardan yoki ko'pkolonali matndan foydalanish mumkin emas.
4. Hech qachon Wordda saqlangan rasrtrli tasvirlarni qabul qilmaslik kerak.
5. Ramziy belgilar kutubxonasidan olib qo'yilgan ramziy belgilar sahifalashtirishga to'g'ri kelmaydi. Bunday belgilar rastr ko'rinishida saqlanishi va sahifalashtirish amalga oshiriluvchi dasturga qo'yilishi lozim.
6. Abzatsli chekinishlar barcha matnda bir xilda bo'lishi lozim.
7. «Табуляция»dan foydalanishga ijozat berilmaydi.
8. CorelDRAW ga o'tkazishda tartib raqamlangan va yorliqlangan ro'yxatlardan voz kechishga to'g'ri keladi. Ular dasturda qo'lda amalga oshiriladi.
9. Qo'shtirnoqlar va qavslar bo'sh joy qoldirmagan holda so'zga teriladi.
10. Matnga ofis kutubxonasidan olingan sur'atlar, qo'lda chizilgan shakl va diagrammalar sahifalashtirishga qabul qilinmaydi.
11. Matnda Wordart, harfiy belgi, yozuvlar, soyalar, miltillab ko'rinuvchi elementlardan foydalanish va matnni rang bilan belgilash mumkin emas.

Matnni tekshiring, ortiqcha bo'sh joylar va ramziy belgilarni yo'qoting, uni kopiratsiyalang, sahifalashtirish dasturiga joylang (ramkaga) va tahrir qilishga kirishing.

Keyingi mavzuda matnga bo'lgani kabi, maketning qolgan boshqa elementlariga ham, sahifalashtirish jarayonida qo'llanuvchi rang va rangli modellar to'g'risida axborot berilgan.

2.29 Kompyuterda rang hosil qilish

Har qaysi monitor bir xil rangni o'zini turlicha ko'rsatadi. Ba'zan ushbu farqlanish ranglar standart gammasiga nisbatan sezilarsiz bo'ladi, lekin rang kuchli farq qilish holatlari ham bo'ladi. Maketni nashrga tayyorlashda ranglarni tayyor mahsulotda ko'rinishi kabi ko'rish juda muhimdir. Agar siz o'z monitoringizda qizil atirgulni ko'rgan bo'lsangiz, bosmaxonadan chiqqach esa u och-pushti rang bo'lib

chiqqan bo'lsa (afsuski shunday ham bo'ladi), bilingki, monitoringiz kalibrlanmagan ekan. Agar dizayner bir bosmaxonaning o'zi bilan ishlasa, monitor rangini muayyan chop etuvchi qurilmaga moslashtirishgani maqsadga muvofiq, agar bir nechta bosmaxona bilan ishlasa, yaxshisi standart gamma ostida kalibrlanishi ma'qul.

Kalibrlashning ko'plab usullari mavjud: ko'z bilan chamalash, maxsus uskuna yordamida (kalibratorlar) yoki maxsus dasturlardan foydalangan holda kalibrlash. Avvalo o'zingizni monitoringiz haqida ma'lumotlarni bilib olish, keyin esa kerakli ravishda tasvirni o'zgartiruvchi tayyor fayllarni izlab topishga urinib ko'rishingiz lozim (standart gammaga moslash) – ICC. Ular uskunani ishlab chiqaruvchilarning saytlarida yoki yetkazib beruvchilardan topish mumkin. Rangni va yorqinlikni sozlashdan so'ng, ushbu sozlamani profaylda (profile) saqlagan maqsadga muvofiqdir.

Profayl qurilma- berilgan ushbu qurilmaning rangni qayta ishlash xususiyatlarining batafsil bayoni bo'lib, ICM (ICC)ni kengaytirish bilan faylda qayd etiladi.

Ta'kidlab o'tish joizki, faqatgina ELT- monitorlar (elektron nurli trubkalar) kalibrlanadi, JK monitorlari (suyuq kristalli), zavodga oid sozlanganlikka ega va amalda kalibrlanishi lozim emas.

Shunday qilib, monitorlarni kalibrlashning mavjud usullarini ko'rib chiqamiz.

2.30 Dasturiy kalibrlash

Monitoring rang profilini sozlash bo'yicha dastur bo'lishi zarur, masalan, Adobe Photoshop dasturining har qaysi versiyasi bilan yetkazib beruvchi Adobe Gamma dasturi. Uni Windows uchun boshqaruv panelidan ishga solinishi mumkin.

Bunday kalibrlashning sifati u qadar yuqori emas, lekin dizayner uchun bu to'la qoniqarlidir. Bosmaxonada maketni tekshirish uchun bunday kalibrlash yetarli bo'lmasligi mumkin.


Adobe Gamma videotizimni kalibrlashni amalga oshadi (monitorga emas, aynan videotizimga, ya'ni "monitor- videokarta" juftligiga e'tibor berish zarur). Tizim har qaysi yuklanishda kalibrlash to'g'risida "esga solishi"uchun, sistemani ish boshlash onida maxsus dastur zarur bo'ladi (Adobe Gammada bu dastur Gamma Loader deb

yuritiladi, u Adobe dan mahsulotlarni oʻrnatilishida avtomat ishga solish menyusiga joylashtiriladi).


Dasturni ishlash vaqtida profilni qurilishi ketayotgan boʻladi (tavsiflanish). Adobe Gamma Primaries parametrlarini va oq nuqtaning rangga oid haroratini belgilaydi.

Primaries (birlamchi bazaviy ranglar-qizil, yashil va koʻk lyuminaforlarning rangli tovlanish rangi) hujjatlardan, yaxshisi monitor bilan birga yetkaziluvchi fabrika profilidan bilib olish mumkin. Oq nuqtaning rangga oid harorati grafik test yordamida koʻz bilan kuzatish orqali yoki oddiygina monitorni sozlash bilan mos keluvchisi bilan chiqarib olinadi.

Adobe Gammadan tashqari videokartani dasturiy taʼminlanishdan foydalangan holda kalibrlash usuli mavjud. Masalan, NVIDIA videokartasi monitoring rangi va yorqinligini xususiy dastur yordamida sozlashni taklif etadi. Uni “свойства экрана”-parametrlar- qoʻshimcha (70-rasm) oynasidan ishga solish mumkin.



72-rasm. Videokartani dasturiy taʼminlash yordamida monitorni kalibrlash



73-rasm. Monitorni kalibrlash uchun Nokia monitor test dasturi

Shuningdek, “Nokia Monitor Test” dasturidan ham foydalanish mumkin (73-rasm). Uning yordamida monitoring rangi, yorqinligi va kontrastligi, gamma va

geometriyasi sozlanadi. Shuningdek, yana Zoner Photo Studio, Optical va boshqa dasturlar mavjud. Agar siz o'z monitoringizni oddiy usulda kalibrlashga harakat qilgan bo'lsangiz, erta yoki kechmi sozlanganlik yo'qoladi va monitor yana kerak bo'lgan ranglardan boshqalarini ko'rsatadi. Nashrgacha tayyorgarlikda ishlovchi mutaxassisning odatdagi ish ertasi monitorni kalibrlash va uning rang profillarini nashrning ehtiyojlariga muvofiqligini tekshirishdan boshlanadi.

Yanada ishonchli sanalgan, Qurilmaga oid kalibrlashni ko'rib chiqamiz.

2.31 Qurilmaga oid kalibrlash

Qurilmaga oid kalibrlash ancha qimmat hisoblanadi, biroq yuqori sifatlidir. Qo'l ostida videokuchaytirgichlarni dasturlash ichki tizimiga ega monitor va kalibrator mavjud bo'lishi kerak.

Monitorda avvaldan xotirasiga kalibrator ko'rsatishlari taqqoslanuvchi, sozlangan (RGB qiymatlari: qizil, ko'k, yashil) zavodga oid profili yozilgan. Zaruriy hollarda ular bevosita monitoring boshqaruvchi sxemasida o'zgartirilishi mumkin. Dasturiy vositalardan farqli ravishda, bunday kalibrlashda natija monitor xotirasiga yoziladi. Shunga ko'ra ranglarning dinamik diapazoni qirqilmaydi, bu esa yanada yaxshi sifatda bo'lishini ta'minlaydi. Amalda barcha jarayonlarni monitor avtomatik rejimda o'tkazadi, bu ham musbat sanaladi. Qurilmaga oid kalibrlashning asosiy manfiy tomonlari – bunday monitor va kalibratorlar yuqori bahoda bo'lishidir. Eng qulaylari – 22 La Cieelectron 22 blue IV blueeye kalibratori bilan bo'lib, uning taxminiy bahosi 1400 dollar. Bahosi va sifati bo'yicha so'zsiz lider hisoblangan Barco monitorlarining bahosi 3000 dollar va undan yuqori.

Agar sizda shunday monitorni xarid qilib olishning moliyaviy imkoniyati mavjud bo'lsa, siz yuqori sifatli kalibrovkani olasiz hamda yuqori kasbiy mahoratda bajarilgan bo'ladi.

2.32 Dasturiy-qurilmaga oid kalibrlash

Ushbu holatda tasvirning rangga oid tavsiflari aniqligi kamroq bo'ladi, lekin baribir haqiqiysiga yaqin bo'ladi.

Agar sizning monitoringiz yaxshi, ammo ichki xotirasiz bo'lsa, kalibrlovchi qurilma xarid qilish (kolorimetr, spektrometr yoki spektrofometr) va uni

kompyuteringizga ulab, sozlashni amalga oshirishingiz mumkin. Yaxshi kalibrlovchi asbob, undan foydalanuvchiga yorqinlik (kontrastlik), ya'ni keskin farq qilish va RGB-qiymatlar imkoniyatini berish kerak, masalan, Spyder 2 Suite yoki Color Vizion (72-rasm). Bunday kalibrlash usulidan yaxshi sifatli raqamli fotosuratlar bosib chiqaruvchi ko'plab kompaniyalar foydalanadi.

Monitorda tasvirlar va maketni ko'zdan kechirishda, ekran RGB rang bo'shlig'ini aks ettirishini, bosishda esa CMYK-modeldan foydalanilishi yodingizda tuting.



74-rasm. Monitor kalibratori

Biroq kalibrlangan monitorda ranglar har holda unchalik buzilgan bo'lmaydi va hech qachon kalibrlanmagan monitordagicha qaraganda ko'proq aniq tasvirni beradi. Va siz Adobe Photoshop dasturidagi CMYK rejimida ko'rib chiqishni tanlashingiz mumkin (“Источники” – “Rangnamuna variantlari” – “CMYK”).

Keyingi bobda siz Adobe Photoshopda turli ishlov berish amallari bilan tanishasiz va agar shu vaqtga qadar siz eng ishonchli rang qaytarilishi uchun yuqorida bayon etilgan usullarning istalgani bilan o'z monitoringizni kalibrlagan bo'lsangiz – bu yaxshi tanlovdir.

Nazorat savollari

1. Matbaada maketlash bosqichlari qanday?
2. Dizaynerlik ishlanmalarning ma'lumot bazasi qanday yaratiladi?
3. Maket ustida muvaffaqiyatli ishlashning qanday qoidalarini bilasiz?
4. Dasturlarni qaysi biri shriflar uchun malakali muharrir hisoblanadi?
5. Sanoq sonlarni yozish qoidalarini bilasizmi?
6. Shriflar oilasi deganda nimani tushunasiz?

III-BOB. VEKTORLI GRAFIK MUHARRIRLARI

3.1. CorelDraw va Abode Illustator vektorli grafik muharrirlari

CorelDRAW va Adobe Illustrator vektorli grafik muharrirlari, Adobe InDesign sahifalash dasturi, Adobe Acrobat Distiller PDF-fayllarini yaratish uchun dastur, chiziqlar tushirish uchun Adobe Photoshop dasturlari matbaa dizaynining bugungi kundagi asosiy ish qurolidir.



75-rasm. CorelDRAW x 4 dasturining interfeysi

CorelDRAW – vektorli grafikaning shubhasiz lideridir. Birinchi navbatda o‘rganishni osonligi, tushunarli, oddiy interfeys va albatta, «egri» chiziqlar bilan ishlashida eng qulay bo‘lganligi uchun oldingi safda turadi.

Hozirda CorelDRAW Graphics Suite yaratuvchilar dasturi paketini turli xildagi grafiklar bilan ishlash uchun universal sifatida pozitsiyalanadi. Darhaqiqat, CorelDRAW logotip yaratish, firmaning ish shakli va veb-grafikadan tortib to ko‘p sahifali bukletlar va tashqi reklama dizaynigacha bo‘lgan turli loyihalar bilan a’lo darajada ishlaydi. CorelDRAW Graphics Suiteda “rastrlash” grafikani vektorliga o‘tkazishga imkon beruvchi Corel Power TRACE ilovasi mavjud.



76-rasm. CorelDRAW Graphics Suite interfeysi

CorelDRAW Graphics Suite – dizaynerlik maketlari, matbaa mahsulotlarni sahifalash -“rastrlash” tasvirlarni trassalashtirish va faylni nashrga to‘g‘ri tayyorlash,

shu jumladan, ranglarni yuqori sifatli tarzda ko'rsatish kabi murakkab loyihalarni yaratish layoqatiga egadir. CorelDRAW yuqori malakali g'oyalarni ko'p yillik rivojlanish bosqichlaridan iborat bo'lib, hozirgi kunda undan foydalanuvchilar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Biroq mutlaq ideal dastur bo'lmaydi, yo'qsa u yagona bo'lgan bo'lib, yana boshqalarini yaratishning ma'nosi bo'lmagan bo'lar edi. Shuning uchun CorelDRAW dasturini kamchiliklari afzalliklari doirasida ko'rib chiqamiz.

Matbaa mahsulotlarini yaratishda CorelDRAWning asosiy raqobatchilari bo'lib Adobe Illustrator, Adobe FreeHand, nashrlarni sahifalashda – Adobe InDesign kabilar hisoblanadi.

3.2 CorelDRAWning funksional imkoniyatlari va kamchiliklari

1-jadval

Dasturning afzalliklari	Dasturning kamchiliklari
O'zlashtirishning osonligi, ichki sezgiga oid tushunilishi	Ayniqsa, katta o'lchamli fayllar bilan ishlashda nobarqaror ishlashi
«egri» chiziqlar bilan ishlashning qulayligi	Ko'p sahifali tarzda ishlanishi uchun chiziqlar shablonining mavjud emasligi (bir turli master-sahifa yaratish mumkin emasligi)
Ko'p sahifali fayl. Grafik va matnni uyg'unlashtirishning osonligi va soddaligi	Ranglarni ekranda o'zgartirib bo'lmaz darajada tasvirlanishi
Faylni nashrga tayyorlash imkoniyatlari (ranglarni ajratib ko'rsatish, PDF faylini yaratish)	Nashrga berilishi mumkin bo'lmagan bir qator effektlar (linzalar, soyalar, tiniqliklar va h.k)
Turli xil vektorli va "rastrlash" effektlar	Word bilan to'liq integratsiyaning mavjud emasligi, matn, jadvallar, ro'yxatlar va h.k. stillarini o'tkazib bo'lmazligi
Ranglar palitrasi va dakerlar mavjudligi	

“rastrlash” tasvirlarni vektorli Obyektlarga trassalash imkoniyatlari	
Tayyor geometrik shakllar, quymatlar shablonlari va gradientlarini katta zaxirasini mavjudligi	
Turli xil grafik o'lchamlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari	
Shtrix-kodlarni tartiblashtirilgan generatsiyasi	
Kalendarning tartiblashtirilgan to'ri	
O'xshash dasturlar ichida True Type rus shriftlarini eng yaxshi tarzda tutib turilishi	

Amaliyotning ko'rsatishicha, o'zining bir qator kamchiliklariga qaramay CorelDRAW dasturi juda qulay va ommalashgan bo'lib, dizayn yaratishda va logotiplarni sahifalashda hamda kichik bukletlar, kalendarlar, flayerlar va boshqa matbaa mahsulotlar yaratishda tengi yo'q dastur hisoblanadi.

Biroq ushbu dasturda “Sariq sahifalar” turdagi ma'lumotnoma kabi ko'p sahifali hujjatni sahifalashga bo'lgan urinishlar natija berilmaydi. Bunday nashrlar uchun eng yaxshisi – Adobe InDesign variant hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, haqiqiy malaka egasiga bir dasturdagina emas, balki bir yo'la bir necha dasturlarga ishlashga to'g'ri keladi. CorelDRAWga dizayn konsepsiyasini yaratish, so'ngra esa EPS- faylni yaratgan holda Adobe InDesignga eksport qilinishi mumkin. Biroq grafik dizayn negizidagi Adobe Illustrator dasturining ham o'z o'ri bor.

3.2.1. Vektorli grafiklar bilan ishlash

Adobe Illustrator-muharrir – matbaada va veb-dizaynda foydalanuvchi, tasvirlarni yaratish va tahrir qilish uchun mo'ljallangan vektorli va “rastrlash” grafik. Ya'ni Adobe Illustrator dasturi maketini rasmlar bilan tasdiqlash kabi, oxirgi

mahsulotni yaratuvchi dastur sifatida xizmat qilishi mumkin (asl maket, to‘q rangda ajratib ko‘rsatiluvchi chiziqlar va h.k.).

Ushbu dasturdan butun jahondagi millionlab dizaynerlar, shu jumladan, O‘zbekiston matbaa korxonalarida ham foydalanadi. Uning qo‘llanish sohasi faqat vektorli rasmlar va maketlarni nashrda tayyorlash bilangina chegaralanmaydi, yaqindan boshlab Adobe Illustrator multimedia sohasida ham ishlamoqda, veb-dizayn uchun qo‘llanila boshladi. Chunki zamonaviy ishlab chiqaruvchilar uchun qurib bo‘lmas narsalarni qurib, o‘z mahsulotini dizayner ishining har qanday yo‘nalishlari uchun yaroqli qilishga intilish xususiyati xosdir.



77-rasm. Adobe Illustrator dasturida maketga ishlov berish

Buning ustiga dastur o‘zini yaxshi tomondan ko‘rsatdi va mutaxassislar dizayner – matbaa xodimlariga u bilan yaqinroq tanishishni tavsiya etadilar.

Adobe Illustrator CS4 nashrga tayyorlash jarayonida tengi yo‘q dastur hisoblanadi: u EPS-hujjatlari bilan ham, PDF-fayllari bilan ham yaxshi ishlaydi, ranglarni takrorlanishining rivojlangan tizimiga ega, maket nashrda qanday chiqishini avvaldan ko‘rish imkoniyatini beradi. Siz unda buklet (matn, “rastr”li sur’atlar va vektorli elementlarni) yig‘ishingiz mumkin. Dasturning eng katta afzalligi – unda yaratilgan fayllarda, plyonkalar chiqarilishida uning raqobatchisi bo‘lmish – CorelDRAWdagiga nisbatan xatoliklar jiddiy darajada kam bo‘ladi. Adobe firmasi tomonidan yaratilgan dastur Adobe Photoshop bilan o‘xshash interfeysga ega, shuning uchun Photoshop bilan ishlaganlarga uni tushunib olishi oson bo‘ladi. Ijobiy tomoni shundaki, bunda mahsulot Adobe InDesign dasturi bilan to‘liq integratsiyalanadi.

Biroq bir qator kamchiliklari ham mavjud:

Birinchidan, dasturning barcha imkoniyatlari uzoq o'rganishni talab etadi. Adobe Illustrator shubhasiz, murakkab dastur, biroq uni o'rganish uchun ma'lum vaqt ketkazib, boshqa grafikli muharrirlarda faylni nashrga tayyorlashda yuzaga keluvchi ko'pgina muammolardan xalos bo'lish mumkin.

Ikkinchidan, yuqori resurs talabligidadir, dastur hatto eng quvvatli kompyuterlarda ham sekin ishlaydi.

Uchinchidan, Adobe Illustrator bir sahifadan ko'proq sahifani ko'rish uchun ko'psahifali hujjatni quvvatlash layoqatiga ega emas, bunda qo'shimcha modul o'rnatish talab etiladi. Bu esa maket bilan ishlashda, hatto bu maket buklet bo'lishida ham qulay ishlashga aniq to'sqinlik qiladi.

3.2.2 CS4 versiyani yangi qo'shimcha imkoniyatlari

Bir necha montaj sohalaridan foydalanish. Montaj sohalarini alohida saqlash, eksport qilinishi va chop etilishi yoki ularni PDF ko'psahifali fayli ko'rinishida aniqlash mumkin.



78-rasm. Adobe Illustrator dasturining interfeysi

Adobe Illustrator dasturining fayllari Adobe InDesignning sahifalash dasturi bilan integrallashgan, shuningdek, Adobe Illustrator va Adobe Photoshop dasturlari o'rtasidagi tarkibiy obyektlar bilan Clipboard – almashinish buferi orqali almashinilishi mumkin.

Symbols (ramzlar) yangi palitrasi grafik elementlardan ko'p marta foydalanish va shu bilan birga fayl hajmini qisqartirish (Flash da allaqachondan foydalaniluvchi texnologiya) uchun mo'ljallangan.

Veb-sahifalar uchun, qisman Adobe Flash (SWF o'lcham) va SVG uchun vektorli o'lchamlarni quvvatlanishi kengaytirildi.

Shu bilan bir qatorda to'g'ri chiziqlar, yo'ylar va to'rlar (katakalar, to'g'ri burchakli va qutbli) kabi foydali Obyektlarni yaratish uchun to'rtta yangi ish quroli paydo bo'ladi. Bir necha ish qurollari, shu jumladan, rastrlash grafikasini tahrir qilishning o'zgarmas belgisi bo'lgan Magicwand («Sehrli tayoqcha») ish quroli Adobe Photoshop dasturidan olib o'tkazildi. Illustratorida gradiyent bilan ishlash tezlashdi va soddalashdi.

3.2.3. Sahifalashda qo'llaniladigan dasturiy vositalar

Post Script – sahifalarni ta'riflash tili bo'lib, u (Post Script – bosma dastgohlarda va yuqori sifatli printerlar) maxsus bosmaxona uskunalarida eng yaxshi tarzda faylni nashrga tayyorlaydi. Ya'ni Post Script sahifada tasvir elementlarini mavjudligi va ularning joylashishi to'g'risidagi axborotni o'zida tutadi va sifatli tarzda nashr qilishga chiqarish yoki plyonkalar va shakl, qoliplarni chiqarish uchun mo'ljallangan.

Ushbu til matbaada standart bo'lib qolganiga qaramay uning muqobili – PDF o'lcham mavjud. Ma'lum vaqt davomida hatto PDF yaqin vaqt ichida Post Script ni siqib chiqaradi deb hisoblanar edi. Aslida esa bu sodir bo'lmaydi, chunki PDF PSdan shunisi bilan farq qiladiki, PDF dasturlashtirish tili bo'lmay, u faqat sahifalarni tavsiflash usulidir va uning ko'zlanish maqsadi – axborotni ixcham holda ko'rsatishdir.

Post Script 1980-yillar boshida Jon Uornok va Chak Geshe (Adobe Systems kompaniyasi) tomonidan ishlab chiqilgan. Post Script Level 1 – birinchi variant – 1984-yilda yaratilgan, biroq ushbu til Apple Laser Writer printeri uchun Post Script – kontroller yaratilgandagina keng yoyila boshladi va Aldus kompaniyasi Post Script dan foydalangan holda Page Maker dasturini ishga solib yubordi.

Fototo'plamli Qurilmaurani ishlab chiqaruvchilar (ushbu Qurilmaura matbaada plyonkalar ishlab chiqarish uchun foydalaniladi) oz Qurilmaurasida Post Script interpretatorlarini qo'llay boshladilar va tez orada Post Script tili bosmaxonalarda ta'riflash va nashr qilish standarti bo'lib qoldi.

1991-yilda Adobe Systems kompaniyasi quyidagi Post Script – Level 2 versiyasini chiqardi. Biroq unda bir qator kamchiliklar mavjud edi, shuning uchun 1998 yil Adobe Systems yangi Post Script – Level 3 standartini kiritdi. Biroq hozirgi vaqtda baribir Level 2 dan foydalanilmoqda, chunki dasturlarning bir qismi, hali Post Script Level 3 bilan qurollanmagan. Maketni tayyorlash va Post Script fayli yaratilishida albatta, bosmaxonadan maketni qaysi versiyada saqlash kerakligini bilib olish zarur.

3.3 Maketni PS-faylini yaratishga tayyorlash

Birinchidan hujjatni bosmaxona talablariga muvofiqligi to'g'risida to'liq tekshirish kerak (bo'lishi mumkin bo'lgan xatoliklar va ularni bartaraf etish 3-bobda batafsil bayon etilgan).

Ikkinchidan, maketni PDF, EPS yoki CDR o'lchamida saqlash kerak.

Uchinchidan, PS-fayl albatta rang ajratilgan (separation) holda bo'lishi lozim.

PS-faylning qaysi darajasi muayyan bosmaxonaga talab qilinishi va u qaysi FNA dan (fotonabor uskunasi) foydalanishini tekshirib olamiz. Turli FNA uchun turli xil qurilmalar afzal bo'lishi mumkin, bularni servis byurosidan aniqlab olish zarur.



79-rasm. Fotonabor uskunasi


Nashrning drayverini o'rnatamiz. Nashrning drayverini o'rnatishda servis byurosidan olingan, muvofiq keluvchi – PPD printer ta'rifining fayliga o'tish yo'lini ko'rsatamiz (masalan, PS-fayllarining generatsiyasi uchun, Adobe PS – drayverdan va PPD Agfa ApogeeX dan foydalaniladi).

Nashrni oddiy printerda bosib chiqaramiz, sahifalarning zaruriy ketma-ketligi tarzida rioya qilgan holda polosalarni qadab qo'yamiz.

3.4 Adobe InDesign dasturiy vositasi

Adobe In Design – har qanday bosma nashrlar yoki internet saytlar dizaynini loyihalash uchun yuqori malakaga oid mahsulot. Dastur bosma mahsulotlar chiqarish va sahifalash bilan shug'ullanuvchi ommaviy axborot vositalarida, dizaynerlik kompaniyalarida, reklama agentliklarida, nashriyotlar va boshqa tashkilotlarda ishlovchi dizaynerlar, rassomlar va nashriyot sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun yaratilgan.

Dastur PDF va XML – fayllarni o'z ichiga olgan holda turli-tuman o'lchamlardan iborat matnlar va rasmlar importini qo'llab-quvvatlaydi, qatlamlar, jadvallar va shablonlar bilan bog'liq ishlarni o'z ichiga oluvchi import qilib olingan materiallarni tahrir qilish uchun katta ish qurollar to'plamini taklif qiladi. Adobe InDesign Adobe oilasining boshqa dasturlari bilan uzviy integrallashgan. Ilova jadvallar va sur'atlardan iborat matnli fayllarni, shuningdek, Adobe Photoshop va Adobe Illustrator o'lchamlaridagi grafik fayllarni o'lchamlarini yo'qotmagan holda muammolarsiz importlaydi va eng muhimi, dastur yetarli darajadagi sinchkovlikdagi nashrgacha bo'lgan nazoratni bajarilishiga va qo'shimcha ravishdagi vaqt va material sarflanishisiz muammolarni eng avvalgi bosqichida namoyon etishga imkon beradi. Agar rangli jurnal, reklama va axborot beruvchi gazeta va hatto kitob to'g'risida gap ketadigan bo'lsa, bu holda dizayner-sahifalovchi hech bir shak-shubhasiz aynan shu dasturni tanlashi lozim.



80-rasm. Adobe InDesign dasturining interfeysi

InDesign funksional imkoniyatlari va kamchiliklari

2-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari
Matnni boshqarish effektidan va vositalaridan foydalanish qulayligi	Dizayn va sahifalash vektorli elementlarini yaratish bo'yicha bo'lgan ishning noqulayligi
Ko'p sahifali tarzda ishlash uchun chiziq shablonini yaratish va undan foydalanish imkoniyatlari	Rastrli grafiklarni sahifalash
Katta hajmli va ko'p sahifali hujjatlarni quvvatlash	Resurs sig'imining kattaligi
Adobe Photoshop va Adobe Illustrator bilan fayllarni integratsiyalanishi	CorelDRAW bilan taqqoslashda interfeysning noqulayligi (yanada tushunarli bo'lishi mumkinligini amalga oshirishda palitrlarning haddan ziyod ko'pligi).
Word dasturi bilan qulay integratsiyalanishi, stillar, jadvallar va ro'yxatlarni olib o'tkazish imkoniyatlari	
Skriptlar yordamida jarayonlarni avtomatlashtirilishi	
Faylni nashrga yuqori malakali tarzda tayyorlanishi	

Dasturning ijobiy tomoni bo'lib, bob, qismlar nomlari takrorlanuvchi ko'p sahifali jurnallar va kataloglarni sahifalashda mutaxassisga zarur bo'lgan bir turli master-sahifalarning mavjudligi hisoblanadi. Bunday shablonga tayyor sahifani nusxasini o'zi yetarli bo'lib, so'ng uni har qaysi qism uchun takrorlanadi.



81-*рasm. Adobe InDesign dasturida sahifalar o‘lchamini belgilash*

Shuningdek, InDesign bosmaxonalar tomonidan maketga qo‘yiluvchi va ayniqsa, nashrni bosib chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni va printer to‘g‘risidagi maxsus axborotni o‘z ichiga oluvchi PostScript faylini yaratish to‘g‘risida gap ketganda barcha talablarga javob beradi.

InDesign dasturi ayniqsa, davriy nashrlar –gazeta va jurnallar uchun qulay bo‘lgan sahifalash imkonini beradi.



82-*рasm. Adobe InDesign dasturida sahifalash jarayoni*

Bunday jarayonlarga tayyorlangan vektorli grafik muharrirlar bilan solishtirganda, InDesign dasturida yaratilgan PostScript fayli ancha kam xatoliklarga ega bo‘ladi. Biroq ko‘pincha PostScript-fayli va PDF-fayllarini yaratish uchun Adobe Acrobat dasturidan foydalaniladi, uning funksiyalar obzorini siz keyingi mavzudan topasiz.

3.4.1 Abode InDesigndagi asosiy komponentlari

Adobe Creative Cloud ilovalarida hujjatlarni yaratish va boshqarish uchun panellar, qatorlar va oynalar kabi turli elementlardan foydalanishingiz mumkin. Ushbu elementlarning joylashishi ish muhiti deb ataladi. Bu ish joylari ilovalar

oʻrtasida oson almashish uchun bir xil koʻrinishga ega. Uslub variantlarini tanlash yoki oʻzingizni yaratish orqali ularni ish oqimingizga moslashtirishingiz mumkin.

Bosh sahifa ekrani InDesign-ni ishga tushirganingizda yoki hech qanday hujjat ochiq boʻlmasa paydo boʻladi. Undan darsliklarga kirish, mavjud hujjatlarni yaratish yoki ochish uchun foydalaniladi.



83-rasm. Bosh sahifaning ekran koʻrinishi

InDesign'dagi sahifaning ekrani sizga moslashtirilgan dizayn muhitini yaratish imkonini beruvchi oynalar, panellar va qurilmalar uchun moslashtirilgan tartibni taqdim etadi.



84-rasm. Standart InDesign ish maydoni

A. Yorliqlari boʻlgan hujjat oynalari B. Ish maydonini almashtirgich C. Avtomatik toʻldirish takliflari bilan qidiruv paneli D. Panel sarlavhasi paneli E. Belgilar tugmasi F. Vertikal biriktirilgan palitralar guruhlar G. Holat paneli H. Qurilmalar paneli

Ilova ramkasi ish muhitining barcha elementlarini yagona oynaga birlashtiradi, bu ularning yaxlit bir butun sifatida ishlashiga imkon beradi. Ramka va uning

elementlarining o'lchamini o'zgartirish yoki ko'chirish moslashuv moslamalarini ishga tushiradi, bu esa bir-birining ustiga tushishini oldini oladi. Panellar ilovadan tashqarida almashtirilganda yoki bosilganda ko'rinadigan bo'lib qoladi. Bir nechta ilovalar bilan ishlashda ularni yonma-yon yoki bir nechta monitorlarga joylashtirishingiz mumkin. MacOS tizimida standart foydalanuvchi interfeysi Oyna > Ilova ramkasini tanlash orqali yoqilishi yoki o'chirilishi mumkin.

Oynaning yuqori qismidagi ilovalar panelida ish joyini almashtirgich, menyular (faqat Windows) va boshqa ilovalar boshqaruv elementlari mavjud. MacOS operatsion tizimida ilovalar paneli faqat ilova ramkasi o'chirilganida mavjud bo'ladi. Uni "Oyna" menyusida yoqish yoki o'chirish mumkin.

Qurilmalar panelida tasvirlar, grafikalar, sahifa elementlari va boshqalarni yaratish va tahrirlash uchun asboblari mavjud. Tegishli asboblari guruhlariga bo'lingan.


Boshqaruv paneli joriy tanlangan obyektning parametrlarini ko'rsatadi. Hujjat oynasi bajarilayotgan faylni ko'rsatadi. Hujjat oynalariga xatcho'plarni qo'yish mumkin va ba'zi hollarda ularni guruhlashingiz va mahkamlash mumkin. Boshqaruv panellari bajarilayotgan ishni kuzatish va o'zgartirishga yordam beradi.

Boshqaruv paneli (Oyna > Boshqaruv) tanlangan sahifa elementlari uchun variantlar, buyruqlar va tegishli panellarga oson kirish imkonini beradi. U dastlab tepaga o'rnatiladi, lekin pastki qismga o'rnatilishi, suzuvchi panelga aylantirilishi yoki yashirin bo'lishi mumkin. Boshqaruv paneli tanlangan obyektga qarab turli xil variantlarni ko'rsatadi.

Ramkalar: o'lchamini o'zgartirish, ko'chirish, qiyshayish, aylantirish yoki obyektga uslublarni qo'llash.

Matn: Belgi yoki mavzu variantlari. Ularni almashtirish uchun chapdagi piktogrammalarni tanlanadi.

Jadvallar: o'lchamlarni sozlanadi, katakchalarni birlashtirilib matnni tekislanadi va chiziqlar qo'shiladi.




85-*рasm. “Boshqaruv” paneli menyusi*

Boshqaruv panelidagi parametrlar o‘zgarganda, har bir variant haqida ko‘proq ma’lumot olish uchun qurilmalardan foydalanish mumkin. Boshqaruv paneli piktogrammalari bilan bog‘langan dialog oynalarini ochish uchun, boshqaruv paneli belgisini tanlashda Alt (Windows) yoki Option (macOS) tugmasini bosiladi.

3.5 Tayyor maketni tekshirish

Faylni yaratishdan avval nashr qilish sohasini bellgilab olish zarur. Buning uchun “Fayl” menyusida “hujjat parametrlari” komandasini tanlab, paydo bo‘lgan menyuda “Sahifa” tugmasini bosamiz (yoki “Montaj sohasi”, Adobe Illustrator versiyasiga bog‘liq ravishda). Paydo bo‘lgan oynada qog‘ozning o‘lchamini hujjat parametrlarida berilganiga nisbatan birozgina kattaroq qilib ko‘rsatamiz (84-*rasm*). Ikki marta “OK” tugmachasini bosib hujjatga qaytamiz. Asbobga “Sahifa” (bir menyuda “qo‘l” asbobi bilan birga) belgisini beramiz va hujjatni ramka bilan shunday belgilaymizki, bunda ramkaning ichiga hujjatning barcha elementlari sig‘adigan bo‘lsin.




86-*rasm. Adobe Illustrator dasturida “hujjat parametrlari” menyusi*

So‘ng “Fayl” – “chop etish” menyusida “PDD rang ajratish parametrlari” tugmasini bosamiz(bungacha hujjatni chop etishi kerak bo‘lgan ma’lum printerni tanlash lozim).

“PPD ochilsin” tugmasini bosamiz, ppd-faylga o‘tish yo‘lini ko‘rsatamiz (qoidaga ko‘ra, u Windows/System papkasida joylashadi) va “Ochilsin” tugmasini bosamiz. Menyuda moslashtiruvchi xoch belgilar va qirqilish belgilarini joylashtirilishini hisobga olgan holda hujjatning “Asosiy” o‘lchamlarini o‘rnatamiz, ya’ni hujjatdagi parametrlarida ko‘rsatilgan o‘lchamlardan taxminan 3 sm kattaroq qilib olish kerak. Qog‘ozning kerakli turini aniqlab olamiz.

“Chiqish (Вывод)” – “Rejim” menyusida “rang ajratish” qiymatini tanlaymiz. “Emulsiya” menyusida “Верх, прямое чтение”ni tanlang. “Разрешение принтера” – ya’ni “Printerning yechimi” menyusida chiziqlar va yechimlarni ko‘rsatamiz. Tavsiya etiluvchi qiymatlar: 200 Ipi/3386 dpi, 175 Ipi/3386 dpi, 150 Ipi/2540 dpi, 133 Ipi/2032 dpi. Chiziqlarning boshqa qiymatlari bo‘lish holatida qo‘shimcha ravishda nashr qilinishi ko‘zda tutilgan bosmaxona bilan maslahatlashib olgan yaxshi. “Изображение” ya’ni “Tasvir” menyusida “Pozitiv”ni tanlaymiz. Shundan so‘ng, bosilishi kerak bo‘lgan rangni belgilaymiz, “Метки по умолчанию”ga, “Наложение черного” ya’ni “Qorani qoplash”ga belgilar qo‘yamiz va CMYK ranglari bilan bosilishida “Все триадными” belgisini qo‘yamiz. “Сохранить” tugmasini bosamiz (85-rasm).



87-rasm. Adobe Illustrator dasturida “Chop etish” menyusi

Endi “Вывод” menyusiga qaytish mumkin. Paydo bo‘lgan menyuda printer to‘g‘ri tanlanganligiga ishonch hosil qiling. “Графика” menyusida “Post Script: Level 2” yoki boshqa darajani tanlang. “Сохранить” – “Saqlansin” tugmasini bosing.

3.6 Texnik va badiiy muharrirlash

Muharrir - nashrda (bosma yoki elektron) ishlovchi, nashrga tayyorlanayotgan matnlar va boshqa materiallarni grammatika qoidalariga muvofiqlashtirish, shuningdek, matn dizaynidagi kamchiliklarni tuzatish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis. Muharrirning ishi juda muhim, chunki u matnni chuqurroq qayta ishlashga va muharrirlar tomonidan amalga oshiriladigan muhim o‘zgarishlarga tayyorlaydi. Ikkinchisidan farqli o‘laroq, korrektor matnning stilistik xususiyatlariga yoki uning mazmuniga taalluqli emas, balki faqat grammatika va formatlash bilan shug‘ullanadi. Muharrir - nafaqat matn yozilayotgan tilni bilishi, balki tilning nozik tomonlari va nozik tomonlarini ham tushunishi, tilning murakkab qoidalarini erkin ayta olishi kerak.

Muharrirning majburiyatlari:

- xatolar uchun matnni dastlabki tekshirish. Bu imlo, leksik va tinish belgilarini tuzatish, shuningdek matn dizayni bilan ishlash (masalan, sanalar formatini, o‘lchov birliklarini, raqamlar va ro‘yxatlarni tuzatish, chekinishlarni to‘g‘rilash va boshqalar) o‘z ichiga oladi;

- matnni mavzularga to‘g‘ri taqsimlash;

- iqtiboslar, izohlar, bibliografiyalar, mundarijalarning to‘g‘ri formatlanganligini tekshirish;

- tuzatish belgilari deb ataladigan xatolar va xatolarni belgilash.

Muharrirga qo‘yiladigan talablar:

- tilshunoslikdan chuqur bilim, tekshirilayotgan matn qaysi tilda grammatikasiga ega;

- tipografik standartlarni bilish matnni tahrirlashda diqqatlilik, aniqlik, monoton ishlarni ehtiyotkorlik bilan bajarish qobiliyati;


- matnni tahrirlash texnikasini bilish;

- tuzatish belgilaridan foydalanish qobiliyati;

- grammatik ma'lumotnomalar va lug'atlardan, shuningdek, matnlarni xatolar uchun tekshirish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish qobiliyati;
- maxsus nashriyot dasturlarini bilish.

3.7 Belgi (metka) va krestlarni qo'yish

Izlarda bo'yoqlarni to'g'ri mos ravishda tushishi uchun ba'zan maketda yoki fotoshaklda moslashtiruvchi belgilar qo'yilishi talab etiladi. (registermarks), ba'zan ularni moslashtiruvchi xochlar deyiladi. Bunday belgilar nimani anglatadi? Lug'atda quyidagicha ta'riflanadi: belgilar – to'g'ri burchak ostida kesishuvchi ingichka kalta chiziqlar bo'lib, asl nusxa, fotoshakllarning va ular montajlarining hoshiyalariga tushiriladi. Moslashtiruvchi xochlar chop etilishida bo'yoqlarni iz ustiga mos tushishini nazorat qilish uchun hamda bosib chiqarishdan keyin aniqligini baholash uchun xizmat qiladi. Ular qirqilish chizig'ining tashqarisida joylashadi va nashrdan chiqqan mahsulotni ishlashda olib tashlanadi. Shuningdek qirqilish hoshiyasida sifatni tezkor nazorat qilish shkalasi mavjud bo'ladi (86-rasm).



88-rasm. Moslashtiruvchi belgilar va rang shkalasi

Tasvirlarni varaqning ikki tomonida aniq moslashmaslik holatida nima bo'ladi? Va moslashtiruvchi belgilar nima uchun zarur?

Nashrni bosib chiqaruvchi yuz tomonni orqa tomon bilan mos kelishini tekshirishni unutib xato qilgan vaziyatni tasavvur qilamiz. Bu tekshirish

moslashtiruvchi xochlar bo'yicha amalga oshiriladi. Agar masalan, rangli jurnalda mushtariy bir millimetrga bo'lgan siljishni sezmaydigan bo'lsada, cho'ntak kalendarida bunday siljiganlik agar kalendar to'g'ri qirqilish chizig'iga nisbatan boryo'g'i 0,1-0,2 mm qiyshayish bilan bosilgan bo'lsa ko'zga kuchli tashlanadi.

Qoidaga ko'ra, bu sahifalashtirishning xatosidir. Plyonkalarda sahifalashtiruvchi tomonidan qo'lda belgilangan qirqilish belgilari va sahifalashtirish dasturi avtomatik tarzda qo'yuvchi moslashtiruvchi xoch belgilari mavjud. Agar qirqiluvchi va moslashtiruvchi belgilar markazlashmagan, chop etuvchida ularning qaysilari bo'yicha yuza va orqa tomonni moslashtirish tanlovi bo'ladi. Odatda birinchi navbatda chop etuvchi markaziy moslashtiruvchi xoch belgilarga qaraydi, u orqa tomonni shular bo'yicha tog'rilashi ehtimolga juda yaqindir.

Belgilar bir-biri bilan simmetrik joylashtirilgan holda sahifalashtirish eng to'g'ri hisoblanadi, shunda bunday xatoliklar istisno bo'ladi.

3.7.1 Qirqilish belgilari


Nashrning qirqiluvchi o'lchamini belgilash uchun foydalaniluvchi belgilar (chiziqlar) bo'lib, ular nashrni oxirgi bor qirqilishida ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

Sahifalashtirishda yaratilgan belgilar tushirilish chog'ida polosani pozitsiyalanishini nazorat qilish uchun ularni qirqiluvchi o'lchamdan 5 mm masofaga surilishi muhimdir. Qirqiluvchi belgilar, ma'lum tartibda buklash belgilari odatda 4 mm uzunlikda bo'lishida 0.08-0,1 mm tashkil qiladi. Ular Adobe Illustrator dasturida "Fayl" – "chop etish" menyusiga vazifalashtiriladi.

3.7.2 Adobe Illustrator misolida qirqilish belgilari rangini berilishi

Adobe Illustrator dasturida belgilarga ikki usulda – Adobe Illustrator Startur CMYKai konfiguratsion faylda vazifalashtirilgan namunalarning standart palitrasidan (swatch) Registration olingan namunadan foydalangan holda yoki xususiy rangni yaratgan holda rang berilishi mumkin. Keyin bu qiymatlarni Skript mexanizmiga kirish va ularni avtomatik tarzda takrorlash mumkin.

Qirqilish belgilari uchun foydalaniluvchi rangni yaratish vektorli obyektlarni odatdagi yaratish muolajasidan birmuncha farq qiladi.



89-rasm. Adobe Illustratorda qirqilish belgilari

Farqi shundaki, bunda yangi Obyekt yaratish kerak bo‘ladi (Java Script new funksiyasi bilan, shuning uchun u Adobe Illustrator ming odatdagi obyekt bo‘lib qolmaydi) turi uning rangga oid modelini belgilaydi (CMYK Color). So‘ng ushbu obyektning xususiyati sifatida tashkil etuvchi ranglarni belgilash joiz:

```
reg Color = new CMYK Color;
```

```
reg Color. cyan = 100;
```

```
reg Color. magenta = 100;
```

```
reg Color. yellow = 100;
```

```
reg Color. black = 100.
```

Qirqilish belgilarini yaxshisi turli qatlamlar bo‘yicha tarqatilishi ma’quldir.

Shuningdek, Excoursest EPS (Excourse) kompaniyasining Excoursest EPS – maxsus dasturi mavjud. U EPS-fayllari uchun Step & Repeatni amalga oshiradi, qirqiluvchi belgilarning vazifalash va tanlashning qulay tizimiga egadir. Uni yaratuvchilar, belgilar turini vazifalash ushbu dasturda menyu elementini oddiy tanlash orqali juda qulay tarzda amalga oshiriladi.

Agar siz yangidan boshlovchi dizayner bo‘lsangiz, belgilarni va xoch belgilarni joylashtirishni nashrgacha tayyorgarlik muhandisiga ishonib topshirishingiz mumkin, chunki u ushbu ishda ma’lum ish tajribasiga ega.

3.8 Tayyor maketni tekshirishda qo‘yiladigan talablar

Matbaa mahsulotining adadining hammasi chiqindi tarzida jo‘natilishini ko‘rgandan ko‘ra, bosmadan avval uni yuz marta tekshirish yaxshiroqdir. Afsuski bu

ba’zida yangi ish boshlagan sahifalashtiruvchilar va dizaynerlar bilan sodir bo’ladi. Noxushliklarning oldi olinishi uchun, maketni bosmaxona talablariga muvofiqligi va mahsulotni buzilishiga sabab bo’luvchi elementar xatolarning mavjudligicha tekshirilishi zarur.

Agar maket CorelDRAW dasturida sahifalashtirilgan bo’lsa, tekshirish “Obyektlar menejeri” (“asboblari” – “Obyektlar menejeri” menyusida) dokerida amalga oshirilishi mumkin (88-rasm).



90-rasm. CorelDRAW dasturidagi obyektlar menejeri

Har qaysi obyekt albatta CMYK modelida bo’lishi lozim bo’lgan quymalar va konturlarga ega bo’lishi lozim hamda Obyektlar “Linza”, “Soya” va hokazo (bular haqida biz 1-bobda aytgan edik) kabi effektlarga ega bo’lmasligi lozim. Aynan “Obyektlar menejeri” har qaysi obyektning quyilishi va unga atalgan vektorli effektlar ko’rinadi. Maketni tekshirganingizdan so’ng yana bir bor tasvirlarni ko’rib chiqing, ularning o’lchamini va (TIFF, 300 dipp) yechimini tekshiring. Shuningdek, albatta, alohida papkalarda foydalanilgan shriftlar va tasvirlarni ilova qiling.

Fikrimizning davomi sifatida maketdan bartaraf qilinishi kerak bo’lgan yangidan ish boshlagan mutaxassislarning bir qator bir turli xatolarini ko’rib chiqamiz.

3.8.1 Yangidan ish boshlagan sahifalashtiruvchilarning xatolari


Yangitdan ish boshlovchi dizaynerlar va sahifalashtiruvchilarning bir turli xatolari nashrning sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin va ular, odatda, bosmaxona talablariga rioya qilinmasligi, sahifalashtirishning ba’zi o’ziga xos xususiyatlarini bilmaslik va maketni yaratilishiga diqqat va e’tibor bilan munosabatda bo’lmasligi bilan bog’liq.

3.8.2 Matn bilan ishlashdagi xatolar

1. Maketda foydalanilgan shriftlar asl maketga ilova qilinmaydi yoki matn “egrilar”ga o‘zgartirilmagan.

2. Osilgan satrlarning mavjudligi. Osiluvchi satr deb, sahifada bir o‘zi qolib ketuvchi, sarlavha satrining barchasi boshqa sahifaga o‘tgan, noto‘liq satrga aytiladi. Shuningdek, osilib qoluvchi satrlar deb, bosmaxona amaliyotida polosaning boshida joylashgan oxirgi satrlarga ham aytiladi. Sahifalashtirib bo‘lingan bunday satrlarning mavjudligi taqiqlanadi, chunki ular matnni qulay o‘qilishiga to‘sqinlik qiladi va nashr polosasini uning an‘anaviy to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

3. ”Suyuq”, ya’ni cho‘zilgan satrlarning mavjudligi. Bular olib o‘tkazishlarni yetarli emasligi oqibatida hosil bo‘ladi (yoki ularni mavjud bo‘lmasligi). Bunday satrlar matn blokining tashqi ko‘rinishini juda ham buzadi va sahifalashtiruvchining malakasizligidan darak beradi (89-rasm).



91-rasm. Buklet maketi

4. Matn “egrilar”ga o‘tkazilmaydigan holda sahifalashtirishda True Type shriftlaridan foydalanish. Yaxshisi Post Script (Type 1) shriftlaridan foydalanilgani ma’qul.

5. Sahifalashtirishda tizimli shriftlardan foydalanish (Times, Arial, Tahoma va hokazo).

3.9 Kichik o'lchamdagi nashrlar

Logotipdan keyin ikkinchi galda vizitka maketi yaratiladi. Bu firma stilining eng talab qilinuvchi elementi, buning ustiga logotip vizitkada oddiy oq fondagiga qaraganda ko'proq foydali bo'lib ko'rinadi.

Vizitka – (tashrif qog'ozi) bu yaxshi sifatli qattiq kartondan bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shakldagi bosma buyum, uning ustida bosmaxona usulida familiya, ism-sharifi, firmaning nomi va uning logotipi bosilgan bo'ladi (90-rasm).



92-rasm. Vizitkalardan namunalar

Vizitka faqat familiya va telefonlar yozilgan kartochkagina emas, balki firma stilining asosiy elementlaridan biri, kompaniyaning yuzi va tadbirkorlik muloqotining umumqabul qilingan stilidir. Vizitkalar mijozlarga tarqatiladi, stendlarga qildiriladi, tijorat takliflari bilan birga jo'natiladi, mahsulotning qadog'i ichiga solinadi. Shuning uchun har qaysi mijoz aynan uning vizit kartochkasi mijozda saqlanishini istaydi. Vizitkani tashlab yubormasliklari uchun, u esda saqlanib qoluvchi noodatiy dizaynga ega bo'ladi. Unga tashlangan lok, kongrev, termobo'rtiq, o'yiqlik va boshqa dekorativ effektlar qo'llanishi mumkin.

3.9.1 Vizitkalar turlari

Vizitkaning standart o'lchami – 90x50 mm, yoki yevrostandart – 85x55 mm. Ba'zida dizaynerlar vizitka yaratishda har qaysi tomonidan qirqib tekislash uchun 2 mm dan qoldiradilar. Buni qilish mumkinmi yoki yo'qligini vizitkani bosib chiqaruvchi bosmaxona ma'lum qiladi. O'zining kichik o'lchamida bo'lishiga qaramay, vizitka – biznes va reklama olamida katta strategik qurol hisoblanadi, aynan mana shu vizitkadan tanishuv boshlanadi va u bo'yicha potensial sherikni baholaydilar.

Vizitka yaxshi taassurot qoldirishi mumkin va aksincha, taajjubga olib kelishi ham mumkin. Uchrashuvdan keyin ham vizit kartochkasi o'z egasiga ishlashni davom ettiradi. Shuning uchun uning dizayni chiroyli, stilli, firma stiliga mos va esda saqlanib qoladigan bo'lishi lozim.

Vizitkani boshqalari ichidan ajratib, tanlab olish uchun, boshqa o'lchamlardan ham foydalanilishi mumkin, masalan, jahon amaliyotidan kvadrat shaklidagi vizitkalar ma'lum.

3.9.2 Vizitka dizayni

Vizitkadagi shrift oson o'qilishi lozim, kolligrafik yoki dekorativ shriftlar har doim ham o'qish uchun qulay bo'lavermaydi, shuning uchun ulardan voz kechish durust. Vizitka maketini butkul matn va tasvirlar bilan to'ldirib tashlash kerak emas. Bo'shliq va ochiqliklari ko'p bo'lgan vizitkalar qiziqarliroq ko'rinadi va oson qabul qilinadi.

Juda mayda shriftdan foydalanmaslik lozim, u yaxshi va aniq bosilmaydi.

Esda tuting, agar axborot sig'masa, ikki tomonlama vizitka tayyorlanishi mumkin.

Maket yaratishda albatta qog'oz turini hisobga olish shart: oqartirilgan silliq karton, laminatsiyalangan, shakl tushirilgan, teksturali qog'oz va hokazo. Bularning barchasi turli xususiyatga ega va ularga har qanday dizayn ham to'g'ri kelavermaydi. Buyurtmachiga vizit kartochkasi tayyorlashning barcha nozik tomonlarini tushuntirish uchun, qo'l ostida qog'oz va materiallarning namunalari mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Maket yarata turib, vizitkani ko'rinishi va ko'zlanish maqsadini hisobga olish zarur. Bugungi kunda vizitkalarining uch asosiy turlarini alohida ko'rsatish mumkin: bu shaxsiy, ish va xizmatga aloqador va korporativ.

3.10 Buklet, konvert, turli taklifnoma va tashrif qog'ozlari dizaynini yaratish

Firmaga oid konvert – korporativ stilning muhimlikda qolishmaydigan elementidir (93-rasm). Biroq logotip ishlab chiqib bo'lingach, qo'shimcha

elementlarni yaratilishi (firma blankalari, konvertlar, papkalar va hokazo) soddalashadi.

Konvert asosan oq qog'ozdan yasaladi. Konvert ustida: kompaniya logotipi, "kinga", "qayerga" axboroti bo'lishi shart, shuningdek, kompaniya haqida qo'shimcha dizayn elementlari mavjud bo'lishi mumkin.



93 –rasm. Konvert

3.10.1 Konvertlarning o'lchamlari

C6 (114x162 mm). ushbu konvertdan to'rtga buklangan A4 o'lchamli list va ikkiga buklangan A5 o'lchamli qog'oz varag'ini jo'natish uchun foydalanilishi mumkin.

"Yevro" konverti (110x220 mm). bu konvert taklifnomalar, standart flayerlar, shuningdek, 110x210 mm o'lchamli otkritkalar tarqatish uchun mo'ljallangan. Konvert shuningdek, uch buklangan A4 o'lchamli hujjatni sig'dirishi mumkin.

"Yevro +" Yevrostandart. O'lchami 114x229 mm.

C5 (162x229 mm), A5 o'lchamli qog'ozni yoki ikki buklangan A4 qog'oz varag'ini jo'natish uchun foydalaniladi.

C4 (229x324 mm, o'lcham A4), bunday convert buklanmagan A4 o'lchamli hujjatni o'ziga sig'diradi.

3.10.2 Buklet

Buklet (fr. Buuclette – jimjimador) – bu varaqni ikki tomoniga bosilgan, ikki yoki undan ortiq iz tushirilgan holda buklanuvchi, bir nechta ochiluvchi sahifalar hosil qiluvchi nodavriy varaqli nashr. 10x21 sm o'lchamli ikki egma holda buklangan, A4 buklet o'lchamini reklama qilinishida eng ommalashgan. Bunday buklet broshyuraga nisbatan past tannarxga ega, lekin varaqa kabi axborotbop hisoblanadi, qaysiki bu uni

ommabop bo'lishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, A4, A5 va boshqa o'lchamdagi ko'psahifali bukletlar ham mavjud.



94-rasm. Buklet

3.10.2 Buklet turlari

Ko'zlanish maqsadlariga bog'liq ravishda, bukletlar uch turga bo'linadi:

1. Axborot beruvchi (ularda reklama xususiyatiga ega bo'lmagan axborot mavjud bo'ladi. Masalan, shahar bo'ylab yo'l ko'rsatkich, transport marshrutlari jadvali va hokazo);
2. Reklamaga oid (tovar va xizmatlarni reklama qilish uchun va firma yoki mahsulotga qiziqishni shakllantirishga mo'ljallangan);
3. Vakolatli, o'zini tanitishga oid (notijorat axborotga ega, ammo insonda xarakterga chorlanishni uyg'otadi, masalan ijtimoiy so'rovlar.

3.10.3 Buklet maketini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari

Birinchidan, maketni yaratishda bukletning turlari va ko'zlanish maqsadlari hisobga olinishi lozim.



95-rasm. "Afshona" mehmonxonasining firma bukleti

Ikkinchidan, bukletni ishlab chiqarayotganda, reklama mahsulotining ushbu turi hamma joylarda-ko'rgazmalarda, yarmarkalarda, taqdimotlarda manzilli tarqatish yordamida tarqatiladi. Demak, o'lcham, qog'oz, bosma usuli kabilarning optimal

variantini tanlash lozim (ko‘pincha bu ofset bosma) va firma, mahsulot yoki xizmatlarni zaruriy darajada taqdim etiluvchi yangi dizayn yaratilishi joiz.

Dizayn yaratishda mutaxassislar odatda amalda mavjud bo‘lgan firma stili va bukletning ko‘zlanish maqsadlariga tayanadilar.

3.10.4 Kichik o‘lchamdagi kalendar va brend-buk

Firma stilining yana bir ko‘rinishi bo‘lib korporativ kalendar hisoblanadi. Kalendarning o‘lchamlari har xil kichik cho‘ntakbopdan to devoriy kalendargacha (96-rasm).



96-rasm. Kalendarlar

3.10.5 Kalendarlar turlari

Kalendarlar to‘rt turga bo‘linadi:

1. Cho‘ntak kalendari – bosma kalendarlar ichida eng ixchami. Odatda u katta adadlarda bosib chiqariladi va reklama mahsuloti kabi tarqatiladi. Uning standart o‘lchami – 100x70 mm, yumaloqlashtirilgan burchaklari ham bo‘ladi.

2. Ochiluvchi kalendar – devoriy kalendar bo‘lib, qoidaga ko‘ra oyma-oy tarzida sahifalanadi. Har qaysi oyga turli mavzudagi chiroyli rasm muvofiq keladi (poster). Firma kalendarlarida mahsulotning muvaffaqiyatli chiqqan fotosuratlari joylashadi, agar mavzu erkin bo‘lsa, klipartlardan foydalanilishi mumkin. Devoriy kalendar 14 sahifalarda yig‘iladi, ulardan ikkitasi – muqova va kalendar osti.

3. Kvartal kalendarlarni shunday atalishiga sabab, ochilishida bir yo‘la uch oy – bir kvartal ko‘rinadi. Bu kalendarlar ichida eng ommalashgani hisoblanadi. Birinchidan, ofislarda xodimlar tomonidan o‘z vaqtlarini rejalashtirish uchun foydalaniladi, ikkinchidan esa, bunday kalendarda reklama uchun joy yetarli bo‘lib, har qaysi reklama moduli kvartal davomida ularning ko‘zlari oldida bo‘ladi. Kvartal

kalendarlar devoriy (ancha katta) va stolusti (kichikroq) kalendarlar ko‘rinishda bo‘ladi.



97-rasm. Firma kalendarining maketi

Kalendar – “uycha” – uchburchak uycha ko‘rinishidagi stolusti kalendar varianti, oylik bo‘lgani kabi choraklik ham bo‘lishi mumkin. Promo mahsulotning eng ko‘p tarqalgan turi.

3.10.6 Brend-buk

Firma stili doirasidagi kalendarlardan tashqari, yana papkalar, bloknotlar, sovg‘a mahsulotlari va hokazo ishlab chiqilishi (katta ro‘yxatda), shuningdek, brend-buklar yaratilishi mumkin. Brend-buk nima ekanligini aniqlab olamiz.

Brend atamasi (ing.brand) nomlanish, so‘z, ifoda, belgi, ramz, dizaynerlik yechimi yoki ular kombinatsiyasini muayyan sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari yoki xizmatlarini belgilash maqsadida nomlanishidir (ta’rif Amerika marketing uyushmasi tomonidan berilgan).

A.Brend-buk – bu brend to‘g‘risidagi kitob, ya’ni firma stilini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma. Unda logotipdan qanday foydalanish, undagi nimani o‘zgartirish mumkin va nimani o‘zgartirish mumkin emasligi bayon etiladi, logotipni ishlab chiqish bo‘yicha modul to‘ri keltiriladi, qanday reklama modullariga yo‘l qo‘yilishi va qaysilariga yo‘q, qanday foydalanish kerakligi bayon qilinadi, Tovar belgisini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, shuningdek, firma stilini hisobga olgan holda tashqi reklamaga misollar, suvenir mahsulotlari va hokazo beriladi.

Brend-buk menejerlar, dizaynerlar, marketologlarning firma stilini qo‘llovchi kompaniya xodimlari uchun bilishi shart bo‘lgan nizom bo‘lib hisoblanadi. Brend-bukning asosiy vazifasi firma stilining har qaysi elementini to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha, tavsiyalar berish, ularni mufassal bayon etish va ular reklamada qanday takror ishlab

chiqilishidan iborat. Brend-bukni yaratish ustida odatda dizaynerlar, rassomlar, marketologlar va firma stilini yaratishda ishtirok etuvchi boshqa mutaxassislardan iborat katta mehnat jamoasi ishlaydi. Brend-buk bilan qurollangan kompaniya rahbarining reklama kompaniyasi a'lo darajada o'tishi va bunda firma ranglarini buzilmasligi, logotipni muvaffaqiyatsiz qo'llanishlarni va dizaynerlar tomonidan badiiy "erkinliklar" bo'lmasligiga ishonch komil bo'lishi mumkin. G'arb mamlakatlarida brend-buklar hamma yerda qo'llanadi, Rossiyada ham ular ommalashmoqda, biroq brend-bukni ishlab chiqilishi qimmatga tushganligi bois, barcha kompaniyalar ham ulardan foydalanavermaydi.

95-rasmda turli brend-buklarga misollar keltirilgan bo'lib, birinchisida siz logotip uchun fondan foydalanish bo'yicha tavsiyalarni, ikkinchisida – dizayner-rassomlar tomonidan ishlab chiqilgan, logotip uchun modul to'rini ko'rasiz.



98-rasm Brend-bukdagi logotip uchun fondan foydalanish

Aytish mumkinki, brend-buk – bu firma stili elementlari bilan bundan buyon ishlovchilar uchun aniq ko'rsatmalarda ifodalangan barcha dizaynerlik ishlarining yakunidir.

Shunday qilib, barcha boblarda berilgan material, maketni muvaffaqiyatli yaratilishi uchun to'liq yetarlidir. Kichik hajmdagi tezkor matbaa mahsulotlarini bosishgacha tayyorgarligi, bosish va bosib chiqarilgandan keyingi jarayonlar kabi uning bosqichlarini batafsil ko'rib chiqildi, eskiz yaratishdan boshlab, brend-buk tushunchasi bilan tanishgan holda matbaa va bosma mahsulotlar maketini ishlab chiqish bo'yicha mufassal tavsiyalar berildi.

3.11 Tasvirlarni chop etishga tayyorlash

Maket tayyorlashda tasvirlar muhim rol o'ynaydi. Ba'zan butun bir ishning muvaffaqiyati birgina fotosuratga bog'liq bo'ladi, shuning uchun tasvirlar, rasmlar

tanlashga juda diqqatli munosabatda bo'lish lozim. 96-rasmda buklet polosasi ko'rsatilgan bo'lib, unda sahifaning katta qismini egallagan muvaffaqiyatli fotosuratdan foydalanilgan. Aynan shu fotosurat kerakli kayfiyatni yaratish uchun maket dizaynida hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Ushbu bob davomida biz tasvirlar, rasmlarni qayerdan olish, fotosuratlarni qanday qilib to'g'ri skanerlash, ularni qaysi o'lchamda saqlash va rasrtrli tasvirlarni tonga va rangga oid o'zgartirishlarni qanday amalga oshirish to'g'risida bilib olamiz.



99-rasm. Bukletdagi tasvir

Tasvirga qo'shimcha effekt berish uchun oddiy usul bo'lmish – Adobe Photoshop filtrlaridan birini qo'llanishi mumkin va ular «Filtrlar galereyasi»ning - «Filtr» komandasida joylashgan.

Bir oynada ommabop filtrlar qulay joylashgan bo'lib, filtr ta'sirining taxminiy natijasini darhol ko'rish mumkin. Ushbu komanda biryo'la bir nechta filtrlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi va ularni nozik sozlashni amalga oshiradi. Akvarel, postel, mozaika, shisha, teksturalarni aynan o'zi kabi o'xshatiladi (97-rasm).



100-rasm. Filtrlar galereyasi

Adobe Photoshop dasturi tasvir qatlamlariga qo'llanishi mumkin bo'lgan turli-tuman effektlarga ega va u murakkab kollaj va montaj ishlarini bajarish imkonini

beradi. Matbaa mahsulotlari dizayneri va sahifalashtiruvchilari ushbu dasturni bilishlari zarur. Tasvir rasrtrli redaktorda ishlanib, maketga qo'yilgach, polosalarni tushirish va butun maketni bo'lishi mumkin bo'lgan xatoliklarga yaxshilab tekshirilishi zarur.

Shakl (form) – bu bosib chiqarish uchun to'plangan, sahifalar va tasvirlar guruhi.

Polosalar tushirish (imposition) – bu hujjat sahifalarini shakl ustida ma'lum tartibda joylashtirish jarayoni. Polosalarni qo'lda tushirish montaj deb ataladi. Elektronli tushirish maxsus dasturiy ta'minlash yoki muvofiq keluvchi modul bilan qurollantirilgan sahifalashtirish dasturlari yordamida bajariladi.

Daftar (signature) – ma'lum tartibda bukilishidan so'ng hosil bo'lgan izlarga ega bosma varaq. Bir necha daftarlarni birgalikda muqovalanishi kitobni hosil qiladi.

Montaj (stipping) – plyonkalarni qo'l yordamida montaj varag'ida bosib chiqarish uchun muvofiq tartibda joylashtirish.

Bir buklamga ega A4 o'lchamli oddiy bukletni tasavvur qiling. Sizda birinchi polosa, ikki ichki va orqa polosa bor. Sahifalashtirish dasturida ular turli betlarda yoki bir betda joylashgan bo'lishi mumkin, baribir ularni chop etilganda kerakli tartibda birlashtirish talab etiladi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Buning uchun A4 o'lchamdan ikki barobar katta bo'lgan A3 o'lchamidan ikki varaq olinishi va ular ustiga quyidagi tartibda polosalarni joylashtirilishi lozim: birinchi tashqi varaqda to'rtinchi va birinchi polosa, ichki betda – ikkinchi va uchinchi polosa joylashadi. Shunda chop etilishida barcha polosalar kerakli joylarni egallaydi va sahifalarni zaruriy ketma-ketligi hosil bo'ladi.

Shunday qilib, polosalar tushirish – nashrning polosalarini montaj stoli va bosma qolip ustida joylashtirish jarayonidir. U ma'lum tartibda buklanishidan va izlardan qirqilishidan keyin daftarlaridagi talab etiluvchi sahifalar navbatlanishini ta'minlaydi. Polosalar tushirish jarayonsi nashrgacha tayyorlash muhandislarining vazifasiga kiradi. Bu natijasi faqat xatoga yo'l qo'yilishidagina ko'rinuvchi ma'suliyatli jarayondir. Agar polosalarning joyi adashtirib yuborilsa, adad yaroqsiz hisoblanadi.


Polosalar tushirishni amalga oshiruvchi dasturlar obzori, kitobning birinchi qismida berilgan, masalan Adobe InDesign (bunga qo'shimcha ravishda Alap Imposer o'rnatilishi talab etiladi) maketi yaratilgan sahifalashtirish dasturlaridan foydalanilishi mumkinligini takrorlab olish joiz bo'ladi, biroq agar polosalar tushirish tez-tez ta'alab qilinadigan bo'lsa, yaxshisi aynan shu uchun mo'ljallangan maxsus dasturlarni xarid qilib, ulardan foydalanilishi ma'qul bo'ladi: Preps (Kodak), Inposition (DK&A), Imposition Publisher (Farrukh Systems), Press Wise (Luminous), Impostir Second Generation (Ultimate) va hokazo. Bular 1 qismning 1 bobida bayon qilingan.

Agar maket PDF o'lchamida saqlansa, polosalar tushirish Adobe Acrobat dasturida Quite Imposing Plus plugin yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Zamonaviy bosmaxonalarda polosalar tushirish maxsuslashtirilgan Signas-tation dasturiy kompleksi yordamida amalga oshiriladi. Polosalar tushirish sxemasi operator tomonidan vazifalashtiriladi.

Agar maxsus dastur mavjud bo'lmasa va sahifalashtirish polosalar tushirishga ega bo'lmagan dasturda amalga oshirilgan bo'lsa, uni qo'lda bajarishga to'g'ri keladi, ya'ni ikki varaqni sahifalashtirish dasturining montaj varag'i ustida o'zingiz birlashtirishingiz mumkin. Polosalarni ketma-ketlik tartibi buzilmasligi uchun oddiy oq varaqlar olinib, daftar tarzida buklanadi va tartib raqamlari qo'yiladi. So'ng elektron ko'rinishida qog'oz maketiga muvofiq betlar navbatlanadi. Biroq, sahifalashtiruvchini qo'shimcha ish bilan qiynalmaslik uchun, daftarga polosalar tushirishning turli variantlari uchun misollar keltiramiz.

Ular aynan shunday ravishda navbatlanishi lozim, boshqa tarzda emas. O'xshash sxema b'oyicha sakkiz polosali xujjat polosalari tushiriladi, faqat bu yerda ikki bosma varaq talab etiladi (98-rasm). Faqat esda tuting, polosalar tushirish doimo ikki barobar katta o'lchamda bajariladi. A4 o'lcham hosil qilish uchun A3 o'lchamini olamiz, A5 o'lchamini polosasinitushirish uchun A4 o'lchami varag'idan foydalanamiz va hokazo.



101-rasm. Polosalar tushirish sxemasi

Odatda, bosmaxona polosalar tushirish vazifasini beradi, biroq sahifalashtiruvchi umumiy qoidalarni bilishi lozim.

Bosma varaqqa polosalar tushirish quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- bosmaxona tomonidan o‘rnatilgan sxemaga muvofiq joylashgan nashr polosalari;
- qirqiluvchi belgilar, buklanma chiziq belgisi o‘lchamga oid belgilar, tikilish joyi belgilari;
- nashr sifatini tezkor nazorat qilish shkalasi, separatsiya nomlari va boshqa zaruriy xizmat axborotlari.

-polosalar tushirish uchun sahifalashtirish avvaldan bosmaxona bilan kelishilgan tarzda cheti qirqiluvchi o‘lchamda bo‘lishi lozim. Qirqish uchun joy qoldirishni unutmang (qoidaga ko‘ra, kamida 3 mm).

Prujina bilan mahkamlanuvchi nashrlar maketlarini sahifalashtirishda, qirqiluvchi chekkasi bilan matngacha va boshqa ma’noli elementlargacha etilish tomoni bo‘yicha qoldiruvchi masofa kamida 12 mm bo‘lishi lozim.

Polosalarni tushirish PS-fayli yaratilgunga qadar amalga oshiriladi.

Polosalarni tushirish- oxirgi jarayon bo‘lib, sahifalashtiruvchiga maketni to‘liq tekshirib chiqish va uni PS-fayli yaratilishiga tayyorlash vazifalari qoladi.

3.12. Tasvirlarni olish manbaalari, muharrirlik huquqi

Ta'rifga ko‘ra, matbaachi -dizayner dizayn faoliyatining turlaridan biri bo‘lib, uning vazifasi o‘ziga xos, individual dizaynga ega va keyinchalik bosmaxonada chop etishga tayyor bo‘lgan yuqori sifatli grafik mahsulotni yaratishdir.

Bukletlar, turli xil jurnallar va gazetalar, mahsulotni qadoqlash, plakatlar bannerlar kabi matbaa mahsulotlarini bezash yoki dizayni malakali va sifatli

dizaynerga ehtiyoj sezadi.



102-rasm. Dizaynerning ijodiy yondashuvi

Yuqori sifatli bosma deganda biz loyihani ishlab chiqish va tayyorlashda, ishlab chiqilgan mahsulotni bosib chiqarish va bosmadan keyingi ishlov berishda tayyorlashda mutlaqo barcha rang va estetik me'yorlarga muvofiqlikni anglatadi. Ushbu jarayonlarning barchasi ma'lum ko'nikma va qobiliyatlarni talab qiladi va buni hamma ham qila olmaydi. Umuman olganda, bu juda mashaqqatli ish bo'lib, ham bilim ham ijodkorlik talab qiladi.

Tayyor mahsulotning hajmi va shakli e'tiborga olish kerak bo'lgan birinchi tafsilotdir. Statistika va ko'plab izlanishlarga ko'ra, to'g'ri burchaklarga (to'rtburchaklar, kvadrat) ega bo'lgan shakllarga ustunlik berish inson tabiatidir. Shu bilan birga, vertikal ravishda ko'rsatilgan manbalardan ma'lumotni qabul qilish gorizontaal ma'lumotlarga qaraganda osonroq. Bundan tashqari, mahsulotning to'g'ri hajmi potentsial xaridorning qiziqishini oshirishga imkon beradi. Bosib chiqarish dizaynida maketning kengligi va balandligini tanlash uchun "oltin qism qoidasi" deb nomlangan usuldan foydalanamiz, unga muvofiq tomonlarning o'lchamlari 1: 1,6 nisbatda tanlanadi. Ya'ni, agar sxemaning tanlangan kengligi 100 mm bo'lsa, - keyin uning balandligi kamida 160 mm bo'lishi kerak.



103-rasm. Har xil ko‘rinishdagi shriftlar

Shrift - bu sifatli chop etish dizaynining muhim qismlaridan biridir. Potentsial mijozning reklama bo‘yicha taklifni to‘liq va to‘liq o‘qishi dargumon ekanligini yodda tutish juda muhimdir, agar unda har xil kalligrafik yoki murakkab shriftlar, turli xil va boshqa ko‘rinishlar bir qarashda aniq bo‘lmagan boshqa belgilar mavjud bo‘lsa. Bunday shriftlar maketga xilma-xillik qo‘shishi mumkin, ammo ayni paytda uni o‘qib bo‘lmaydigan qilib qo‘yishi mumkin. Professional dizaynerlar sifatli tartibni yaratish uchun bir nechta tekis va ravshan shriftlardan foydalanadilar, ulardan bittasi, qoida tariqasida, sarlavhani ta’kidlash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, reklama sarlavhalari katta bosmada yoki matnning sarlavhasini boshqa rangda ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunday holda, tartibni qisqartirishga alohida e’tibor berilishi kerak. Matnni bezash kamalakning barcha ranglarida bo‘yash degani emas.

Xuddi shu tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, odam har qanday yorqin rang sxemalariga ijobiy munosabatda bo‘ladi. Shuning uchun bunday yorqin ranglar reklama bukletlari, risolalar va boshqalarni yaratishda ishlatiladi. Yumshoq va iliq ranglarda yaratilgan reklama aksiyalari raqobatchilarining yorqin nurlarida yo‘qoladi. Agar yorug‘lik soyalarini ishlatish hali ham o‘z kuchida qolganligini hisobga olsak, unda hech bo‘lmaganda asosiy elementlar yorqin ranglarda ta’kidlanishi va potentsial xaridorni jalb qilishi kerak. Biroq bu yerda aniqlik qoidalarining o‘ziga xos xususiyati mavjud. Reklama maqsadida bosib chiqarish mahsulotlarini dizaynida juda ko‘p yorqin ranglardan foydalanmaslik kerak. Barcha ranglar to‘g‘ri tanlangan va bir-biri bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

Mualliflik huquqi nima? U sahifalovchi tomonidan sahifalangan polosalarga, dizaynerning maketiga tadbqiq etiladimi? O'zgalar asarlarining elementlaridan foydalanilishi yoki masalan, Internet tarmog'idan fotosurat yoki logotipdan nusxa olish mumkinmi?

Copyright belgisi. Texnik jihatdan o'zgalar dizayni yoki fotosini o'g'irlab olish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi, uni bor holicha emas, balki uslubi yoki ayrim elementlarini takrorlash ham shu kabi qiyin emas. Ko'p ishlarini dizaynerlar Internet tarmog'iga joylashtiradilar, ba'zilar maketni haq olmagan holda tasdiqlash uchun buyurtmachiga yuboradilar. Buni aslida mumkin emasligini har bir sahifalovchi va dizayner bilishi lozim.

3.13 Skanerlashning xususiyati

Matbaa texnologiyasi bo'yicha S.N.Gunko, V.I.Demidov lug'atiga muvofiq, rastrlash – yarimton originalni (aslnusxani) unga qaratilgan yorug'lik dastasini strukturaga oid o'zgartirish uchun, navbatlanuvchi shaffof va noshaffof elementlar bilan yuzani shakllantiruvchi turli o'lchamli mikroelementlarga parchalanishidir.

Oxirgi PS-faylni tekshirish uchun, rangnamuna yaratish, plyonka yoki shaklni chiqarish lozim. PS-faylni rastrlash funksiyasini bajaruvchi maxsus – Raster Image Processor (Rasrtrli protsessor – RIP) dasturiy ta'minlash mavjud. RIPning vazifasi "rastr" deb ataluvchi, chop etuvchi qurilmaning o'lchamiga Post Script tili bilan yozilgan kiruvchi tasvirni o'zgartirishdan iborat, RIP-rastrlash nomi rastr so'zidan kelib chiqqan. Ushbu jarayon nashroldi tayyorgarligi muhandisining majburiyatiga kiradi.



104-rasm. PS faylni rastrlash

RIP nashrni texnologik tayyorlash bo'yicha barcha jarayonlar majmuasini bajaradi, ular orasida: tasvirlarni cho'zish, tasvirlarni to'g'ri to'rtburchak shaklidagi erkin fragmentlarga bo'lish yo'li bilan ularni cheklanmagan o'lchamlarda chop etish, bajarilgan ranglash, cheklash, rastrlash asosida zaruriy rang uzatilishini ta'minlash (tasvirning xususiyati va o'lchamiga bog'liq ravishda ko'plab turli-tuman usullarda) rang ajralish va hokazo. Tasvirlarni yuqori sifatda bo'lishini ta'minlashidan tashqari, RIP fayllar hajmi bo'yicha cheklovlarni olib tashlaydi va standart drayverga nisbatan nashrga tayyorgarlikka sarflanuvchi vaqtni bir necha martaga qisqartiradi. RIP operatsion tizimning bir qismi bo'lishi yoki Qurilmaga oid gavdalanishi mumkin, masalan, printer protsessori tomonidan bajariluvchi makrodastur ko'rinishida. RIP ga misollar keltiramiz: Harlequin dan Express 5.3, Xitron Eclipse SDP-RIP, Ghostscript, Ghost PCL. Qurilmaga oid RIPga istalgan Post Script – printer xizmat qilishi mumkin. Ushbu dasturlar chiqarish uchun barcha parametrlarni tekshiradi va maxsus texnologiya bo'yicha rastriraydi – fotoshakl RIP dasturining boshqaruvi ostida Rasrtrli nuqtalar dog'larini lazer bilan kuydirish yo'li orqali hosil bo'ladi.

PS-faylni tekshirish boshqa vositalar orqali ham amalga oshiriladi, masalan, Adobe Acrobat dasturi yordamida. Acrobat Distiller PS-faylni PDF-faylga o'tkazishga imkon beradi, Acrobat Reader dasturida ishlagan holda PDF o'lcham fayllarini ochish va tahrir qilish mumkin. Gap shundaki, PS-faylni to'g'ridan-to'g'ri ochishning iloji yo'q (uning matnli tarzda aks ettirilishidan tashqari), qandaydir o'zgartirishni bajarishga to'g'ri keladi, PDF-fayl shunday o'zgartirish variantlaridan biridir.

3.14. Rastrli grafik formatini saqlash, tasvirlarning rastrli qobiliyati

Matbaa sanoatida rang ajralishi – bu rangli tasvirlarni bir necha bo'yoqlar bilan bosishga tayyorlashning eng muhim va zarur jarayonlaridan biridir. Bunda CMYK har qaysi bosma bo'yoq uchun RGB tizimidan to'rtta tasvirlarning rangli tasvirlarini ajratish zarurdir, so'ng ularni bir-birining ustiga, bosish chog'ida ko'p rangli tasvirlar hosil qilish bilan yotqiziladi. Boshqa so'z bilan aytganda, rang ajralishi – bu to'liq rangli tasvirni CMYK-Cyan (cyan yoki havorang), Magenta (fuksin yoki pushti), Yellow (sariq), Black (qora) kabi to'rtta rangiga ajratilishidan iborat. Amalda rang

ajralishi – bu istalgan boshqa modellardan tasvirni CMYK rang modeliga oʻzgarishidir. Natijada har qaysi rang uchun toʻrtta plyonka (yoki toʻrtta PDF-fayl) hosil boʻlishi lozim va ular alohida holda fotojamlama avtomatda chiqariladi. Ushbu plyonkalarni birgalikda uygʻunlashuvi bosib chiqarishda rangli tasvirni beradi.




105-rasm. Ranglarga oid boʻlingan fayl

102-rasmda yuqorigi tasvir-toʻliq rangli, chapda majenta, sian, sariq, qora ranglar.

Rang ajralish jarayoni CorelDRAW («Fayl» - «Bosma» - «Separation» (rang ajralishi), «Print separation» belgi). Toʻliq rangli fayl toʻrtta faylga boʻlinadi va PDF oʻlchamida saqlanadi. Turli boʻyoqlar uchun bosma qoliplar tayyorlanuvchi plyonkadan xulosa chiqarish mumkin.

3.15 Rang ajralish usullarining turli koʻrinishlari

Tasvirlarni bosib chiqarishda qora rang nazariy jihatdan kerak emas. U iz ustida avtomatik tarzda uch triad boʻyoqlarni (havorang, toʻqqizil va sariq) ustma-ust qoʻyilishida hosil boʻlishi lozim. Biroq hatto «kulrang boʻyicha» balansni bir ozgina boʻlsada buzilishida qogʻoz ustida toʻq jigarrang nimrang hosil boʻladi. Shuning uchun triadga qora boʻyoq qoʻshilgan edi. Rang ajratishning turi tasvirlarda qora boʻyoqni paydo qilish usuliga bogʻliq, shunga muvofiq toʻrt rangli rang ajralish usullari oʻrtasidagi tafovutlar aynan qora rang uchun fotoqolipda tasvirni yaratish usullari bilan bogʻliq.



106-rasm. CorelDRAW dasturida rang ajratish

Rang ajralishining uchta texnologiyasi mavjud. Ularni batafsilroq ko‘rib chiqamiz. Rang ajralishining an‘anaviy texnologiyasi – bu “skeletli gradatsiya” usulidir. Ushbu usul bo‘yicha, qora bo‘yoq uch asosiy ranglar ustiga qo‘yiladi va tasvir yaratmagan holda faqatgina konturlarni ajratib ko‘rsatadi va kontrastlikni kuchaytiradi. Ushbu usulning kamchiligi shundaki, rangning maksimal darajasi izning eng qorong‘u qismlarida 400% ga yetadi – har qaysi rang uchun 100% dan. Har qaysi qog‘oz varag‘ini yaxshilab quritish zaruriyati paydo bo‘ladi, bu esa ortiqcha vaqt va kuch talab etadi.

ICR texnologiya (GCR – Gray Component Replacement). Ushbu variantda tasvirlarning rangli bo‘yoqlarni uchlamchi qoplanishi hisobiga rangli ton yaratiluvchi joylarida qora rang bilan almashtirilishi sodir bo‘ladi (kulrang tashkil qiluvchi bilan almashtirish). ICR tizimida nimranglar faqat uch yoki undan kam sonli bo‘yoqlar orqali hosil qilinadi, bunda ulardan biri doim qora bo‘ladi. Rang ajralishning bunday usulida bo‘yoqning maksimal darajasi 300 % dan oshmaydi.

UCR texnologiya (Under Color Removal) – “qora ostidan chiqarish” iborasining o‘zi tasvirning to‘q joylarida yuzaga keluvchi muammolardan kelib chiqqan bo‘lib, qaysiki ularga qora bo‘yoq berilishi kerak bo‘lgan joylarida triad bo‘yoqlar (CMY) miqdorini kamaytirish usuli qo‘llanadi. UCR texnologiyasi asosan to‘q bo‘yoqlarga qo‘llanadi va bu boshqa nimranglarga amalda ta’sir ko‘rsatmaydi.

Rang ajratish uslublarini har qaysi maketga va hatto har qaysi maketga va hatto har qaysi tasvirga xususiy holda tanlanishi zarur. Jarayonning ko‘rinib turgan murakkabligiga qaramay, bu nashr uchun juda muhimdir. Rang ajratishning nozikligiga nashr qilinuvchi mahsulotning sifati va rangi uzviy bog‘liqdir. Matn terish qoidalariga rioya qilib, bosmaxona tomonidan maketga qo‘yiluvchi talablarni bajargan holda, rang ajratishni yaxshi amalga oshirib, siz bu tashrif qog‘ozi (vizitka) bo‘ladimi, buyurtmachining kutgan sifatli va chiroyli mahsulotini qiyinchiliksiz yaratasiz.

Biroq Adobe Photoshop dasturida tayyorlanishi lozim bo‘lgan Rasrtrli tasvirlar haqida ham unutmaslik kerak. Xira va so‘lg‘in fotosurat, tasvir ranglarini mos emasligi yoki uning sifatining pastligi nashr mahsulotini to‘liq buzilishiga olib keladi.

Tasvirlarni olinish manbalari, skanerlash va tasvirlarni tahrir qilish to‘g‘risida keyingi bobda suhbatlashamiz.

3.16 Tasvirlarga qo‘yiladigan talablar

Maketni nashrga tayyorlashda barcha obyektlarga va Rasrtrli tasvirlarga CMYK modelini belgilash lozim. Agar sizning tasviringiz ko‘plab nimranglarga ega bo‘lsa (masalan, fotosurat) havorang, to‘q qizil, sariq rang CMYK modeliga asoslangan triad bo‘yoqlar deb ataluvchi bo‘yoqlardan foydalaniladi hamda qora rang qo‘shiladi. Bu ranglar Process Color deb ataladi, biroq ikki-uch ranglarning barchasi ishtirok etuvchi gazeta yoki vizitkani ko‘z oldingizga keltiring; masalan, qora matn va qizil ramka. Bunday matbaa mahsulotini chop etish ikki bosqichda amalga oshadi: avval qizil bo‘yoq bilan ramka tushiriladi, so‘ngra esa qora matn. Qizil rangni bo‘yoq beradi va bunday rang Spot Color (oddiy rang) deb ataladi. Shuningdek, Spot Color oltin va kumush rang tushirish uchun agar triad bo‘yoqlar qayta ishlay olmaydigan bo‘lsa, yorqin nimranglar berish zarur bo‘lganda qo‘llaniladi.

Spot- ranglarning eng keng tarqalgan tizimi- Pantone palitrasidir. Rangni tanlash va kerakli bo‘yoqni buyurishga imkon beruvchi Pantone kataloglari mavjud, biroq ushbu palitradan foydalanishi to‘g‘risida mijozni ogohlantirib qo‘yishi lozim, chunki nashrning narxi avvalgisidan farq qilishi mumkin. Pantone tizimi kengaytirilgan bo‘yoqlar to‘plamiga kiradi va yanada boy rang gammasini ta‘minlaydi, biroq


zaruriyat bo'lganda har qanday Spot – rang rangajralishga duchor bo'lishi va to'rt xil bo'yoqlarda ko'rsatilishi mumkin, biroq bunda u o'zining boshlang'ich ko'rinishini yo'qotadi. Spot – rangdan ranglar katalogi va rang qamrovi kataloglari mavjudligida foydalanilishi mumkin (104-rasm).



107-rasm. Pantone palitrasi kataloglari

Panton palitrasi rangini maketda CorelDRAW dasturining «Заливка» menyu oynasida vazifalashtirish mumkin (104-rasm).

Panton seriyasidagi bir necha bo'yoqlarni aralashtirish hisobiga, katalogda mavjud bo'lgan istalgan nimranglarni olish mumkin. Bu ish bilan aralashtiruvchi qurilmasi mavjud bo'lgan maxsuslashgan firmalar shug'ullanadilar. Bosmaxonalar avvaldan katalog bo'yicha rangning tartib raqamini ko'rsatgan holda tayyor aralashtirilgan ranglarni xarid qiladi. Shuning uchun Pantondan foydalanish haqidagi qaror maket tayyor bo'lguniga qadar qabul qilingan bo'lishi lozim, chunki Stop-rangga alohida plyonka chiqariladi va bu rang bosma mashinaning bir o'tishi bilan chop etiladi.



108-rasm. CorelDRAW dasturidagi Panton palitrasi

Bunday rangni monitorda tanlab olish muammoli hisoblanadi. Monitorlar ma'lum chop etuvchi qurilma ostida kalibrlashni talab etadi, ya'ni, rang gammasini shunday moslashtirish lozimki, bunda u elektron ko'rinishida chop etilgan maket bilan

mos tushishi kerak. Biroq hatto eng aniq kalibrlash ham har doim ham haqqoniy rangni ko'rsatavermaydi. Qurilmaga oid mustaqil rang modellarini ishlab chiqish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, biroq bu hali kelajak istiqboli, hozircha esa dizaynerlar va sahifalashtiruvchilar oldida rangni uning original maketida tanlash va tekshirish bo'yicha juda muhim vazifa turibdi.

Shuni nazarda tutingki, maketni rangli printerda yoki fotolaboratoriyada chop etish ranglar to'g'risida haqqoniy tasavvurlarni har doim ham beravermaydi. Yaxshisi rangnamunani bosmaxonaga buyurtma qilib berish kerak.

3.16.1 Rangnamuna

Rangnamuna haqqoniy (real) bosma sintezini rangga oid qamrab olish chegaralarida tasvir hosil qilish uchun xizmat qiladi, u shuningdek fayl chiqarish uchun yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini bildiradi. Qurilma qayta ishlashi mumkin bo'lgan ranglar diapazoni rang qamrovi deb ataladi. Rangnamuna uchun bosmaxonada tizillovchi oqimli va termosublimatsion printerlar qo'llaniladi yoki namuna bosuvchi dastgohda (Press-Proof) namunaviy bosib tushirilgan iz hosil qilinadi. Biroq oxirgi usul kichik adad (50 nusxagacha) uchun yaroqlidir.

3.17 Rastrli tasvirlarni Adobe Photoshop dasturida qayta ishlash

Adobe Photoshop – bu yuqori malakaga oid rastrlash grafik muharriridir. Dasturning asosiy maqsadi – fotorealistik tasvirlarni nashr etish, retushlash – ya'ni tush yoki bo'yoq bilan sur'atlarni to'g'rilash, kollajlar yaratish, montaj qilish, fotosuratlarini badiiy ishlash, shuningdek, veb-sahifalar va PDF-taqdimotlarni yaratish va ularni bezatish.

Photoshop dasturi rastrlash tasvirlar bilan ishlash uchun barcha vositalarga egadir, qatlamlarni va konturlar bilan ishlanishini quvvatlaydi. Bu dizayner uchun bo'lgani kabi rassom va fotograf uchun ham qulay ish qurolidir. Bundan tashqari, Photoshop dasturi nashrgacha tayyorgarlikda, aynan tasvirlarni nashrga tayyorlashda ko'plab texnik vazifalarni yechishga imkon beradi.

Bundan yigirma yil avval yaratilgan Adobe Photoshop hanuzgacha rastrlash muharrirlar ichida birinchilikni qo'ldan boy bermay kelmoqda. Effektlar, filtrlar va tasvirni transo'lchamsiyalash komandalarining juda katta bo'lgan soni ushbu ilovani

raqobatchilar uchun yetib bo‘lmas darajadagi balandlikka ko‘tardi. Biroq ta‘kidlash joizki, dasturning mantiqiy va uning interfeysi Corel oilasining grafik muharririda bo‘lgani kabi, tushunish uchun uncha oson emas. Aksincha, ba‘zi foydali komandalar va filtrlar shu qadar uzoqlikka yashiringanki, ular faqat mutaxassislar uchun ochilishi mumkin. Buning ustiga sahifalovchi va dizayner uchun ushbu dastur havodek zarurdir. Shubhasiz, katta e‘tibor talab etadi, biroq, tasvirlarni tonli va rang o‘zgartirilishi, qatlamlar va rang rejimlari bilan ishlash, filtrlarni qo‘llash kabi ba‘zi foydali komandalar bilan o‘rganishni chegaralashga urinib ko‘rilishi mumkin.

Dasturni yaratilish tarixiga murojaat qilsak, u 1987 yildan boshlangan bo‘lib, uning ishlab chiqilishi aka-uka Tomas va Jon Xollning nomi bilan bog‘liq. O‘sha vaqtlarda Jon Xoll “Industrial Light and Magic (ILM)” da “Yulduz urushlari” loyihasi uchun maxsus effekt yaratish ustida ishlar, uning akasi Tomas esa tasvirlarni ishlash jarayoni to‘g‘risida dissertatsiya yozayotgan edi. Tez orada ular hali mavjud bo‘lmagan analoglar dasturini yaratish ustida o‘z kuchlarini birlashtirdilar. Yigirma yil ichida Photoshop bir necha marta modernizatsiya qilindi va jiddiy o‘zgardi. Bugungi kunda Adobe Systems kompaniyasi Photoshop CS4 grafik muharririning yangicha avlodini taklif etdi. («CS4» abbreviaturasi mahsulot «Adobe Creative Suite» dasturlar maketining to‘rtinchi versiyasiga integrallanganligini anglatadi.




109-rasm. Photoshop versiyalari

Interfeys jiddiy o‘zgardi, tahrir qilish uchun ekran bo‘shlig‘i kattalashtirildi, palitra o‘zi sozlanuvchi qulay doklarda joylashgan, ishlab chiqaruvchining saytida topiluvchi o‘nlab yangi vositalar va komandalarning bayoni berilgan.

Ulardan faqatgina bir nechtasini sanab ko‘rsatamiz: Adobe InDesign va Adobe Illustrator bilan uyg‘unlashtirilgan qulay faylli menejer, klaviaturaviy

qisqartmalarning qoʻlda sozlanishi, raqamli kameralarni quvvatlantirish, koʻp sonli qoʻshimcha filtrlar, mobil qurilmalar uchun grafika yaratish, fotosuratlarni paketli ishlovi, veb-dizaynlar bilan integratsiyalash va koʻp sahifali PDF-hujjatlarni tayyorlash, turli ranglarga oid sxemalarni kelishtirish, «qatlamlar kompozitsiyasi» palitrasi yordamida bezakning alternativ variantlarini quvvatlash, «qizil koʻzlar effekti»ni yoʻqotuvchi asboblari, katta hujjatlarni quvvatlash, matnni berilgan kontur boʻylab joylashtirish va h.k.



110-rasm. Photoshop versiyasi interfeysi

3-jadval

Dasturlar	Vektorli grafika	Bosib chiqarish uchun PDF	Koʻp sahifali hujjat	PS-fayl
CorelDRAW	+	+	+	-
Adobe Illustrator	+	+	-	+
Adobe Photoshop	-	-	-	-
Adobe InDesign	-	+	+	+

Dasturning kamchiliklari orasida faqatgina mantiqning qaysidir darajada murakkabligini va kompyuter resurslariga ayniqsa, tezkor xotiraga boʻlgan talabchanlikni koʻrsatish mumkin.

Maket tayyor boʻlishi bilan, yaʼni jurnal polosalari sahifalangach yoki bukletning bezaklari yaratilgach, Photoshop dasturida fotosuratlar tayyor boʻlgach, oxirgi muhim jarayon – polosalarni tushirish qoladi.

3.17.1 Zamonaviy Photoshop



111-rasm. Photoshopda rasmni qayta ishlash

Asosan rastrli tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan, biroq bir nechta vektorli vositalariga ega. Dastur Adobe firmasi mahsuloti sifatida mashhur va rastrli tasvirlarni tahrirlashda dunyoda eng oldi brendi hisoblanadi. Hozirda Photoshop macOS, Windows platformalariga, iOS, Windows Phone va Android mobil tizimlariga moslashtirilgan. Yana Windows 8 va Windows 8.1 uchun Photoshop Express versiyasi ham mavjud. Adobe Photoshop tasvirlarni tahrirlashdagi proffesional muharrir hisoblanadi.

3.18 PDF fayllarni yaratish



112-rasm. PDF-fayl dasturining interfeysi

PDF — *Portativ hujjat formati* - hozirgi vaqtda elektron dasturlarga standart format bo'lib, u dastlab dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan *Adobe tizimlari* doirasida bundan oldin matnli hujjatlarni saqlash va namoyish qilish va bosma nashrlarni optimallashtirish maqsadida yaratilgan edi. Ishlab chiqaruvchilar oldidagi muhim talab bo'lgan – unversallik ham bu faylni yaratishga sabab bo'ldi. Ya'ni, haqiqiy *o'zaro faoliyat platformalari* - **PDF-fayl** har qanday joyda ochilishi (albatta, agar kerakli dastur bo'lsa) va har qanday printerda chop etish mumkin bo'lgan yagona


operatsion tizimdir.

Elektron format **PDF** quyidagilarni qo'shishimiz mumkin:

- PDF formatida kerakli shriftlarni (line-by-line matn), vektor va rastr tasvirlarni, formalar va multimedia qo'shimchalarini amalga oshirish mumkin.
- PDF formati RGB, CMYK, Grayscale, Lab, Duotone, Bitmap va bir nechta bitmap yordamida siqishni qo'llab-quvvatlaydi.
- PDF formatida bosma uchun o'z texnik formatlari mavjud: PDF / X-1, PDF / X-3.
- PDF formati hujjatlarning haqiqiylikini himoya qilish va tekshirish uchun elektron imzolar uchun mexanizmni o'z ichiga oladi.

- PDF formatida hujjat xavfsizligi sozlamalari uchun qo'shimcha sozlamalar mavjud.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu bo'ldi adabiyot va texnik hujjatlarning aksariyati PDF formatida tarqatiladi. Maktablar va kollejlarda uchun darsliklarning aksariyati *PDF formatida*, chunki bu format hali talaba deb ataladi. Aksariyat hollarda, bu Adobe Korporatsiyasining ushbu formatni bepul tashkil qilganligi va bepul versiyani chiqarganligi sababli birinchi navbatda amalga oshdi PDF-fayllarni ko'rish vositalaridir.



113-rasm. PDF-faylni saqlash


Boshqa har qanday shaklda bo'lgani kabi, PDF faylini ochish uchun — tegishli dastur o'rnatilishi kerak albatta.

Ushbu dastur pdf txt, RTF, HTML, htm, shtml, CHM, doc, AIG, xls, xlw, wri, WPS, WP, wpd formatda fayllar aylantirish imkonini beradi. Document 2PDF Pilot pdf-fayllar parol (40-bit va 128-bit shifrlash tugmalari yordamida) rejimida, shriftlar va ularni jipslashib joylashishini qo'llab-quvvatlaydi. Ommaviy rejimdan foydalanib,

bir nechta fayllarni bir vaqtning o'zida aylantira olamiz.

Bugungi kunda barcha texnik hujjatlar pdf formatida taqdim etiladi. PDF 2 Word dasturi (pdf to word) PDF formatdagi rasm va matnni v* .rtf formatida Word hujjatiga eksport qilish imkonini beradi. Dastur * .pdf-fayllarni ommaviy rejimda aylantirish qobiliyatiga ega. Pdf2word, Acrobat Reader dasturining oltinchi versiyasiga kiritilgan PDF1.5 shaklini ham qo'llab-quvvatlaydi. Dasturdan saytlarni oflayn rejimda ko'rish, fotoalbomlar, prezentatsiyalar ko'rish uchun foydalanish mumkin. Ayniqsa tajribasiz foydalanuvchilar uchun elektron kitob yaratish bo'yicha bosqichma-bosqich topshiriq beriladi.

Pdf Grabber pdf-fayllarning mazmunini turli shakllarga eksport qilish imkonini beradi - masalan, Excel, rtf, Word. Dastur Microsoft Word, Microsoft Excel yoki Access kabi ilovalarda pdf-fayllarning mazmunini o'zgartirishi mumkin. Va uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun Adobe Acrobat dasturini o'rnatish shart emas.



114 -rasm. PDF-faylini Wordga aylantirish

3.18.1 PDF-fayllarning qo'shimcha ilovalari

Bundan tashqari dastur qulaylik va keng qamrovli funktsionallik bilan tavsiflanadi. Oson PDF Converter ommaviy ish faylini ayirboshlashni qo'llab-quvvatlaydi, Adobe Acrobat Distiller PDF printer bilan to'liq mos keladi va ichki PDF-printerni ham ishlatishi mumkin.

Ushbu dastur MS Wordga kichik bir qo'shimcha bo'lib, hujjat fayllarini bir marta bosish bilan pdf-ga aylantirish imkonini beradi. Bunday holda Adobe Acrobat kabi qo'shimcha dasturlarning mavjudligi talab qilinmaydi. Dastur shriftlarni, piksellar sonini, siqishni va turli tillarni joriy etishni qo'llab-quvvatlaydi. Qabul

qilingan fayllarni har qanday tomoshabin yordamida ko‘rish mumkin. Docni PDF ga o‘tkazish Word uchun Microsoft Word 98, 2000 va XP bilan ishlaydi.

Ushbu dastur siz yaratgan pdf fayllarga matnli yoki grafik elementlar ko‘rinishidagi suv belgilarini qo‘shish imkonini beradi. Ushbu belgi fayllardagi mualliflik huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. PDF Watermarks sizga asosiy moslamalarni ortida moybo‘yoqli joyni qo‘yishni va buyurtmachi logotipi yoki mualliflik huquqi to‘g‘risidagi xabarni kiritish imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida bir nechta fayllar bilan ishlash mumkin. Agar pdf fayli himoyalangan bo‘lsa, parolni kiritib, unga kirmasdan dastur u bilan ishlamaydi.

Internetdan saqlangan Internet-sahifalar asosida elektron kitoblarni yaratish uchun qulay dastur. HTMLDOC HTML-fayllarni pdf yoki PostScript-ga o‘zgartirishi mumkin, kitob shaklini toliq saqlab qoladi, indekslangan HTML-fayllarni yaratadi. Dastur aniq interfeysga ega va ommaviy ishlarni bajarish uchun keng ko‘lamli imkoniyatlarni taqdim etadi.

Microsoft Word 97, 2000, XP / 2002 yoki 2003 ga qo‘shib, har qanday hujjatni pdf formatiga aylantirish imkonini beradi. Bunday holda, Adobe Acrobat mavjud emas. MakePDF yaratilgan pdf-fayllarning 40 yoki 128 bitli shifrlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, shuning uchun ularni nusxalash, o‘zgartirish, chop etishdan himoya qilish mumkin. Dastur shuningdek, grafik fayllarni siqadi, barcha ko‘priklarni (jumladan, boshqa havolalarga bog‘langan havolalarni va havolalarni) o‘zgartiradi, TrueType shriftlarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlaydi.

WordPress uchun WordPDFning boshqa xususiyatlari bilan E-mail orqali suv belgilarini, bookmarkletlarni, kontentni, pochta orqali yuborilgan hujjatlarning avtomatik yuborilishini va boshqalarni qayd etish mumkin. Ushbu kichik dastur PDF-fayllarni (Acrobat Reader) * .txt matn formatiga o‘zgartiradi.

Uning xususiyatlari:

- Ingliz, fransuz, nemis, italyan va boshqalarni o‘z ichiga olgan ko‘p tilni qo‘llab-quvvatlash.

- PDF1.5 (Acrobat 6.0) protokolini qo‘llab-quvvatlash.


- Adobe Acrobatdan foydalanishga hojat yo‘q.

- Fayllarni to'plash.
- Buyruqning satri bilan ishlash.
- stol ustidagi ustunlarni avtomat tarzda joylashtirish va h.k.

3.19 Adobe Acrobat dasturi

Acrobat Distiller hujjatlarni PDF o'lchamidagi kompakt fayllarga o'zgartirish uchun qulay va ishonchli qurollarga ega, bunda asl nusxaning tashqi ko'rinishi to'liq saqlanadi (sahifaning shriftlari, tasvir va maketini o'z ichiga olgan holda).

Fayllarni vektorli dasturlardan (CorelDRAW kabi) maketning barcha elementlari saqlangan holda bosmaxona tomonidan qabul qilinuvchi o'lchamga o'tkazish muammosi kompyuterda sahifalashning boshlang'ich davrida paydo bo'ldi. Reklama moduli bo'lsin, sahifalangan kitob, gazeta yoki jurnal bo'lsin, maket tayyorlanadi. Buni endi shriftlarni, rang va effektlarni yo'qotmagan holda bosish kerak bo'ladi. Ushbu muammo nashr qilish biznesida barcha ishlovchilarga tegishlidir. Ushbu holatda birdan-bir to'g'ri va ishonchli usul bo'lmish – distillatsiya usuli mavjud.



115-rasm. Acrobat Distiller dasturining interfeysi

Ko'pincha foydalanuvchi o'lcham sifatida sahifalangan nashrni bosmaxonaga uzatish uchun Adobe kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan PDF – Portable Document O'lcham o'lchami ko'rib chiqiladi. O'z vaqtida ushbu kompaniya matn va sur'atlarni bosishga eng yaxshi ravishda tayyorlovchi, hujjatlar betlarini bayon qilinishining PostScript tilini yaratdi PDF esa uning ko'rinishlaridan biridir. Shunday qilib maketni nashrga tayyorlash bo'yicha, murakkab vazifani bajarilishida Adobe Acrobat Distiller eng yaxshi variant ekanligiga shubha qilinmasligi mumkin. PDFni

qo'llab-quvvatlash to'g'risida bir necha so'zlarga quloq tutamiz. Birinchidan, PDF-o'lcham PC va Mac platformalari orqali yaxshi qo'llab-quvvatlanadi, PostScriptning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, PDF-hujjatlarni ko'rib chiqish va bosish uchun faqat bepul tarqatiluvchi Acrobat Reader dasturiga talab etiladi. Uchinchidan, vektorli grafika PDF-faylda yozilishida o'chirilmaydi, matn «egri chiziqlar»ga o'zgarmaydi, shriftlarni esa bevosita PDF-hujjatga tadbiiq etiladi. Kitobning ikki qismida ushbu berilgan o'lchamning o'ziga xos jihatlari yanada batafsil namoyon etilgan.

Ko'pchilik ilovalar tartibga solingan konvertorga ega bo'lgan holda PDF-o'lchamni yaratadi, biroq bunday fayllar xatolarga ega bo'lishi mumkin va har doim ham texnologik jihatdan talablarga javob beravermaydi. Adobe PDF Writer Acrobat Distiller PDF-fayllarini yaratish uchun ikki vositani taklif etadi. Ko'pchilik dizaynerlar va sahifalovchilar Acrobat Distiller bilan ishlaydilar. Ushbu dastur mashhur va kerakli bo'lib qoldi, chunki u ko'proq funksiyalarga ega, bosib chiqarish buyrug'i mavjud bo'lgan ko'plab (amalda barchasi bilan) ilovalar bilan uyg'unlashadi, kompyuter resurslariga katta talab qo'ymaydi va alohida mahsulot sifatida taqsimlanadi.

Nazorat savollari

1. CorelDraw va Abode Illustator vektorli grafik muharrirlarini asosiy vazifalarini ko'rsating.
2. CorelDRAW Graphics Suite dasturining imkoniyatlari
3. CorelDRAW dasturining funksional afzalliklari va kamchiliklari nimada?
4. Adobe Illustrator vektorli grafik muharriri boshqa dasturlardan farqi nima?
5. CS4 versiyasining qanday qo'shimcha imkoniyatlari bor?
6. Photoshop dasturini bugungi kundagi imkoniyatlari nimada?

ILOVALAR

1-Ilova

Dizayn bo'yicha amaliy ishlar

1-misol. Taqdim etiluvchi maketlarga bosmaxona

Talablari

Elektronli tashuvchilar:

CD-ROM va DVD-ROM disklar

USB-interfeysli mobil to'plagichlar

Tashuvchilar IBMPC platformasi bilan uyg'unlagan bo'lishi lozim. 10 Mb o'lchamli paketlar elektron pochta bo'yicha qabul qilinadi.

Fayllar o'lchamlari:

CorelDRAW 12 va bundan pastroq;

Adobe Illustrator 11 dan pastroq;

Macromedia Free Hand 10 dan pastroq;

Adobe InDesign 3.0;

Adobe Page Maker 7 va Adobe Page Maker 6,5 (faqatgina ko'psahifali nashrlar va faqat Post Script (Type 1) shriftlar bilan).

Kichik o'lchamli elementlari bo'lmagan tasvirlar, TIFF-fayllar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Fayllar o'lchamlari OC Windows bilan moslashishi lozim.

Materiallarni uzatish

Maket tashuvchida bir nusxada, 1:1 masshtabda bo'lishi lozim.

Maketga, qir qilishni hisobga olgan holda qir qiluvchi shtampning konturi tushirilgan bo'lishi lozim (alohida qatlamda).

Tasvirni qir qiluvchi o'lcham tashqarisiga chiqarilishi barcha tomonlarida bir xil bo'lishi va bu quyidagi o'lchamlarni tashkil qilishi lozim: qir qilish uchun - 2 mm; chopib qir qilish uchun – 3 mm; ko'psahifali nashrlar uchun – 5 mm.

Mazmundor axborotlar (matn, kalendar to'ri, logotiplar va hokazo) qir qilish chizig'idan 3 mm dan kam yaqin bo'lmaslik kerak. Ko'psahifali hujjatlarda axborotni nashr chekkasidan eng kamida 5 mm masofada joylashtirish tavsiya etiladi.

Prujinaga yigʻiladigan nashrda, axborotning satr boshi yoki koreshokdagi tasvir chekkasi perforatsiyalanish chekkasidan kamida 8-10 mm boʻlishi lozim.

Ikki bukclamli bukletlarda (yevrobuklet) ichki polosasi tashqisidan 2-3 mm kichikroq boʻlishi lozim.

Barcha ranglar PantoneR shkalasida koʻrsatilgan qoʻshimcha boʻyoqlardan tashqari, CMYK-modelida taqdim etilishi lozim.

Qoʻshimcha boʻyoqlar silliqlangan oq qogʻoz uchun Pantone Coated boʻyicha va sayqallanmagan qogʻoz uchun Pantone Uncoated boʻyicha berilishi kerak. Qoʻshimcha ranglardan tashqari barcha ranglar, oddiy emas (spot) balki tarkibli (separated) boʻlishi lozim.

Registration Color dan foydalanmay, uni Black bilan almashtiriladi. Hamma boʻyoqlar yigʻindisi 280% dan oshmasligi lozim. Barcha Rasrtrli Obyektlar CMYK, Grayscale yoki Bitmap modellarida boʻlish kerak.

Barcha Rasrtrli Obyektlar nashrga singdirilishi lozim, boshqa dasturlarda nashr bilan bogʻlanishi lozim.

Barcha asl Obyektlar nomlanishi bilan bir-birlaridan farqlanishi va maket topshirilishida bir papkaga jamlangan boʻlishi lozim; shu papkada sahifalashtirish fayli joylashadi, bu yerda boshqa ortiqcha fayllar boʻlmasligi lozim.

Maketda blokirovkalangan elementlar boʻlmasligi lozim.

Sifatli bosilishi uchun, Rasrtrli Obyektlarning yechimliliigi 260-350 dpi, diapazonda boʻlish lozim; black & white Obyektlardan tashqari (1200 dpi. gacha).

Maketda overprintlar mavjud boʻlmasligi kerak (blackdan tashqari), barcha overprintlar (blackdan tashqari) bosmaxona tomonidan oʻrnatiladi.

Maket ortiqcha Obyektlarga ega boʻlmasligi lozim (yaʼni maket tashqarisida joylashuvchi Obyektlar yoki boshqa Obyektlar bilan 100% yopilgan).

OLE – Obyektlardan va ikki har xil dasturlar oʻrtasida clip-board orqali foydalanish taqiqlanadi; “Import” – “Place” komandasidan foydalaning.

Quymadagi har qaysi boʻyoqning foiz miqdori kamida 7% boʻlishi lozim.

Chiziqlarning yo'g'onligi kamida 0,1 mm bo'lishi lozim (bir rangda bosilishida). Bir necha bo'yoqlardan iborat chiziqlar uchun yoki ag'darilib, teskari bo'luvchi boshqa elementlarda berilishida, yo'g'onligi 0,2-0,3 mm bo'lishi lozim.

Teskari bo'lishi bilan berilgan birdan ortiq bo'yoqli matn uchun keglning qiymati, kamida 7 pt bo'lishi lozim. Kertiksiz shriftlardan foydalanilishi maqsadga muvofiqdir.

Page Maker faqat Post Script (Tipel) shriftlari bilan qabul qilinadi, nashrda foydalanilgan barcha shriftlarning to'liq garniturasini (Normal, Bold, Bolditalic) ilova qilinishi kerak (shuni yodda tutmoq joizki, Tipel shriftlari ikki fayldan tashkil topishi lozim: *pfb (Printer Fount Binary) va *pfm (Printer Fount Metrics)).

Page Makerda Bold yoki Italic shriftlaridan, shuningdek tizimli shriftlardan foydalanmang: dastur, ular hatto quvvatlantirilsa ham, ularni aks ettiradi, biroq Post Script-faylda balki ular ishlanishi mumkindir.

Tanlangan lok vector ko'rinishida bo'lishi kerak va yuqori qatlamda – lok bilan qoplanuvchi Obyekt ustida joylashishi lozim.

Page Makerdan boshqa barcha dasturlarda barcha shriftlar (ayniqsa, Arial, Courier, Times, Symbol va hokazo kabi tizimli shriftlar) “egri”larda bo'lishi lozim.

Maketda shaffofliklar va linzalar bo'lmasligi kerak. Barcha shaffofliklar va linzalar rastrirlangan bo'lishi lozim.

CorelDRAW da barcha effektlar rastrirlangan bo'lishi lozim. Shaffof fonli yoki 90, 180 yoki 270°C dan farq qiluvchi burchakka burilgan Rasrtrli tasvirlar, fon bilan barcha yagona TIFF ga rastrirlangan bo'lishi kerak.

Agar siz sahifalashtirishni EPSda bersangiz, uni Illustrator da og'ishini nazorat qilib boring, chunki prepress-studiya aynan shu dasturdan sahifalashtirishni amalga oshiradi.

Illustrator da faylni saqlab qo'yish oldidan “Object /Path/ Clean Up” komandasini bajaring.

Illustrator da “Print” menyusini chaqirishda “flattening” ogohlantirish paydo bo'lmasligi lozim.

InDesign va Page Maker da barcha sahifalarni bitta kitobga yig'ing.

Ko'psahifali nashrlarda fayllar nomlanishiga, tayyor maket qanday yig'ilishi tushunarli bo'lishi uchun, sahifalarning tartib raqamlarini ko'rsatish zarur.

Eslatma. Maketlarga qo'yiluvchi texnik talablarga rioya etilmaganligi oqibatida tayyor mahsulotni (brak) yaroqsiz bo'lib chiqishida, barcha javobgarlik nobop maket taqdim qilgan tomonning bo'ynida bo'ladi. Shuni esda saqlash lozimki, monitor ekranida ko'ringan ranglar, chop etilganlariga muvofiq bo'lmasligi mumkin.

2-Misol (Original) asl maketga qo'yiluvchi talablar

Nashrni maketlash va sahifalashtirilishi quyidagi dasturiy paketlarda amalga oshirilishi mumkin:

Adobe Illustrator (versiyasi 11,0 gacha);

CorelDRAW (versiyasi 12,0 gacha);

Quark Xpress (versiyasi 6,0 gacha);

Adobe Page Maker (versiyasi 7,0 gacha).

Shuningdek ishlab chiqarishga: eps; psd; tiff; pdf; ps fayllar qabul qilinadi.

Microsoft Word mijoz tomonidan o'rnatilgan ko'rinish va parametrlarni saqlash kafolatisiz ishlab chiqarishga qabul qilinadi.

Majburiy shartlar

1. Nashrning sahifalar o'lchamlari (vizitka, tashrif kartochkasi, etiketka, varaq, buklet va hokazo) albatta buyumning qirqma o'lchamiga mos bo'lishi lozim. Sahifalar o'lchamlari millimetrga karrali bo'lishi lozim (o'ndan, yuzdan, mingdan bir ulushlarsiz).
2. Nashrning o'lchami qirqma o'lchamga qirilib chiqib ketishini hisobga olgan holda mos bo'lishi lozim. Chiqib ketish miqdori 7 dan 2 mm gacha o'zgaradi (tashrif kartochkasi, etiketka, varaq, buklet). Nashrning o'lchamlari millimetrga karrali bo'lishi lozim (o'ndan, yuzdan, mingdan bir ulushlarsiz).
3. Agar nashr bir xil o'lchamli bir necha bir turdagi Obyektlarga ega bo'lsa (masalan, tashrif kartochkasi, etiketkalar) har qaysi Obyektni alohida sahifaga joylashtiring.

Bir turli Obyektlarni bir sahifada joylashtirmang. Nashrni tayyorlashda faqatgina CMYK-palitradan foydalaning. Pantoneprocesssystems va pantonematchingsystems

palitralar ranglarini faqat menejerlar va bosmaxonaning DDP bo'limi bilan maslahatlashgandan keyingina qo'llashga ruxsat beriladi.

CMYK dan farq qiluvchi palitralardan foydalangan holda tayyorlangan nashrlar ishlab chiqarishga qabul qilinmaydi (ayniqsa RGB-palitradan foydalanilgan holdagisi).

Noto'liq rangli nashrlarga CMYK aralashmali ranglar pantone va boshqa ranglarni bermang.

CorelDRAW paketida tayyorlangan nashrlarda quyidagi: dropshadow, transparency, gradientfill, lens, texturefill va post scriptfill kabi effektlar mavjudligiga yo'l qo'yilmaydi.

Sanab o'tilgan barcha CorelDRAW effektlari CMYK-bitmar 300 dpi ga konvertirlangan bo'lishi lozim.

CorelDRAW paketida tayyorlangan nashrlarda shaffof fonli (psd o'lchamida joylashtirilgan fayllar) Rasrtrli grafikalariga yo'l qo'yilmaydi.

Nashrga joylashtirilgan yoki nashr bilan bog'langan Rasrtrli grafika, quyidagicha singari berilishi lozim:

Tiffcmyk (to'liq rangli nashr);

Tiffgrayscale (noto'liq rangli nashr);

Tiffbitmar (noto'liq rangli nashr); eps.

Nashrda jpeg, gif, bmp o'lchamidagi rastr grafikadan foydalanmang.

Rasrtrli grafika yo nashrning ichida (embedimage) yoki nashr bilan bog'langan (linkadimage) bo'lishi kerak.

Bog'langan grafikadan foydalanishda nashrning fayliga zaruriy tasvirlarni ilova qilishni unutmang.

Nashrlarga OLE-obyekt kabi taqdim etilgan Rasrtrli grafikani joylashtirmang.

Rasrtrli grafikaning yechimlilikini quyidagi chegaralarda o'zgaradi: 300-400 dpi (to'liq rangli mahsulotni tayyorlash uchun) va 225-300 dpi (noto'liq rangli mahsulotni tayyorlash uchun).

Nashrlarda yechimlilikini 400 dpi dan yuqori bo'lgan Rasrtrli grafikadan foydalanmang.

Nashrda foydalanilgan barcha shriftlar vektorli grafika tarzida ko'rsatilgan bo'lishi lozim ("egrilarga" o'tkazilgan bo'lishi kerak). Katta hajmdagi matnni sahifalashtirishda shriftlar nashrning fayliga ilova qilingan bo'lishi lozim.

Quark Xpress, Adobe Pagemaker paketlarida sahifalashtirilishida, faqat typel shriftlaridagina foydalanishga yo'l qo'yiladi. Tayyor bo'lgan nashrni bosmaxonaga topshirilishida ishning qora-oq yoki rangli chopini albatta ilova qiling.

O'z nashringizga 0,2 pt dan ingichka chiziqlarni joylamaslikka harakat qiling. Rasrtrli grafikani Adobe Photoshop dasturida ishlang, vektorli grafika va matnni – siz o'zingiz tanlagan noshirlik paketida ishlang. Grafik paketlar o'rtasida fayllar eksportiga imkon boricha yo'l qo'ymaslikka harakat qiling.

Tasvirlarni import qilinishida ularni nashr bilan birga bir katalogda joylashtiring yoki grafik dasturingizdagi "Collectforoutput" komandasini (prepareforserviceburean) bajaring.

Shriftlar

Chiqarishga berilgan shriftlarni o'zingizda mavjud bo'lganlari bilan o'xshashlariga almashtirishda yaxshi natija olishingizga umid qilmang. Hech qachon tizimli shriftlar bilan sahifalashtirmang (tizimga Windows yoki Macos installyatsiyalanish jarayonida o'rnatiluvchi shriftlar bilan). Bizga faqat nashrni tayyorlashda foydalanilgan shriftlarni olib keling. Imkon qadar faqat Post Script shriftlaridan va mashhur ishlab chiqaruvchilar shriftlardan foydalanishga harakat qiling.

3-Misol. Maketlarga qo'yiluvchi talablar

Ofset bosma uchun maketlarga qo'yiladigan talablar

Maksimal bosiluvchi maydon – 330*480 mm.

Maksimal qirqma o'lcham – 330*480 mm.

Zaruriy hollarda chiqib ketish 2 dan (tashrif kartochkasi) 3 mm gacha (bukletlar, varaqalar). Qirqilib ketishga chiqib ketmaydigan elementlar (rasmlar, matn), qirqma o'lchamning qirrasiga 4 mm dan yaqin kelishi maqsadga muvofiq emas.

Nashrlar bosib chiqarishga buyurtmachi tomonidan imzolangan, bukmalar va polosalar tartib raqamlarini ko'rsatilgan holdagi (original) asl maketlarni bosib

chiqarilishsiz qabul qilinmaydi. Dot Gain 18%, black ink limit 100%, total ink limit 300%.

Rang ajralish uchun parametrlar – ofset uchun standart (175 lpi, pastga emulsiya (o‘qilmaydigan), pozitiv).

Maketni faylning boshqa o‘lchamida takrorlanishi maqsadga muvofiq, masalan, Illustrator (EPS) + TIFF.

PDF-o‘lchamidagi fayl ofset bosma uchun boshqa o‘lchamdagi dublikati mavjud bo‘lishidagina qabul qilinadi, masalan, Illustrator (EPS) + PDF.

TIFF, PSD, EPS Rasrtrli o‘lchamlar

Fayllar qir qilish, moslashtirish belgilari va ma’lum tartibga bukilish chiziqlariga ega bo‘lmasligi kerak (zaruriy holatlarda bukilish chiziqlari holatini ko‘rsatishda yo‘naltiruvchilardan foydalaning).

Rasrtrli faylning yechimlilik 100% masshtabda 250-300 dpi. fayl CMYK rang modelida saqlanishi lozim. U hech qanday qo‘shimcha kanallarga (^annels) ega bo‘lmasligi kerak. Istisno tariqasida EPS o‘lchamidagi (Photoshop DCS 2,0), qo‘shimcha (“Spotcolors”) kanallariga ega fayl bo‘lishi mumkin, qaysiki bu fayl ofset bosmada qo‘shimcha “Pantone”ranglarni bosishda qo‘llaniladi.

Dot Gain 18%, black ink limit 100%, total ink limit 300%. Rasrtrli faylda mayda elementlar, 9 keglardan kichik shriftlar yoki kertma shriftlar, 2 pt dan ingichka chiziqlar mavjud bo‘lishida, rastri faylning yechimlilik 400-600 dpi gacha ko‘paytirish mumkin. Boshqa rang modellarida (RGB, Indexed Colors, CIELab va b.) fayllar olinishida CMYK ga konvertirlanishda rangni o‘zgarishi albatta qo‘shimcha ravishda buyurtmachi bilan kelishiladi.

Vektorli o‘lchamlar

Barcha matnlar “egri”larga o‘tkazilishi zarur. Matnli satrlarning ko‘rinmas markerlari bo‘lmasligi lozim, qaysiki ular dastur tomonidan “egrilar”ga o‘tkazilmagan matn kabi qabul qilinadi (Illustrator).

Konturlar va quymalarning barcha ranglari CMYK rang modelida bajarilishi lozim (qo‘shimcha (Pantone) lardan foydalanilishi bundan mustasno).

Nashr etilishi uchun uzatilgan faylda maxsus effektlarni qoldirilishi mumkin emas (shaffoflik, linzalar va hokazo). Ulardan foydalanish zaruriyati paydo bo'lish holatlarida TIFF faylga o'tkazilishi kerak.

Rasrtrli tasvirlarni chiziq tortib o'tkazilishi maqsadga muvofiq emas. Agar tasvir chiziq tortib o'ralgan bo'lsa, barcha fayllar taqdim etilishi lozim. Bunda qo'shimcha kanallarga ega ("Spotcolor"), ofset bosmada bosish uchun qo'shimcha "Pantone" ranglar qo'llanuvchi EPS (Photoshop DCS 2,0) o'lchamidagi fayl bundan mustasno.

Boshqa rang modellarida fayllar olinishida (RGB, Indexed Color, CIELab va b.), CMYK ga konvertirlashda rangni o'zgartirilishi albatta qo'shimcha tarzda buyurtmachi bilan kelishtirilishi lozim.

Quark Xpress, InDesign

Barcha quyilgan tasvirlar 100% (+-50%) masshtabda bo'lishi kerak.

Barcha nashrlar CMYK rang modelida taqdim etiladi (qo'shimcha Pantone dan foydalanilishi bundan mustasno). Rangning nomi uni tarkibini aks ettirishi maqsadga muvofiqdir. Eng maqsadga muvofiq bo'lishi PDF faylini ilova qilinishi hisoblanadi (uzatiluvchi sahifalashtirishdan qilingan). Sahifalashtirishdan tashqari barcha quvvatlovchi fayllar taqdim etilishi zarur (Rasrtrli va grafik fayllar), ular qo'yiluvchi talablarga javob berishi lozim bo'lib, nashrda foydalaniluvchi barcha shriftlar ham taqdim etiladi.

Rang ajralgan PS-fayl

Rang ajralgan Post Script faylni yoki plynkalarni taqdim etishda, faylning sifati va belgilarni to'g'riligi tekshirilmaydi. Fayllarni talablarga javob bermaslik holatlarida, bo'lishi mumkin bo'lgan uzilishlarga javobgarlik buyurtmachining zimmasiga qo'yiladi va raddiyatlar qabul qilinmaydi.

Polosalar tushirishni amalga oshirilishi va belgi, shkalalar qo'yilishi oldidan telefon orqali maslahatlashib olinishi tavsiya etiladi.

Nashrlar, buyurtmachi tomonidan imzolangan, buklanish chiziqlari, polosalar tortib raqamlari ko'rsatilgan, asl-maketlar bosma ko'rinishda mavjud bo'lgandagina qabul qilinadi.

4-misol. Ofset bosma uchun fayllar o'lchamlari

Rang ajralgan Post Script PS; Illustrator (ver, 8,9,10,CS) AI, EPS.

CorelDRAW (ver. 8,9,10,11,12) CDR, EPS, CMX.

Quark Xpress QXDQ; InDesign INDD, INDT.

Photoshop (ver. 5-7) TIFF, PSD, EPS.

Sovgʻabop mahsulot uchun maketlarga qoʻyiluvchi talablar sovgʻabop mahsulotning turiga bogʻliq ravishda xususiy holda kelishib olinadi.

Ofset bosma

Grafik fayl 300 dpi yechimlilikga, CMYK rang modeliga ega boʻlishi lozim, qora-oq tasvir boʻlishi holatida – Grayscale.

Maket qirqma oʻlchamga + 3-5mm chiqib ketishi hisobi bilan muvofiq boʻlishi lozim.

Maketga albatta chop etilgan qism ilova qilinadi. Vektorli dasturlarda sahifalashtirilgan maketlar raqamlarga ega boʻlmasligi lozim (yaʼni shriftlar “egrilar”ga oʻtkazilgan boʻlishi lozim) yoki shriftlarni biriktirilgan fayllariga ega boʻlishi kerak (tashuvchidagi alohida papka). Aks holda dizayn-byuro matnni maketda yaxshi aks etishida javob bermaydi. Maketga kiritilmagan tasvirlar, albatta tashuvchida mavjud boʻlishi lozim. Maxsus dasturiy effektlar olqishlanmaydi (ularni Rasrtrli tasvirga oʻtkazilishi maqsadga muvofiqdir). Maketda foydalanilga barcha ranglar CMYK rang modeliga ega boʻlishi lozim, plashkaga oid ranglardan foydalanish holatida Pantone Formula Guide boʻyicha boʻyoq tartib raqamlari talab etiladi.

Tashrif kartochkalari-Ofset

Qirqma oʻlchami 90x50 mm. chop etish oʻlchami – 82x42 mm. Ranglar soni buyurtmada koʻrsatilganiga teng. Pantone ranglardan foydalanilishida jilosiz yoki jilolangan silliq qogʻoz hisobga olinishi lozim. Plashkalar (taxtachalar) yoki tasvirlardan foydalanilishida parron uchun 3-5 mm qoldirilishi lozim. Shriftlar egrilarga oʻtkazilishi lozim. Rasrtrli tasvirning yechimlilik – 300 dpi, modeli CMYK.

Raqamli bosma

Qirqma oʻlchami 90x50 mm. chop etish oʻlchami – 82x42 mm. Ranglar soni buyurtmada koʻrsatilganiga kabi. Pantone ranglaridan foydalanish mumkin emas,

faqat triad ranglar ishlatiladi. Plashkalardan foydalanilishida tasvirlarni parronga 3-5 mm qoldirilishi lozim. Shriftlar “egrilar”ga o‘tkazilishi zarur. Rasrtrli tasvirning yechimlilik – 300 dpi, modeli CMYK.

Folgada ezib iz tushirish

Qirqma o‘lchami 90x50 mm. chop etish o‘lchami – 82x42 mm. Ranglar soni buyurtmada ko‘rsatilganiga kabi.

Faqat vektorli tasvirlar qabul qilinadi. Barcha ranglar 100%. Nimranglardan, gradientlar, shaffofliklar va boshqa maxsus effektlardan foydalanilmasligi lozim. Chiziqning yo‘g‘onligi kamida 0,3 px. Kegl kamida 6 px. Barcha shriftlar “egrilar”ga o‘tkazilishi zarur.

Bannerlar

Maketning o‘lchami bosmaga muvofiq keladi. Axborot (matn, logotip) chekka qirradan 7 sm dan yaqin joylashmasligi lozim. Yechimlilik 96 dpi. o‘lchamlar TIFF, ESP, CDR, AL, PSD. Shriftlar “egrilar”ga o‘tkazilishi zarur.

Zajigalkalar (tampobosmalar)

Bosma o‘lchami – 45-12 mm. Faqat vektorli tasvirlar qabul qilinadi. Ranglar soni buyurtmada ko‘rsatilgani kabi. Barcha shriftlar “egrilar”ga o‘tkazilishi lozim. Chiziq yo‘g‘onligi kamida 0,5 px. Kegl kamida 6 px.

Avtoruchkalar (tampobosma)

